

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK:

Maxsus pedogogika Logopediya yo'nalishi

Matkasimova Dilbar Shukurullo qizi

“Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini
rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklaridan foydalanish”

mavzusida

magistr darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA ISH

Ilmiy rahbar: Pfn,Dots,Ahmedova.Z.M

“ ” 2020-yil

imzo

Kafedra mudiri: Pfn,Dots,Abidova N.Z

“Himoyaga tavsiya etildi”

“ ” 2020-yil


imzo

Magistratura bo'limi boshlig'i: R.Sh.Berdiqulov


“Himoyaga ruxsat berildi”

“ ” 2020-yil

imzo



917-11



Toshkent 2020

Annotatsiya

“Alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalarning og’zaki nutqini rivojlantirishda o’zbek xalq ertaklaridan foydalanish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishining **maqsadi** maktabgacha yoshdagi alaliya kamchiligiga ega bo’lgan bolalar nutqini rivojlantirishda o’zbek xalq ertaklarinig o’rni va ahamiyati hamda o’zbek xalq ertaklaridan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ishining **yangligi** sifatida maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar nutqi va mayda qo’l umumiy motor harakatchanligini rivojlantirish metod va uslublari taklif etilmoqda. Tadqiqot ishining **natijasida** o’zbek xalq ertaklarinig o’rni va ahamiyati yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar ko’rsatib o’tilgan samarali usullar yordamida alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar nutqining va nutq jarayoni bilan bevosita bog’liq bo’lgan bilish jarayonlarning shaklanishi isbotlab berilgan.

Kalit so’zlar: Ertak teapiya, korreksiya, teapevtik usul, nutq va motorika

Annotation

The purpose of the master's dissertation on "The use of Uzbek folk tales in the development of oral speech in children with Alalia speech deficiency" is the role and importance of Uzbek folk tales in the development of speech in preschool children with Alalia deficiency. The novelty of the research is the development of methods and techniques for the development of speech and fine motor skills of children with speech disorders in preschool age. The role of Uzbek folk tales as a result of the research. and the formation of speech and cognitive processes directly related to the speech process in children with Alalia speech deficiency has been proven using effective methods that have been demonstrated by methodological recommendations developed on its importance.

Key words: Fairytale therapy, specch motoric, correction, therapy methods

MUNDARIJA

KIRISH	4
I-BOB.MUOMMONI O’RGANISHNING ILMYIY NAZARIY ASOSLARI	
1.Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi va motorik rivojlanishining adabiyotlarda yoritilishi.....	19
2.Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutq rivojlanishidagi o’ziga hos hususiyatlari.....	31
3. Bolalar nutqining rivojlanishida ertak terapiyasining tarixiy bosqichlari.....	40
Birinchi bob bo’yicha hulosasi.....	45
II - BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIK BOLALAR NUTQINI EKSPERIMENTAL O’RGANISH	
1. Takidlovchi eksperiment mazmuni, metodlari va uni tashkil etish.....	46
2. Takidlovchi eksperiment natijalari.....	50
Ikkinchi bob bo’yicha hulosasi.....	62
III - BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALAR OG’ZAKI NUTQ RIVOJLANISHIDA O’ZBEK XALQ ERTAKLARINING O’RNI VA AHAMYATI	
1.Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar nutqini rivojlantirishda ertak terapiyasini texnologiyasini tashkil etish va o’tkazish.....	63
2.Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar experimental guruhida ertak terepiyasi natijalari.....	67
3.Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar nutqi rivojlanishida o’zbek xalq ertaklarining o’rni.....	74
4.Ertak terapiyasi orqali alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar.....	75
Uchinchi bob bo’yicha xulosasi.....	83
XULOSA	84
ADABIYOTLAR RO’YHATI	86
ILOVALAR	91

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatimizda hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlod kelajagiga dahildor qonun loyihalarini ishlab chiqish va uni yanada takomillashtirish kabi vazifalar asosiy o'rinni egallamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan yurtimizda har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi islohotlarni qo'llab quvvatlash va yuksak bosqichga ko'tarish borasida bir qator salmoqli loyihalar ko'rsatib berilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan ushbu islohotlar kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarning ham jismonan ham ma'nan yetuk, barkamol shaxs bo'lib rivoj topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda ushbu say-harakatlarni mamlakatimizda ona va bola skriningi, aholini reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlarning uzviy davomi sifatida ko'rish mumkin.

Sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllashtirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy me'yorlarni ishlab chiqilishi, o'z navbatida sog'lom bolaning dunyoga kelishi bu bevosita sog'lom va ahil oilaning mevasi deb qaralib, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko'rsatilishi, onalik va bolalik muhofazasini ta'minlanishi, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash borasidagi asosiy ustuvor tamoyillar sifatida qarashimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingan bo'lib, u izchil amalga oshirilib kelinayotgan bir davrda sog'lom avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu bilan birgalikda "Ta'lim tog'risidagi qonun" loyihasida ham o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib o'stirish qonunning muhim mazmuni qilib

belgilangan. Xususan, mazkur hujjatning 11-moddasida ushbu masalaga quyidagicha yondashilgan¹:

“Maktabgacha ta’lim bosqichi bu bolalarni sog‘lom va yetuk holda maktabda o‘qishga tayyorlash va bolalarni yanada shakillantirish maqsadini asosiy o‘ringa qo‘yadi”.² Ushbu modda maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasalariga murakkab va ma’suliyatli vazifalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunining 11-moddasida “Maktabgacha ta’lim jarayoni bolalarning 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida yoki mulk shaklidan qat’iy nazar, boshqa ta’lim muassalarida olib boriladi” deya keltirib o‘tilgan. Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarori imzolandi. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³ 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni ta’minlashda maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini tashkil etish va takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Amalda joriy qilingan farmon miqyosida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi qoshida “Maktabgacha ta’lim metodikasi” jurnalining ta’sis etilishi hamda maktabgacha ta’lim tizimining rivojlantirish uchun ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa qilib belgilab berilgan.

Maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasalarda ta’lim oluvchi har bir bolani zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo‘lib, jamiyat ishlarida faol qatnashishida ularning har taraflama rivoj topishi jamiyatimiz tarqqiyoti uchun muhim o‘rin egallaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalardagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha

¹ Ta’lim to‘g‘risidagi qonun.: Meyoriy hujjat-O‘zb Res Qonuni-2016/www.Lex.uz

² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.: Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori-Toshkent: Sharq, 1997.,

³ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyev PQ 3305-sonli qarori. “<http://www.prezident.uz>”.

ta'lim bilan qamrab olinishi jarayonini jiddiy isloh qilish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish asosiy vazifalardan biridir.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "Aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron hamda aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirishga diqqat bilan qaralmoqda ⁴. "Harakatlar strategiyasining" ushbu bandiga muvofiq yurtimizda bir qator dastur va farmoishlar ishlab chiqilgan bo'lib, mutasadi tashkilotlar tomonidan ijrosi amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyish aholini himoyaga muhtoj qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda ularni sog'lom hayotga qaytarishga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni nazarda tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan nogirog'ligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo'yicha kommissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish va ish bilan taminlash borasidagi harakatlarni chuqur va kompleks o'rganish haqidagi nizom loyihasi ishlab chiqildi. Farmoyish doirasida hamkorlikdagi say-harakatlar natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush darajasini yanada yaxshilash, ularga sifatli tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, bunday shaxslarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ro'yobga chiqarishga

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – B.39.

hamda ularning jamiyatdagi faol hayot tarzini shakillantirishga ko‘maklashish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.⁵

Mazkur chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan vazifalarga ko‘ra:

1. Aholi bilan o‘tkazilgan ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yakunlari hamda manfaatdor vazirliklar va idoralarning fikr-mulohazalarini inobatga olish:

a) O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

b) BMT ning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgalik bo‘yicha amaliy chora tadbirlar ko‘rish haqidagi takliflar ishlab chiqilsin.

2. Quyidagilar nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin.

Nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlar yaratib berish va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash;

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlash sohasidagi umum e‘tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya ko‘rinishida kiritish;

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-sonli farmoniga ilova sifatida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari”⁶ dasturi belgilab olindi. Mazkur dastur ijrosi yuzasidan Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi hamda Respublika Sog‘liqni Saqlash Vazirligi

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 декабрдаги ПФ-5270-сонли Фармони “Ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш тизimini янада такомиллаштириш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш” бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyev PF- 5270-sonli qarori. “<http://www.prezident.uz>”.

tomonidan nogironlikga ega bo'lgan bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik asosida, viloyatlar kesimida diagnostika qilish, qiyosiy ma'lumotlar to'plash hamda olingan ma'lumotlar yuzasidan amaliy yordam ko'rsatish ishlari yangi bosqichga olib chiqildi.

Ilmiy tadqiqot maydoni Toshkent shahri bo'lganligi sababli "Bolalar ijtimoiy maslashuv" markazi ilmiy hodimlar tomonidan to'plangan statistik ma'lumotlarni tahlili o'rganildi. Berilgan statik ma'lumotga ko'ra chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik natijalari asosida "Toshkent shahridagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan umumiy 0-18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida yillar kesimida necha foizni tashkil etishi olingan natijalar asosida tahlil qilindi. Natija shuni ko'rsatadiki, 2016-yilda Toshkent shahri bo'yicha 0-18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 66100 nafar bolada nutq nuqsonlari mavjud. Ushbu ko'rsatkich umumiy Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi bolalarning 18,73% tashkil etadi. 0-18 yoshgacha bo'lgan nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalardan 10836 (18,7 %) nafarini maktabgacha yoshdagi bolalar tashkil etadi. 2017-yil natijalariga ko'ra esa 0-18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 19369 (5,93 %) nafarini, shulardan 12065 (60,7 %) nafarini maktabgacha yoshdagi bolalar tashkil etadi. 2018-yilgi qiyosiy ma'lumotlar tahlilida 0-18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 16706 (2,47%) nafarni tashkil etadi. Shulardan 11815 (572,4%) nafarni maktabgacha yoshdagi bolalar tashkil etadi".⁷ Ushbu ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yildan yilga nutq nuqsonli bolalar ko'rsatkichning sezilarli darajada kamayganligi va shu asosda O'zbekiston miqyosida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligi nomoyon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakillantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish

⁷ "Bolalar ijtimoiy moslashuv markazi.:Toshkent-2008:0-18 yoshgacha bo'lgan bolalar reabilitatsiyasi Ilmiy bo'limi.

uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror yuzasidan bolalarni ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga va qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik pedagogik komissiya to‘g‘risidagi nizom tayyorlandi”⁸. Ushbu nizomga ko‘ra, tibbiy psixologik pedagogik komissiya xulosasini berish uchun asos bo‘ladigan tibbiy ko‘rsatmalar ro‘yxatini 3-bandida ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilingan nutqida nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga tashxis qo‘yish jarayoni aniq ko‘rsatib berilgan.

Nutqdagi nuqsonlar:

- Ekspressiv nutqning buzilishi (nutq buzulishining birinchi darajali motor alaliyasi) F80.1
- Retseptiv nutqning buzilishi (sensor aliyasi) F80.
- Rinolaliya (nutq aparatining koreksiya bo‘yicha operatsiyalardan keyingi holat) R49.
- O‘rtacha va og‘ir darajadagi duduqlik F98.
- Dizatriya (Markaziy nerv tizimining organik organik shikastlanishi bilan) R47.
- Bolalar afaziyasi F80.3

Yuqorida og‘ir nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalarni tashxislash ko‘rsatib o‘tilgan. Bola yoshligidan atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo‘lib, ko‘nikma va malakalarni egallaydi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik maktabda bilimlarini shakillantiradi. Bu bosqichlarda bolalarga ta’lim-tarbiya berishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda va yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish va uni egallashda nutq vositasi asosiy ro‘lni egallaydi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nutqida og‘ir nuqsoni mavjud bolalarning nuqsonlarini bartaraf etish, ularni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish, sog‘lom tengdoshlari kabi voyaga yetishini ta’minlash kabi vazifalar maktabgacha maxsus ta’lim muassasalarining asosiy tamoyilidir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqidagi kamchiliklar mavjudligi ularda ta’lim olishini qiyinlashtiradi. Jumladan tadqiqotimizning obekti

⁸ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyev PQ 3955-sonli qarori. “<http://www.prezident.uz>”.

bo‘lmish alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar ham shular jumlasidandir. Sog‘lom nutq bolalarning har tomonlama rivojlanishining muhim vositadi deb qaraladi. Bolaning nutqi qanchalik ravon va lug‘ati boy bo‘lsa unga o‘z fikrlarini bayon etish shunchalik erkin bo‘lib, atrof olamni idrok etish imkoniyati kengayadi. Bu jarayon kattalar va o‘z tengdoshlari orasida shakllanadi. Shuning uchun ham bolaning nutqi o‘z vaqtida shakllanishi va uning ravonligiga e‘tibor qaratish, bola nutqi qaysi tilda shakllanayotgan bo‘lsa, mazkur til meyorlariga moslab borishni taminlash kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, Yurtimizda nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar nuqsonlarini erta aniqlash va bartaraf etishga yuqori darajada ahamiyat berish lozim.

Shu jumlandan Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus loyihasi ham yosh avlod sog‘lom, barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zamin yaratib beradi. 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish maqsadida 5 ta muhim tashabbus qabul qilindi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarish;

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish;

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ushbu tashabbuslar g‘oyasi “Ilk qadam davlat o‘quv dasturi” bilan birgalikda ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod ulkan imkoniyatlar yaratib berdi. Hozirgi kunga kelib maktabgacha ta‘lim muassalari tarbiyachilari, bolajonlar bilan

birgalikda har bir yo‘nalishda ularning qiziqishlariga ko‘ra sport to‘garaklari, musiqa, raqs, jismonan tarbiya hamda kitobxonlikni targ‘ib qilish ishlari ma’suliyat bilan amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni yetuk barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida nogiron bolalar ta’lim tarbiyasiga ham urg‘u berib: “Biz jamiyatimizdagi quyi pog‘onadagi tartib, intizom va ma’suliyatni mutlaqo o‘zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz - yoshlar bilan shug‘ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug‘ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Ma’suliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo‘yishimiz kerak”.⁹ Maktabgacha ta’lim sohasida yetuk kadrlarni jalb qilish va ularni malakasini qayta oshirish tizimi orqali bolalarimizning buguni va ertasi uchun mukammal, yetuk inson bo‘lib yetishishda ularning aqliy, ko‘rish, eshitish hamda nutqiy malaka qobiliyatlarining rivoj topishiga erishamiz. Mamlakatimiz taraqqiyotida nuqsoni bo‘lgan bolalarning barcha sog‘lom teng qurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo‘lib yetishishi kabi masalalariga asosiy o‘rinni egallamoqda. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash va jamiyatimizni ma’naviy jihatdan boyitib borish uchun dunyo hamjamiyati bilan yangicha integratsiyalashuv jarayoni jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Nogironlikni oldini olish bilan birgalikda ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, ularning yashash muhitini yaxshilash va yanada sog‘lomlashtirish, maxsus korreksion pedagogik yondashuv orqali ularning nuqsonlarini korreksiyalash va kasb-hunarga yo‘naltirish va tayyorlash kabi murakkab va ma’suliyatli vazifalarni amalga oshirish hozirgi maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadidir .

Shu boisdan, bugungi kunda jamiyatimizda maktabgacha bo‘lgan defektologiya sohasining eng dolzarb vazifalaridan deb maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchi har bir bolani nuqt sohasida zamon talabi asosida

⁹ Sh.M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b.

har tomonlama shakllangan shaxs bo‘lib, jamiyat ishlarida faol qatnashishida ularning har taraflama rivoj toptirish bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, ushbu jarayonda Maktabgacha logopediyaning eng dolzarb masalalaridan biri nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni maktab ta‘limiga faol tayyorgarlik ko‘rishida ko‘maklashishdan, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar kamchiliklarini bartaraf etib, ularni sog‘lom tengdoshlari singari ta‘lim tarbiya olishi mazkur bolalarni jamiyatimizga integratsiyalashtirish kabi masalalari hisoblanadi. Nutq buzilishi, nutqiy muomalar cheklanganligi bola shaxsining shaklanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, aslida bo‘lmagan ruhiy buzilishlarni hamda hissiy irodaviy kamchiliklarni yuzaga keltirish va bu orqali uning harakteridagi salbiy xulqni rivojlanishini keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalardaki nutqiy faoliyatni rivojlantirish hamda undagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga, nutqiy faoliyati rivojlanmaganligi bilan birga namoyon bo‘ladigan motor va bilish jarayonlaridagi kamchiliklarni aniqlash, va ularni bartaraf etish sohaning asosiy muammolari hisoblanadi. Bu muommolarni o‘rganish, ularni tahlil etishda nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha rus olimlaridan Leontov Otsman(1884), A.Libman(1900), M.V.Bogdanov-Berezovskiy(1909), E.Freshels(1931), keyinchalik esa M.YE.Xvatsev, N.N. Traugott, V.K.Ortnskaya, R.YE.Levina, YE.F.Sobotovich, V.A. Kovshikov, S.N.Shaxovskaya, V.K.Vorobyeva va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Turli mualliflar ishida turlicha metodlarni qo‘llash asosida alaliyada nutq rivojlanishi va xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib ular quyidagilardir: fiziologik, klinik, psixologik, lingvistik, psixolingvistik va boshqalardir. So‘ngi davrda alaliyani o‘rganishdagi muvaffaqiyatlar tadqiqotchilarning o‘z faoliyatlarida “nuqson tahliliga har tomonlama sindromal yondoshuv metodologiya”siga ko‘proq tayanish vositasida yuzaga kelgan³. Bunda o‘rganishning psixolingvistik aspekti birinchilardan bo‘lib, bu YE F.Sobotovich, V.A.Kovshikov, B.M.Grinshpun va boshqa tadqiqotchilar ishlarida ifodalangan. Ayni vaqtda alaliyani o‘rganishning barcha masalalari hali to‘la ochib berilmagan.

O‘zbekistonda L.R Mo‘minova, M.Ayupova, Z.M Ahmedova, X.Po‘latova, Sh.Shokirova va shular qatorida tadqiqotchi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Mahsus adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, alaliyani bartaraf etish muammosi ko‘p izlanishni talab etadi. Shuning uchun mazkur mavzuni o‘rganish hozirgi kunda ayniqsa dolzarb sanaladi. Psixologik tekshirish va o‘rganish natijasida bilishimiz mumkinki, O‘zbekistonda mazkur muommo yuzasidan chuqur izlanishlar olib borilmagan. Motor alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar bilishi, motor rivojlanish hususiyatlari rivojlantirishga doir maxsus dastur, qo‘llanmalar, ishlanmalar, ko‘rgazmali materiallarning kamligi sababli ushbu muammo dolzarb deb topildi, hamda mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos qilib olindi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Respublikamizda hozirgi kunda 72-MMTM lar faoliyat yuritayotgan bo‘lib ushbu muaasalarning nutq nuqsonli bolalar guruhlarida taqsil olayotgan bolalardan 70% alaliya kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar tashkil etadi. Demak alaliya nutq kamchiligi o‘z o‘rnida boshqa nutq kamchiliklariga nisbatan 2 barobar ko‘p holatda uchraydi. Alaliya sistemali nutq buzilishi bo‘lganligi sababli korreksion ish bir necha yil davomida muntaazzam ravishda olib borilishi lozim. Korreksion tizim natijaviylik yuqori bo‘lishida olim tomonidan tavsiya etilgan usullar yuqori ahamiyati kasb etadi. Xususan, korreksion tizimida ertak terapiyasi orqali bolalar nutqni rivojlantirish hozirgi kunda xalqaro tajribada keng miqyosida qo‘llanilib kelinmoqda. Ertak terapiyasi hali yangi soha bo‘lishiga qaramasdan bir qator chet el olimlari B.Gerbenshikova “Qo‘g‘irchoq terapiyasi” L.G, Grabetenko T.A “Bolalarga nima uchun ertak o‘qish kerak”, Elkoniva N.L “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida ertaklarning ahamiyati”, Zinkeiviech Evstegina T.D ning “Ertak terapiyasi amaliyoti”, “Qum ustida mo‘jiza”, kabi ilmiy ishlarida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar nutqi rivojlanishida ertaklardan foydalanish haqida ham tavsiyalar berib o‘tilgan. O‘zbek olimlar L.Mo‘minova, R Kabulovalarning “Bolalar nutqning kichik folklor janrlari asosida rivojlantirish texnologiyasi”, M.Y Ayupova, Z.M Ahmedova, M.P Hamidovalar tomonidan tavsiya etilgan “Logopedik o‘yin” qo‘llanmalarida ham ertaklarni qum, qo‘g‘irchoq, musiqa,

harakat terapiyalari bilan uyg'unlashtirib bolalar nutqni rivojlantirishda keng foydalanish haqida tavsiyalar berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, nutq nuqsoniga ega bo'lgan alalik bolalarimiz ham jamiyatimizdagi sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda barkamol vatanparvar yosh avlod sifatida kamol topishida xalqimizning boy ma'naviy merosini aks etiruvchi o'zbek xalq ertaklarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ertak terapiyasi usuli orqali yaxshilik odob-axloq kattalarga bo'lgan hurmat kabi xislatlarni bolalarga o'rgatish orqali ularning nutqini rivojlantirish o'z navbatida ertak terapiyasi usularining yurtimizda keng miqyosida targ'ib etilmaganligi hozirgi maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri xisoblanib kelinmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Maktabgacha yoshdagi alaliya kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklarining o'rni va ahamiyati hamda o'zbek xalq ertaklaridan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
2. Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutq komponentlarining o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish;
3. Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi rovojlantirishida umumiy va barmoqlar motor harakat holatini o'rganish;
4. Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi komponent va ulardagi motor harakat holatini qay darajada rivojlanganligini aniqlash metodikasni tayyorlash;
5. 5-6 yoshdagi Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi komponent va ulardagi motor harakat holatini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov o'tkazish;
6. Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda ertak terapiyasini o'tkazish texnologiyasini ishlab chiqish;
7. Mutaxassislar uchun ertak terapiyasini texnologiyasini yaratishida metodik tavsiyalar berish;

Tadqiqot ob’ekti: Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega 5-6 yoshli bolalar.

Tadqiqot predmeti: Maktabgacha yoshdagi alaliya kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini o‘zbek xalq ertaklari asosida rivojlantirib borish jarayoni.

Tadqiqotning metodologik asosi: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni (1997 yil), “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Maxsus ta’lim konsepsiyasi”, “Bolalarni himoya qilish konvensiyasi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi”, “Ma’naviyat xaqidagi g‘oyalari”, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlari, Prezident qarorlari, Sharq mutafakkirlarining falsafiy va ahloqiy qarashlari, R.L Levina tomonidan ilgari surilgan nutq potologiyasini tahlil qilish prinsplari, nutqni o‘rganish va ontogenezda nutqni egallash qonunlari, I.P Pavlovning “Neyro-fizologik”, L.S Luriyaning “Nutq tafakkur birligi to‘g‘risidagi psixo-lingvistik konsepsiya”si, L.S.Vigotskiyning “Normal va animal rivojlanishning qonunyatlarining birligi to‘g‘risida”gi fundamental ilmiy qoidalari kabilar tashkil etigan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- Tadqiqot mavzusi buyicha psixologik, pedagogik, defektologiyaga oid metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalaridagi nutq nuqsoniga ega bo‘lgan tarbiyalanuvchilarning tibbiy pedagogik xujjatlarini o‘rganish, tarbiyalanuvchilar, logopedlar hamda ota-onalar bilan yakka suxbat o‘tkazish;
- Alaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik mashg‘ulot jarayonni kuzatish va tahlil qilish;
- Maktabgacha yoshdagi nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan takidlovchi, ta’limiy, aniqlovchi, diagnostik eksperiment o‘tkazish va ularni matematik statistik jihatdan tahlil etish;

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- Fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlanishini ertak texnologiyasi samaradorligi o‘z ahamiyatiga ega bo‘ladi;
- Agar bolardagi nutq nuqsoni erta tashhis etilsa va korreksion tizmiga ilk yosh davrlaridanoq jalb etilsa;
- Psixologik-Fizologik va boshqa potologik ta’sirlar yaxlitligicha ta’lim tarbiya maqsadlariga yo‘naltirilsa;
- Bolalarning yosh va shaxs hususiyatlaridan kelib chiqan holda ularga individual tarzda yondashilsa;
- Bolalarning nutqini rivojlantish ma’lum maqsadga qartilgan holda tizimli ravishda tashkil etilsa;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlanishini ertak texnologiyasi orqali rivojlanish metodikasini tayyorlash;
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlanishda lug‘at boyligini oshirishga samarli usularni aniqlash;
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlanishida mayda qo‘l va umumiy motorikasining rivojlantirishga doir yetakchi metodikalarini taqdim etish;
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlanishida ertak terapiyasi usulini ilgari surish;
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlanishida ertak terapiyasini texnologiyalashtirish asosida amaliyot jarayonida qo‘lashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Maktabgacha yoshdagi alaliya kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va shu asosida muntazam ravishda qo‘lanadigan metodlarni o‘rganib chiqib, alalik bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik korreksion ish tizimi

samaradorligini oshirish maqsadida o'zbek xalq ertaklaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Maktabgacha yoshdagi alaliya kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqining o'ziga hosligi bolalardagi nutq nuqsoni oqibatida rivojlanishda orqada qolayotgan nutq komponentlari haqidagi ma'lumotlar o'rganilib, nutq kamchiliklarni bartaraf etishda bir qator ertak terapiyasining samarali usullar ishlab chiqildi. Ushbu ertak terapiyasi olib borish texnologiyasini amaliyotchi logopedlar uchun qo'llanma sifatida ushbu usullar orqali ota onalar uchun metodik yordam tashkil etishda foydalanish mumkin.

Kutilayotgan natija va mummolar yechimi: Ilmiy tadqiqot ishi orqali olingan natijalar tahlili, ko'rsatib o'tilgan samarali usullar yordamida o'zbek xalq ertaklarinig o'rni va ahamiyati yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar taqdim etildi, ushbu metodik tavsiyalardan:

- maktabgacha yoshdagi nutq kamchiligiga ega bolalarning muloqot jarayonini ertak texnologiyasi orqali rivojlantirish mobaynida;
- logopedik korreksion mashg'ulotlar jarayonida;
- ota-onalar bilan hamkorlik metodik yordam hizmatini tashkil etishda;
- maktabgacha ta'lim muassasalarning logoped tarbiychi hodimlari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi va nutq komponentlari rivojlanishining nazariy asoslari.
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar motorikasining rivojlanishining o'ziga hos hususiyatlari.
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalardagi nutqni tushunishini tekshirish natijalari.
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar lug'at boyligini tekshirish natijalari.
- Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalarda mayda qo'l matorikasi va umumiy matorikasini tekshirish natijalari.

➤ Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishida o‘zbek halq ertaklarining o‘rni, ertak terapiyasi orqali alalik bolalar nutqini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar yuzasidan hulosasi.

Tadqiqot bazasi: Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 386-MMTM

Tadqiqot bosqichlari:

1-bosqich. 2018-yilning 4 kvartali, 2019-yilning 1 kvartalini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda tadqiqot ishi mavzusi tanlandi, mavzuga oid adabiyotlar o‘rganilib tahlil qilinadi va ilmiy tadqiqot ishi uchun asosnoma tayyorlanadi.

2-bosqich. Ushbu bosqich 2019-yilning 2-3-4 kvartallarini o‘z ichiga oladi. Ushbu muddatda magistrlik dissertatsiyasi uchun to‘plangan ma’lumotlar tahlil etiladi. Birinchi nazariy qismga asoslangan bob yakunlandi. 2-bob eksperimental bosqich uchun tajriba sinov maydoni aniqlanadi, obyekt kuzatiladi va atroflicha o‘rganiladi va hu asosida takidlovchi eksperiment metodikalari ishlab chiqiladi tajriba sinov o‘tkaziladi

3-bosqich. 2020-yilning 1 kvartalida tajriba sinov natijalari tahlil qayd etiladi va tahlil qilinadi. Ushbu olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan metodiklar ishlab chiqiladi. Magistrlik dissertatsiyasining yakunlovchi qismi ustida ish olib boriladi. Magistrlik dissertatsiyasi Logopediya kafedrasiga muhokamaga qo‘yiladi va ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilib, ilmiy tadqiqot ishi yakunlanadi.

Ishning tuzilish va tarkibi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

I BOB. MUOMMONI O'RGANISHNING ILMIIY NAZARIY ASOSLARI 1.

Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi va motorik rivojlanishining adabiyotlarda yoritilishi

“Alaliya” atamasi (grekcha-yo‘q, lotincha lalio-nutq) tarjimasida nutqning yo‘qligi, nutqsizlik xolati hamda nutq buzilishlariga deya adabiyotlarda izohlanadi. Maxsus adabiyotlarda “alaliya” atamasidan tashqari, shu nutq nuqsonini anglatuvchi bir qator atamalardan foydalanganlar bo‘lib ular quyidagicha: “Tug‘ma afaziya”, “Ontogenetik afaziya”, “Rivojlanish afaziyasi”, “Disfaziya”, “Nutqiy rivojlanishi sustlashuvi”, “Nutqning konstitusional orqada qolishi”, “Tilni egallashdagi kamchiliklar” singari shaklda namoyon bo‘ladi. A.Kusmaul fikricha, “Oldingi asr va bizning asrimizning boshlarigacha yashab, faoliyat ko‘rsatgan shifokorlarning aksariyati nutqning yo‘qligining barcha shakllarini alaliya deb nomlab, afoniyani ham bu atamaning ichiga kiritib kelganlar, lekin vaqt o‘tishi bilan bu atamalar farq qilishi ayon bo‘ldideb aytgan.¹⁰ I.Frank birinchilardan bo‘lib bu ikki atamani farqlarini tushuntirib beradi. Uning fikricha alaliya “karsoqovlik” singari artikulyatsion xarakatlarning umuman imkoniyatsizligi sifatida qaragan hamda alaliyani artikulyatsiyani qiyinlashuvi natijasidan kelib chiquvchi talaffuz kamchiligi bo‘lmish mogilaliya bilan taqqoslagan.¹¹ I.Frank alaliya, hamda mogilaliyani dislaliya darajalaridan biri deb, artikulyator qiyinchiliklar bilan bog‘liq talaffuz kamchiligi sifatida fikr yuritgan.¹² 1830-yili R.Shultess alaliyani “kar soqovlik” alohida nutq nuqsoni sifatida ajratib bergan lekin, I.Frank buni artikulyatsiya buzilishlari bilan bog‘liq deb o‘ylaydi. Artikulyatsion imkoniyatning butunlay yo‘qligi sifatida alaliya dislaliyaga taqqoslandi va keyinchalik haqqoniy ravishda anartriya deb aytiladigan bo‘ldi. A.Kusmaul artikulyatsion kamchiliklarni (dizartriya va dislaliya, shuningdek diksiya buzilishi disfaziya) umumiy nom bilan atash maqsadida “lalopatiya” atamasini kashf etdi. Shunga qaramay A.Kusmaul yuqoridagi mualliflar singari alaliyani artikulyatsiya

¹⁰ Кудрякова Д.А., Моругина В.В., Исторический аспект изучения моторной алалии как речевого нарушения.: студенческий научный вестник. -2018-№ 3-6 <http://www.eduherald.ru/article>.

¹¹ Логопедия /Под ред. Л.С. Волковой. С.Н. Шаховской. - М., 2003-156 с.

¹² Логопедия/ Аюрова М.У . 2007. 310 bet

buzilishlari bilan bog‘liq nutq kamchiliklari qatorida deb biladi va bu atamaning ma‘noli nomi deb anartria literlis (tovushlar artikulyatsiyasining yo‘qligi) atamasini taklif qildi hamda bu orqali u aniq tovushlarni butunlay talaffuz qila olmaslik singari xarakteri hisoblangan buzilish holatlarini alaliyaga kiritgan. Keyinchalik bunday holatni aniqlash uchun “anartriya” terminini qo‘llagan. Yuqorida nomlari keltirilgan artikulyator buzilishlar bilan bir qatorda Kussmaul diksiya buzilishlari deb nomlagan kamchiliklarni ham aniqlagan. Bularga shakllar va sintaktik ifodalarining buzilishini ko‘rsatadi. Bunday buzilishlarni tadqiqotchi disfaziya deya ta‘rif bergan. O‘tgan asring 60-yillariga kelib Trusso nutqni yo‘qotilishini Broka tomonidan kiritilgan “afoniya” atamasini “afaziya” atamasiga almashtirishni aytgan. ”Afaziya” atamasi tibbiyotda o‘ziga xos o‘rin ega bo‘lib ba‘zi chet el mualliflari “alaliya” va “afaziya” atamalarini birlashtirib umumiy atamalar “Bolalar afaziyasi” yoki “Rivojlanish afaziyasi” deb atashni ma‘qul ko‘radilar. Bunda muammolar bolalarda nutqning rivojlanmaganligining o‘ziga xosligini hamda kattalarda nutqni yo‘qolish holaridan farqlab beradi. Foniatr R. Koen (1888) o‘z ilmiy tadqiqoti natijasida “alaliya” terminini artikulyatsion kamchiliklar bilan shartlanmagan soqovlikning tavsifnomasi uchun qo‘llagan. U bu buzilishlari kar-soqovlik o‘ringa eshituvchi-soqovlik yoki idiopatik alaliya (kelib chiqishi noaniq nutqsizlik) deya ta‘rif bergan. Mualliflar tomonidan keyingi ilmiy tadqiqotlarda “alaliya” va “afaziya” atamalari uzoq vaqtgacha noma‘lum chegaralanish kuzatilib kelinib, faqatgina 30- yillarga kelib logopediyada “alaliya” va “afaziya” atamalari farqlari haqida ilmiy izlanishlar ro‘y berdi. 50-60 yillarda Alaliya nutqning rivojlanmay qolishi, afaziya esa nutqning yo‘qolishi deya tasniflash tasdiqlab olindi va hozirgi vaqtda ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan ham e‘tirof etilgan bo‘lib ushbu teriminologiya qanchalik mukammal bo‘lsa ham, dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilindi. Turli mualliflar ishida turlicha mezonlari qo‘llash asosida alaliyada nutq rivojlanishi va nuqson tuzilishi xususiyatlari ajratib tahlil qilingan bo‘lib, fiziologik, klinik, psixologik, lingvistik, psixolingvistik va boshqa xususiyatlarga egadir. Ushbu kasallik turli shakllarda tarqalgan bo‘lib, nutq rivojlanmaganligining turli shakllarida logopedik ta‘sir

metodikasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan. Kasallikning nutq kamchiligini keltirib chiqaruvchi omillardan biri miya organik shikastlanishining prenatal yoki postnatal davrda yuzaga kelishidir. Ushbu davrdan oldingi davrda, miya yarim korteksida hujayralar jadal shakllanib, bolaning nutqidan foydalanish tajribasi juda kam bo‘lib, bu davr bola hayotining dastlabki uch yilida yuz beradi. Nutq funksiyasi uchun eng muhim bo‘lgan miya tizimining rivojlanishi prenatal davrda yuzaga kelmaydi, ammo bu holat bola tug‘ilgandan keyin ham yuzaga keladi. Miya faoliyatining yetarli rivojlanganligi yoki uning erta shikastlanishi asab hujayralarining qo‘zg‘aluvchanligini pasayishiga va asab bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning harakatchanligini o‘zgarishiga olib keladi, bu esa miya yarim korteksi hujayralarining samaradorligini pasayishini vujudga keltiradi.

Alaliyadagi patofizologik mexanizmlarni o‘rganish orqali qo‘zg‘alish muhim asabiy jarayonlarning inervatitsiyasi va miya yarim korteksi hujayralarining funksional buzilishini tushunishimiz mumkin. Olimlar miya yarim korteksida qo‘zg‘atuvchi va inkubatsiya jarayonlarining miya faoliyati konsentratsiyasining yetishmasligidan deya fikr bildirishadi. Ushbu kasallik nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda miya faoliyatini o‘rganish biopotentsiallarning o‘zgarishlarini aniqlash, asosan temporal, parietal, oksipital bo‘limlarda, dominant yarim sharning frontotemporal va temporal sohalarida bu holat nomoyon bo‘ladi. Olimlar (A.L.Lindenbaum 1971; E.M.Mastyukova 1972) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu nutq kamchiligida ikkita yarim sharning miya yarim korteksining yengil, ammo ko‘p sonli shikastlanishi, ya‘ni ikki tomonlama zararlanishlar mavjud bo‘lib, bir tomonlama miya shikastlanishi mavjud bo‘lgan hollarda, nutqni rivojlantirish sog‘lom, normal rivojlanayotgan yarim sharning kompensatsion qobiliyatlari tufayli amalda tatbiiq etiladi.¹³ Agarda miya yarim sharlarida ikki tomonlama jarohatlar bo‘lsa, kompensatsiya qilish imkonsiz sanaladi. Shu bilan birgalikda Alaliya nutqni rivojlanishidagi vaqtinchalik funksional kechikish ham deya qaraladi. Ushbu nutq buzilishda nutqni shakllanishi jarayoni markaziy asab tizimining patologik holati sharoitida vujudga keladi.

¹³ Л.С Волковой, С Н.Шахавской.,- ЛОГОПЕДИЯ 3е изд.,перероб.и доп-М.:ВЛАДОС-2003.365с-10с

Alaliyaning ba'zi ko'rinishlarida ilk davrlarida bolaning normal rivojlanishi kabi ko'rinadi. Lekin rivojlanmagan sharoitda miyaning shartli refleksli faoliyati bolalar nutqining normal shakllanishining dastlabki davrlaridagi faoliyatiga ma'lum darajada to'g'ri keladi. Kasallik va nutqiy bo'lmagan alomatlar paydo bo'ladi, ular o'rtasida murakkab bilvosita munosabatlar vujudga keladi. Kasallik mexanizmini tushuntirish uchun mavjud tushunchalar shartli ravishda sensimotor, psixologik va lingvistikaga ajraladi. Sensimotor tushunchalari tarafdorlari alaliyadagi nutqning rivojlanmaganligini sensomotor funktsiyalarining patologiyasi (eshitish agnosiyasi, apraksiya) bilan bog'lashadi. Psixologik tushunchalarga muvofiq, alaliyada aqliy faoliyatning ba'zi jihatlarining patologiyasi belgilangan. Lingvistik kontsepsiya tarafdorlarining fikricha nutqni idrok etish va nutqini shakllantirish jarayonida lingvistik operatsiyalarning shakllanmaganligi bilan nutqning rivojlanmaganligida uyg'unlik mavjuddir. So'nggi nuqtai nazar yanada oqlangan va murakkab sensorli turga ega va faqat sensimotor darajasigacha pasaytirib bo'lmaydigan ko'p darajali faoliyat sifatida nutq haqidagi zamonaviy ilmiy fikrlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib, alaliya muammosi haqidagi adabiy ma'lumotlar turli xil bo'lib, turli munozaralarga sabab bo'ladi. Nutq murakkab funktsional tizim sifatida dinamik lokalizatsiyaga ega va nutq faoliyatida ishtirok etadigan turli xil miya tuzilmalari bir-biri bilan doimiy ravishda o'zgarib turadigan aloqada bo'ladi. Nutq jarayonining murakkab uyushgan va multimodal tuzilishi faqat vosita darajasi bilan chegaralanmaydi. Ushbu kasallik bilan kasallangan bolalar uchun nafaqat ekspressiv nutqning kechikishi odatiy hol, balki uning rivojlanishining patologik turi ham aniqlangan. M. Sovak (1971) va boshqa olimlar nutqning yo'qligi, uning kechiktirilgan shakllanishi, nutqning nevrologik yo'qligi sifatida mutizm bilan bog'liq bo'lmagan, demansiya va shizofreniyada nutqning buzilishidan, eshitish qobiliyati va oligofreniya holatlaridan farq qiladi deb aniqlik kiritadilar. K.P. Beker va M. Sovak (1981) biologik, ijtimoiy sabablar yoki ularning kombinatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlarni nutqning rivojlanmaganligi bilan belgiladilar.¹⁴ Tadqiqotchilar tomonidan eshitish qobiliyatini yo'qotish motor

¹⁴Беккер К.П.,Совак М. Логопедия-М.,1981.-С.11 глава-23с.

kinestetik buzilishlar yoki nojo'ya ijtimoiy ta'sirlar tufayli ma'lum bir holatda nutq rivojlanishining kechikishida namoyon bo'ladi. Nuqt buzilishi turli xil alomatlar bilan aniqlanadi hamda nutqni rivojlanmasligining og'ir shakllarini tasvirlab beriladi. M. Kritchli ta'kidlashicha, Jahon nevrologik federatsiyasi (Italiya, Varenna, 1966)da nutq rivojlanmagan paytda "afaziya" atamasidan butunlay voz kechish fikri ilgari surilgan. O'sha davrlarda hozirgi mavjud "tug'ma alaliya" va "disfaziya" atamalari keng yoyilmagan edi.

Kasallikni o'rganishda G.Guttsman (1894), A.Liebmann (1900), M.V. Bogdanov-Berezovskiy (1909), E.Frexels (1931), keyinchalik M.E.Xvattsev, N. N. Traugott, V. K. Orfinskaya, R. E. Levina, L.V. Melexova, G.V. Matsievskaya, E.F. Sobotovich, V.A.Kovshikov, S.N.Shaxovskaya, V.K.Vorobyova va boshqa olimlar ko'plab ilmiy ishlar qilganlar ¹⁵. So'nggi davrda kasallikni o'rganishdagi muvaffaqiyatlar tadqiqotchilarning o'z qarashlarida "Nuqson taxliliga har tomonlama sindromal yondoshuv metodologiya"sigga ko'proq tayanganliklari sababli aniqlik kiritilgan. ¹⁶ Bunda tadqiqotning psixolingvistik asoschilari birinchilardan hisoblanib, bu E.F. Sobotovich, V.A. Kovshikov, B.M. Grinshpun va boshqa tadqiqotchilar ishlarida ko'rsatib o'tilgan. Ayni vaqtda alaliyani o'rganishning barcha masalalari hali to'la aniqlanmagan bo'lsada V.K. Orfinskayaning so'zlariga ko'ra, "O'tgan davrlardan farqli ravishda, kasallik tadqiqotchilari orasida umum qabul qilingan qoidalarga qaraganda munozarali masalalar va ziddiyatlar ko'proq bo'lgan umumiy nuqtai nazarlar ko'proq nomoyon bo'lgan. Kasallik o'z mexanizmlari, nutqiy rivojlanmaganlikning yuzaga kelishi va namoyon bo'lishiga ko'ra turlichadir"¹⁷ degan fikrlar bildirib o'tilgan. Uzoq vaqt davomida kasallikni o'rganish davomida uning paydo bo'lish sabablari to'g'risida turli fikrlar bildirilgan. Shunday qilib, R. Koen (1888), A. E. Frechels (1931), M. Zeeman (1962) va boshqalar ushbu nutq nuqsoning asosiy sababi yallig'lanish yoki alimentar, trofik, metabolik, patologik jarayonlar bolaning

¹⁵ Л.С Волковой, С.Н. Шахавской., - ЛОГОПЕДИЯ 3е изд., перероб. и доп.-М.: ВЛВДОС-2003.365с-19с

¹⁶ Волкова Л.С. Селеверстов В.И. «Хрестоматия по Логопедии 1 том»-Учебное пособие.-Москва., ВЛВДОС.:1997-23с

¹⁷ Кудрякова Д.А., Моругина В.В., Исторический аспект изучения моторной алалии как речевого нарушения.: студенческий научный вестник.-2018-№ 3-6 <http://www.eduherald.ru/article>.

rivojlanishining prenatal yoki erta davridagi potologik holatlar deb fikr bildirishgan.¹⁸ A.Treitel (1901) kasallikni yetarlicha diqqat va xotiraning natijasi emas, deb aytib o‘tgan. A. Liebman (1901) alaliya nutq nuqsoni intellektual nuqson bilan bog‘lagan holda ta’riflaydi. A. Iving (1963) bosh miya kasalliklarida nutq buzilishining bolalarda nutq rivojlanishida mator yetishmovchilik holati sabab deb fikr bildirgan.¹⁹ M.Zeeman (1962) ta’kidlashicha, nutq miya yarim markazlarida (bosh miyadagi nutq zonalari) buzilishlar tufayli nutq rivojlanmas ekan. R.Luchsinger (1970), M.Berri (1957), M.B.Eidinova (1961), V.A.Kovshikov (1985) va boshqalar bosh miya shikastlanishlari va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning asfiksiyasi alaliya nutq nuqsonini paydo bo‘lishida asosiy omil deb aytadilar.²⁰ Tug‘ilishdagi mexanik shikastlanishlar va ayrim vaziyatlarda asfiksiya intrauterin patologiyaning natijasidir degan qarashlar ham mavjud. Bu surunkali kislorod yetishmovchiligini keltirib chiqaradi va nafas olish tizimi faoliyatining meyorida bo‘lmasligini vujudga keltiradi. Miya hujayralarining uchinchi qatlami, ular filootogenetik jihatdan yoshroq, kislorod yetishmovchiligi holatida tez zaiflashuvchan deb ta’riflanadi. Miya yarim korteksining uchinchi qatlami insonning yuqori kortikal funksiyalari, birinchi navbatda nutq va psixikaning shakllanishini ta’minlaydigan assotsiativ birikmalarning murakkab tizimini xosil qiladi. Etiologik omillar orasida intrauterin ensefalit, menengit, potologik rivojlanish hollari, homila intoksikatsiyasi, tug‘ma nuqsonlar, miyaning intrauterin yoki erta intravital shikastlanishida bosh miya kasalliklari muhim o‘rin tutadi. Intrauterin patologiya miyaning tarkibiy qismiga tarqaladigan shikastlanishga olib keladi, tug‘ma miya shikastlanishi va asfiksiya bilan tug‘ilgan chaqaloqlarda ko‘proq o‘choqli buzilishlar vujudga keladi. Miya yarim korteksining turli sohalarida shikastlanishlar nutq va nutqiy bo‘lmagan funksional tizimlarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Kasallikni neyroontogenez nuqtai nazaridan tavsiflovchi E. Mastyukova (1981), “Prenatal yoki erta tug‘ruqdan keyingi davrda

¹⁸ Л.С Волковой, С. Н. Шахавской., - ЛОГОПЕДИЯ 3е изд., перероб. и доп.-М.: ВЛАДОС-2003.365с-176с

¹⁹ Хватцев М.Е Логопедия-М., 1959.-С. 5-14 глава

²⁰ Л.С Волковой, С. Н. Шахавской., - ЛОГОПЕДИЯ 3е изд., перероб. и доп.-М.: ВЛАДОС-2003.365с-81с

har qanday zararli omil ta'sirida, miya yarim korteksi hali shakllanish bosqichida bo'lganida, o'choqli nuqson borligini aniqlash murakkab bo'lib, bunday hollarda, bolada miya qon tomirlari sistemasida mavjud qon aylanishining buzilishi kuzatiladi"²¹ deya ta'kidlagan. S.S.Korsakov va N.I.Krasnogorskiyning kuzatishlariga ko'ra kasallik markaziy asab tizimining, birinchi navbatda gipoatrofiyasining pasayishiga olib keladigan somatik kasallikning mahsulidir. Y.A. Florenskaya ta'kidlashicha, bolalik davrida raxit, moddalar almashunivining meyorida bo'lmasligi va uyquning buzilishi va ko'pincha takrorlanadigan nafas tizimi kasalliklari alaliya nutq kamchiligini keltirib chiqarishi mumkin.²² Ayrim mualliflar (R. Luchsinger, A. Saley, 1977 va boshqalar) kasallik etiologiyasida irsiyat, oilaviy moyillik sababli deb bilishgan. Ammo adabiyotlarda alaliyaning kelib chiqishida irsiy omillar to'g'risida ishonchli ilmiy dalillar keltirib o'tilmagan. So'nggi yillarda alaliyaning paydo bo'lishi miya shikastlanishi (minimal miya disfunktsiyasining) muhim ro'l o'ynashi isbotlangan. Ko'pgina hollarda, alalik bolalarda bitta emas, balki birmuncha patologik omillarning butun majmui ajralib turadi deya qaraladi.

Kasallik mavjud bo'lgan bolalarni kuzatish va bir-birdan farqlashga urinishlar natijasida tadqiqotchilar alaliya nutq kamchiligining bir-nechta turlarga ajratdilar. Turli xil mezonlar farqlanishi sababli kasallikning turli tasniflari mavjud. Misol tariqasida A.Liebmann (1925) motor alaliyani quyidagi shakllarga ajratib bergan. Eshitish qobiliyatini yo'qotish, sezgi eshitish qobiliyatini yo'qotish, sensimotor eshitish qobiliyatini yo'qotish. R.E. Levina (1951) esa buzilishning psixologik tasnifini tavsiya etadi va ushbu tasnif bo'yicha alalik bolalarni guruhlarga ajratadi: eshituv idroki buzilishi mavjud bolalar; ko'ruv idrokida buzilishi mavjud bolalar; psixik faolligi buzilishi mavjud bolalar deb tavsiflagan.²³ E.F.Sobotovich (1985) nutq faoliyatining psixolingvistik tuzilishi va mexanizmlarini hisobga olgan holda, buzilishlarni o'rgangan. Tilning paradigmatic yoki sintagmatik tizimlarining assimilyatsiyasining birlamchi buzilishlari bilan

²¹Мастюкова Е.М. Ребенок с отклонениями в развитии-М.,1992 58с

²²Л.С Волковой,С. Н.Шахавской.,- ЛОГОПЕДИЯ 3е изд.,перероб.и доп-М.:ВЛАДОС-2003.365с-177 с

²³.С Волковой,С. Н.Шахавской.,- ЛОГОПЕДИЯ 3е изд.,перероб.и доп-М.:ВЛАДОС-2003.365с-179с

birga kechadigan motor alaliyada nutqni yaratish jarayonida belgilarni birlashtirish va ishlatish qoidalari buzish mavjud deya fikrni ilgari surgan. V.K.Orfinskaya lingvistik tavsifnomani ishlab chiqib, til tizimining buzilishlarining yetakchi ko‘rinishlarini birlamchi va ikkilamchi buzilishlarga ko‘ra kasallikning 10 shaklini farqlab beradi. 4 ta motor shakli, 4 ta sensor etishmovchilik shakllari va 2 ta nutq rivojlanmaganligining asosida harakat ko‘ruv buzilishlari bilan bog‘liq kabi turlarga tasniflaydi.²⁴ V.A.Kovshikov ishlarida alaliyaning impressive sensor, va ekspressiv motor shakllarini bilish mumkin. Ekspressiv alaliya kasalligi deganda nutqiy malakalarni egallash va ularni nutqiy jarayondagi buzilishi bilan namoyon bo‘luvchi nutq kamchiliklari tushuniladi va bu holat nutqiy operatsiyalari saqlangan holda grammatik, leksik va fonematik operatsiyalarni bajarishga sharoit yaratib beradi. E.F.Sobotovich psixolingvistik tushinish va nutqiy faoliyat mexanizmlarini inobatga olib buzilishni taxlil qildi va alaliyani farqlarini ko‘rsatib berdi va tilning paradigmatic yoki sintagmatic tizimidagi ko‘pgina buzilishlar deya baholadi. E.F.Sobotovich fikricha motor alaliyada nutqiy malakalarni o‘zlashtirishda kamchiliklarni ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Nuqson paydo bo‘lishi va rivojlanish dinamikasiga quyidagicha ta’rif beradi. Miya yarim korteksining butun sensimotor hududiga zarar yetkazadi, natijada bola to‘liq kasallikni rivojlantiradi. Keyingi yillarda kompensatsion omillar va miya materiyasining rivojlanishi ta’sirida shikastlanishning asosiy yo‘nalishi korteksning sezgi yoki motor mintaqasiga joylashadi. Shu bois, kasallikni bolaning rivojlanishining dastlabki bosqichlarida hissiy va motorli shakllarga bo‘lish biroz mustaqil amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash joizki, biz faqat kelajakda kasallikning yetakchi tarkibiy qismini bilib olshimiz mumkin. Yaqinda o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlarda ushbu bo‘linish ekspressiv va retseptiv alaliya nuqtai nazaridan amalga oshirildi (xuddi afazi bo‘linishi bilan o‘xshashlik bo‘yicha). Ushbu atamalar qonunni buzish uchun fiziologik emas, balki psixologik yondoshishni ta’kidlaydi. Motor alaliya semantik va sensimotor operatsiyalarga nisbatan farqlanadi. Shu bilan birgalikda nutqning paydo bo‘lish jarayoni lingvistik

²⁴Л.С Волковой,С. Н.Шахавской.,- логопедия 3е изд.,перероб.и доп.-М.:ВЛАДОС-2003.365с-175 с

operatsiyalar shakllanmaganligi sababli markaziy organik ekspressiv nutqning tizimli rivojlanmaganligida nomoyon bo‘ladi. Ushbu kontsepsiya tarafdorlari (R.Koen, G.Guttsman, R.A.Belova-Devid, N.N.Traugott, F.K.Orfinskaya va boshqalar) motor yetishmovchiligini tasniflaydilar.²⁵ Ko‘p mualliflar kasallikni kinetik yoki kinestetik apraksiya bilan bog‘lashadi va shu asosida eferent va afferent shakllarni ajratib ko‘rsatishadi. Afferent buzilish bilan, nutqning buzilishi mexanizmi kinestetik apraksiya, kinetik apraksiya afaziyaga o‘xshash holatlarni ham vujudga keltiradi. Apraksiya turli xil artikulyar buzilishlarni ovoz buzilishlari, talaffuz buzish, so‘zlarni tushinishda kamchiliklar hosil bo‘ladi. Alaliyada kuzatiladigan lingvistik buzilishlarni motor yetishmovchiligi bilan izohlab bo‘lmaydi, bundan tashqari, Alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda ikkilamchi nutq kamchiliklari ham aks etadi. Maktabgacha yoshidagi bolaning o‘z dunyosi, o‘yinchoqlari ular bilan o‘yin faoliyatiga kirishish, atrofidagi katta odamlar bilan muloqatga bo‘lgan qiziqishi shakllantirishiga sabab bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin faoliyati bo‘lib, uning asosini turli harakatlarda namoyon bo‘ladi. Rus olimi Ilyina M.N. fikicha “Mayda motorik harakatlar deb kichik mushaklar ishtirok etadigan qo‘llar va barmoqlarning muvofiqlashtirilgan harakatlar to‘plamiga aytiladi. Ushbu harakatlar shartsiz reflekslar orqali emas baki alohida rivojlanish darajasini talab etadi.”²⁶ M.N.Koltsovoy, V.Fomina, O.S.Bot, L.A.Novikova tadqiqot natijalariga ko‘ra nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar harakat motorli ko‘nikmalarni rivojlantirish qancha erta boshlangan bo‘lsa, nutq tez su‘ratda rivojlanib borishini aniqlashgan. I.A.Vartanyan, L.A.Popova, E.M.Tsiryulnikov, L.N.Savinkovalarning fikrlariga ko‘ra esa barmoqlardagi teri taktil orqali sezish bu o‘zaro artikulation apparat sezgirligi bilan bog‘liq deya ta’riflaydilar.²⁷

O‘tgan asrning o‘rtalarida bolalar nutqining rivojlanish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mayda qo‘l motorikasi shakllanishi bilan bog‘liq deya ta’riflangan. Mayda

²⁵ Волкова Л.С.Селеверстов В.И.«Хрестоматия по Логопедии 1 том»-Учебное пособие.-Москва., ВЛАДОС.: 1997-23с

²⁶Иlyina M.N. Maktabga tayyorgarlik: rivojlanish testlari va mashqlari / M.N. Ilyina. - Sankt-Peterburg: Peter, 2008 .-- 208 p.

²⁷Вартаян И.Аю: «Физиология сенсорных систем»- Учебное пособие.-Москва.,1999-224с

qo‘l motorikasi harakati markaziy asab tizimining rivojlanishini rag‘batlantiradi va bolaning nutqini tezlashtiradi. Agar barmoq harakatlarining rivojlanishi orqada bo‘lsa, u holda nutq rivojlanishi ham kechikadi, garchi umumiy harakatchanlik odatdagidan yuqori bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi alalik bolalar bilan ishlashda eng muhim yo‘nalish bu mayda qo‘l motorikasi ko‘nikmalarini rivojlantirish va barmoqlar va umumiy harakatlarini muvofiqlashtirish deb aytishimiz mumkin. Shu jumladan maktabgacha yoshdagi alaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda ham 3-7 yoshgacha bo‘lgan rivojlanish davri bir qator kamchiliklar bilan birga yuz beradi. Bu bolalarda turli darajada namoyon bo‘luvchi nevrologik psixologik, motor belgilarning o‘ziga hosligi bilan kuzatiladi. Ushbu holat bosh miya disfunktsiyasining murakkab bo‘lmagan ko‘rinishi va markaziy asab tizimining birlamchi buzilish belgilaridan boshlab, to qo‘pol asab tizimi buzilishlarigacha, bolalarda umumiy motor qo‘pollik, qovishimsizlik, harakatlar diskoordinatsiyasi, harakatlar sekinlashuvi yoki tormozlanganlik yuz beradi. Motor faollikning pasayganligi, ritmiklik holatning yetishmasligi, dinamik va statik muvozanatning buzilishi bolalarda yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Umumiy harakatlarning buzilganligi maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatlarni aniq nazorat qilishni, turli mushak guruhlarining aniq ishlashini va harakatlarning koordinatsiyasi to‘g‘ri tashkil etilishini talab qiladigan murakkab harakatlarni amalga oshirayotganda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Kasallik mavjud bo‘lgan bolalar ba’zi bir murakkab motor harakatlarni jumladan, bir oyoqda sakrash va turish, oyoq uchida tovonda yurish, koptokni mo‘ljalga otib ilish, arg‘imchoqda balandlikga uchish, yugurish, to‘g‘ri qadam bosish, predmetlarini ushlab ko‘rish kabi harakatlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Kasallikka ega bo‘lgan bolalar ayniqsa qo‘l barmoqlorining mayda motorik harakatida qiyinalishadi. Ayrim bolalar qo‘zg‘aluvchan impulsiv, faoliyatda tartibsiz, juda faol, boshqalar esa aksincha, erinchoq, bo‘shashgan, tormozlangan, inert bo‘lishlari mumkin. Bolalarda oliy psixik funksiyalarida hissiy irodaviy doirada, bilish jarayonlarida yetishmovchiliklar namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi kasallikka ega bo‘lgan bolalarning motor jarayonlarini o‘rganish maqsadida rus olimlari

L.V.Fominoy, M.M.Kolsovoy bir qator kuzatuv tadqiqot ishlari mavjud. Ushbu tadqiqot natijalari shuni bilish mumkinki, bu bolalarning nafaqat nutqida balki motor harakat holatida ham sistemali buzilish mavjudligi, ayniqsa harakatlanishdagi muvozanatsizliklarni isbotlangan. Olimlarning fikricha nafaqat bolalarda motorik harakatlarning rivojlanishi, balki bosh miya bilish jarayonlari ham rivojlanmaganligini payqash mumkin. Bosh miyamizda mayda qo‘l harakatlari va nutq markazi bir-biriga yaqin joylashganligi sababli, alaliya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar nutqining orqada qolishi ularning mayda qo‘l motorikasi meyorida rivojlanmasligiga sabab bo‘lishini bilishimiz mumkin. Kasallik mavjud bo‘lgan bolalarda nutqning buzilishi uzoq va muntazam ravishda logopedik korreksion ishlash lozim. Ulardagi mayda qo‘l motorikasidagi kamchiliklar tufayli barmoqlarning motor ko‘nikmasi sust rivojlanishi aks etadi. Nutqida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash usullarini ishlab chiqadigan defektologlar bolalarda nutq nuqsoni bilan birga qo‘shilib keluvchi, ikkilamchi nuqsonlar orasida mayda qo‘l motorikasining meyorida rivojlanmaganligi bolaning nutqiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi deb ta’kidlaydilar. Rossiyalik mutaxassis Tonkova.Yu.M fikricha, “Motorik ko‘nikmalarni rivojlantirish va shu bilan bosh miyaning harakat zonasini faollashtirish orqali bosh miyaning nutq markazi qo‘shni zonalar ham faollashib borishi mumkin”.²⁸ Shu sababli, maktabgacha yoshda va ayniqsa nutqida nuqsoniga ega bo‘lgan alalik bolalarda, ular uchun mayda qo‘l motorikasiga doir amaliy tajriba yig‘ish, qo‘l haraktlar ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish juda katta o‘ringa egadir. Kasallikka ega bolalarda motoriksianing yaxshi rivojlanmaganligi o‘yin faoliyatida, oilaviy muhitda ba’zi holatlarda bolaning yurishida ham gavdasini to‘g‘ri tuta olmasligida yaqqol ko‘rish mumkin. Predmetli o‘yin faoliyatida bu bolalar mazkur o‘yinga bo‘lgan qiziqish sustligi, e’tiborsizlik, sterotiplik ya’ni faqat bir turdagi o‘yinni o‘ynash bilan chegaralanishadi. Harakatli o‘yinlarimizda esa bolalarda harakatlar koordinatsiysi buzulganligi sababli

²⁸Yu.M. Tonkova.: Pedagogik mukammallik: Xalqaro materiallar. ilmiy conf - M.: Buki-Vedi, 2012 .-- S. 137-139.

chaqqonlik, epchilik bilan harakatlanishmaydi. Bola o'yinga beparvolik bilan munosabatda bildiradi. Masalan, bolaga guruh bo'lib o'ynaladigan estofedada yugirish kerak bo'lsa bola marraga birinchi yetib borishga qiziqish bildirmaydi. Harakatlanishi maqsadsiz yo'nalgan bo'lib, bunga bolalardagi nutqni yo'qligi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur nuqsonga ega bo'lgan bolalarda mayda qo'l motorikasida kamchiliklar ular bilan rasm chizishda, plastilin bilan ishlashda shu kabi mashg'ulotlarda yaqqol aks etadi. Bolalar rasm chizishda rasmlarning beo'xshovligi, fazoviy mo'ljalni to'g'ri ola olmasligi, rasmlarni bo'yash jarayonida esa, rasm ko'nturidan chiqib bo'yash mo'ljal ola olmasligi, o'zi bajarayotgan faoliyat natijasiga qiziqmasligi, mayda mushaklarning harakati bir-biriga mutanosib emasligi sababli bolalar o'zlari hohlagan natijani kutmaydilar. Bolalarda ko'rish qobilyati meyoridaligi sababli bolalar materialni ko'rsatib berilgan harakatni oson eslab qoladilar, nutq, ko'ruv xotirasi bir muncha rivojlangan bo'ladi, ammo ko'rgan haraktlarini har doim ham to'liq va to'g'ri bajara olmaydilar. Kasallik umumiy tana harakatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi harakatlari koordinatsiyasining bir-birga muvofiq emasligi, haddan tashqari sekinlik yoki aksincha tezlik holatlari aks etadi. Bu esa doimiy harakatlar eng oddiy hayotiy ko'nikmalarni va o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradigan sabablidir. Kasallik mavjud bolalardagi umumiy harakatlar koordinatsiyasi fazoviy mo'ljal olish buzilganligi sababli, bolalar o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan anjomlardan ham qanday foydalanishni idrok eta olmaydilar. Ko'plab alalik bolalar mustaqil ravishda kiyinish va yechinish va narsalarni to'g'ri birlashtirishni uddalay olmaydilar. Tugmachalarni qadash, tugmachalarni yechish, shuningdek poyafzallarni bog'lash ular uchun murakkab vazifa sanaladi. Ushbu ko'nikmalar odatda ta'lim muassasalarida bolalarga ma'lum bir muddat davomida qayta takrorlanishlar natijasida o'rgatiladi. Maktabgacha yoshdagi kasallik mavjud bolalarning harakatlaridagi nomutanosib yurish, yugurish, sakrash, amaliy mashg'ulotlarning barcha turlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ular qadam bosishganda umumiy koordinatsiya buzilganligi tufayli beixtiyor oyoqlarini chalkashtirib yurishadi.

Arqondan sakrash kabi o'yinlarni o'rganishda qiynalishadi. Ulardagi umumiy koordinatsiyaning yo'qligi tufayli bolalar qo'lidagi narsalarni beixtiyor ravishda qo'llaridan tushib ketadi. Ushbu holat bolalarda motorli ko'nikmalarning yomon rivojlanishi boshqa faoliyat turlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, ular rasm chizishganda yoki bo'yashganda rasm konturini to'g'ri mo'ljal ola olmasdan va chiziqlarni tog'ri chizolmaydilar. Mazkur holatda alalik bolalarga albatta amaliy yordam berish, ko'rsatilayotgan harakatni bola bilan birga nazorat ostida bajarish kerak. Bola bajarilgan harakatni tushunishi va uni so'zlar orqali ta'riflashda so'zlardan o'rinli foydalanishdagi qiyinchiliklar, so'zni unutish bilan va so'z yasashdagi qiyinchiligi bilan birga bolaning ixtiyoriy bayon qilish kabi imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi. Shunday qilib, motor harakat malakalarining yetishmasligi ma'lum darajada alalik bolalar uchun nutqning talaffuz tomonini buzish bilan izohlanadi. Motorikaning buzilishi ularning nutq faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi kasallik mavjud bo'lgan bolalar bilan logopedik korreksion ishlarida umumiy motorik malakalarini va mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Shu bilan birga, alalik bolalarning mayda qo'l motorikasi ko'nikmalarini rivojlantirish ilk yosh davrlaridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Barmoqlar bilan turli xil mashqlarni bajarib, bola qo'llarning motorli ko'nikmalarini yaxshi rivojlantiradi, bu esa nutqning rivojlanishida sezilarli natija beradi.

2. Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutq rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlari

Alaliya nutq kamchiligiga ega bolada nutqiy mexanizmlar tovushlar, talaffuzi va artikulyatsion apparat orqali inervatsiya qilish tizimida xatoliklar yuzaga chiqadi. Aniqlanishicha, so'z bo'g'in gaplarni shakllantirish, shuningdek, tovushlarni idrok etish tanlash bilan bir vaqtda, bo'g'inlararo bog'lanishlar (ya'ni, artikulyatsion apparatning bir holatdan ikkinchi holatga ko'chishi) va chuqur sintaktik va chuqur-semantik darajani, ya'ni ichki nutq darajasini buzadiganligi bilan nomoyon bo'ladi. Kasallikda neyrofizyologik bosh miya buzilishlarini

nutqning sust rivojlanishi bilan aloqasi o'rganiladi. Motor alaliya deb murakkab nutq nuqsonlaridan biri bo'lib, nutq va nutqiy bo'lmagan alomatlar majmui, ularning o'zaro aloqasi aniqlanmaydi. Motor alaliyasida nutq kamchiligida talaffuz buzulishlari yetakchi o'rinni egallaydi. Motor alaliyaning nutq belgilarida nutqning sust rivojlanishi nomoyon bo'lib, barcha tarkibiy qismlarini ya'ni fonetik, fonemik va leksik-grammatik tomonlarni qamrab oladi. Mazkur belgilarga ko'ra, fonetik-fonemik nutq kamchiligi mavjud bolalar guruhini va ularning yetakchi leksik-grammatik jihatdan rivojlanmagan guruhini ajratib olinadi. Guruhlarning birinchisi dominant yarim sharning korteksining markaziy nutq harakat markazida pastki qismlarning shikastlanishidan kelib chiqadi deya ta'kidlanadi. Ikkinchi guruh miya yarim korteksining motor qismining oldingi qismlarini shikastlanishidir deya taxmin qilinadi. Alalik bolalarda talaffuz jarayoning rivojlanishi sifatli va miqdoriy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu barcha bolalarda nutq rivojlanishining har bir bosqichida bir darajada yoki turli ko'rinishlarida aks etadi. Psixologik-pedagogik tadqiqot ishlariga qaraganda (R. E. Levina, V. K. Orfinskaya, A. K. Markova, E. G. Koritskaya, V. A. Minashina, E. F. Sobotovich, O. N. Usanova va boshqalar) fonetik kamchiliklari ega bo'lgan bolalarning leksik va grammatik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud deya fikr yuritiladi.²⁹ Fonetik tomonning rivojlanishi ko'p jihatdan miya lug'atining rivojlanishiga bog'liq. Ayrim hollarda tovushlar talaffuzi lug'at rivojlanishi ta'sirida o'z-o'zidan vujudga keladi lekin, ularning so'z tarkibida qo'llanilishi katta qiyinchiliklarga olib keladi deb aytish mumkin. Buni kasallik mavjud bo'lgan bolalar tomonidan ajratilgan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga qaramay, so'zlar orasida tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar vujudga kelishini ko'rishimiz mumkin. Ayrim holatlarda lug'at boyligining ortib borishi bola nutqida yo'q tovushlarni talaffuz qilishga ham olib keladi va tovushlar artikulyatsion holati shaklanib boradi. Nutqdagi umumiy bog'lanishlarda qiyinchilik kuzatilishi mumkin. A.R.Luriyaning so'zlariga ko'ra, artikulyatsion holat ko'chishidagi qiyinchiliklar bu tovushlar talaffuzining buzilishiga, o'zgarishiga, so'zlarning tuzilishini soddalashtirishga olib keladi. Turli

²⁹Р.Е Левина.,Основы теории и практики логопедии.:под ред -М 1968-34с

hil tadqiqotchilar alaliyaning turli darajalarini aniqlashgan va o'z g'oyalarini ilgari surishgan. R. E. Levina nutqning rivojlanishining uch darajasini aniqlaydi.³⁰ Uning aniqlashicha, umumiy nutqning yo'qligi, umumiy nutqning ilk ko'rinishlari va nutq sistemasining qo'pol buzilishi bilan harakterli bo'lishi mumkin. N. N. Traugott, L. V. Melexovalar esa nutqni shakllanishning 4 davrini (bosqichlarini) ta'kidlab o'tishgan. Kasallik mavjud bo'lgan bolalarni O. V. Pravdina ham 4 bosqichga bo'lib ta'riflaydi. Uning fikricha ko'rsatilgan darajalar bolaning yoshiga va aqliy rivojlanishiga bevosita bog'liq emas bo'lib, alaliya nutq kamchiligi bir muncha murakkab jarayondir. Bolaning ilk yosh davridan boshlab maktabgacha bo'lgan davrga yoki undan so'ng ham davom etishi mumkin deya ta'kidlanadi. Umuman olganda, hozirgi kunda tadqiqotchilar nutq buzilishlari va ularni keltirib chiqaradigan bir qator nutqiy vositalar va kasalliklarini ko'rsatadilar. Alaliya nutq kamchiligi mavjud bo'lgan bolada nutq apparatlarining motorli koordinatsiyasi o'smay qoladi. Nutq harakatli analizatorining analitik va sintetik faolligini buzilishi holati ko'chish apraksiya, ketma-ketlikni buzilishi, almashtirish artikulatsiyalarini almashtirish holati bilan uzviy bog'liq deya tushunish mumkin. Artikulyatsion ko'chishdagi ma'lum bir tovush artikulyatsiyasini qidirish, ma'lum bir artikulyatsion harakat yoki harakatni bajarishning yo'qligi, ketma-ketlik va o'tish holatining o'zlashtirishdagi mavjud qiyinchiliklarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu holatlarda yetakchi vosita nutqning artikulyar buzilishi deya ta'kidlanadi. Shu bilan birgalikda, kinetik yoki kinestetik apraksiya tufayli fonetik va fonemik tizimda orqada qolish holatlari ham namoyon bo'ladi. Aksariyat holatlarda alalik bolalar, tovushlarni to'liq idrok eta olmasligi sababli ibora va gaplarninig ma'lum bir qismini tushunadilar va ularni semantik ya'ni to'liq ma'nosini to'la tushuna olmaslilari bizga ma'lumdir. Fonematik idrokning rivojlanmanganligi bu ikkilamichi nuqson bo'lib asosan bog'langan nutqning yo'qligi holatida vujudga keladi. Faol so'z boyligi juda kam bo'lgan bolalarda yetarlicha passiv lug'atlar mavjud bo'lib, ular bir qarashda, nutqni tushunayotgandek ko'rinishi mumkin, ammo bog'langan nutqning murakkab ko'rinishlarini tushunishda ba'zi

³⁰Р.Е Левина.,Основы теории и практики логопедии.:под ред -М 1968-36с

qiyinchiliklarga duch keladilar. Alalik bolalar grammatik shakllarni deyarli to'liq tushunmaslikdan tashqar leksik-grammatik strukturani tushunishda ham qiyinchiliklarga duch keladilar. Fonemik buzulishning yaqqol nomoyon bo'lishi tovushlarni idrok etish va takrorlashdagi buzilishlar, bolalarda so'zlar tarkibidagi tovushlar va ularning ketma-ket kelishi so'zlar va iboralar shakllanishini tuzishdagi, grammatik vositalardan foydalanishda yetarlicha kamchiliklar namoyon bo'ladi. Alalik bolalarda so'zlar va jummalarni tushunishdagi fonemik buzilish, nutq-ovoz bo'g'inlarini talaffuz qilish va ma'no jihatidan to'g'ri gapirishga ta'siri etishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu holat asosan so'zlarni ritmik tartibini buzilishi nutqning sekinlashuvida, bo'g'in va so'zlar o'rtasida to'xtashlar qilganda, so'zda tovushlar o'rnini tog'ri aniqlab, to'g'ri talaffuz etaolmagan hollarda vujudga keladi. So'z va iboralar ritmik tuzilishining shakllanmaganligi ohanglar, templar va nutq ritmining buzilishi bilan birga aks etadi. Bosh miyaning nutq markazi joylashgan yarim korteksidagi meyoriy holat va artikulyatsion harakatlarga bog'liq kinestetik impulslar tovushlarni tahlil qilish va sintez qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'zlarning tovush tarkibini aniqlashtirishga va ovoz dipozonini meyoriy darajada saqlashga ko'maklashadi. So'zda tovushlarning to'g'ri ketma-ketligini, jumladagi so'zlarni topa olishdagi, bir so'zdan ikkinchisiga o'tishdagi va asosiy asabiy jarayonlarning harakatchanligini, qo'zg'alish yoki turg'unlik o'choqlarining buzilishini vujudga keltiradi. Miya yarim korteksining rivojlanish darajasi meyorida bo'lmasa, nutq funksiyasi shunchalik chuqurroq va qo'polroq buzilgan bo'lishi mumkin. Motor alalik bolalarda mavjud lug'at asta-sekin rivojlanishi mumkin. Leksik va semantik ma'nodorlikning yetishmasligi tufayli so'zlar tarkibida tovushlar tartibi o'zgarishga duch keladi. Ko'pincha tovushlarni almashtirish predmetlarning bir birga tashqi jihatdatdan o'xshashligi yoki tovushlar talaffuzining artikulyatsion jihatdan o'xshashligi bilan aniqlanadi. V.K.Vorobyeva (1985) tomonidan belgilanganidek, ma'no va almashtirishning tarqalishi ko'pincha otlarga qaraganda fe'llarni ishlatilganda ko'proq vujudga keladi. Bolalar sinonimlarni, antonimlarni, umumlashtiruvchi so'zlarni qanday ishlatishni tushunishmaydi. Ularning sifatlar va atamalar bilan ta'minlanishi tor va

monoton bo'lishi mumkin. Nutqni rivojlantirishning barcha bosqichlarda lug'atni yangilashdagi qiyinchiliklar, bolalarning so'z birikmalaridan tanlab olishlari va berilgan iboralar uchun eng mos va aniq bo'lgan so'zlardan to'g'ri foydalanmasliklaridadir deb bilish mumkin. Alalik bolalarning so'z boyligi kundalik uy-ro'zg'or mavzulari bilan cheklangan bo'lib, u sifat jihatidan past bo'ladi. Bola so'zlarning ma'nosini tushuntira olmaydi, so'zlarni shakllantirish vositalaridan foydalanishni anglolmaydi. Ularda ilk yosh davrlaridan maktabgacha yoshgacha nutqiy buzilishlar yaqqol nomoyon bo'ladi.

Nutqning grammatik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari haqida N.N.Traugott, R.E.Levina, B.M.Grinshpun, S.N.Shaxovskaya, E.F.Sobotovich, V.A.Kovshikova va boshqa tadqiqotchilar asarlarida o'z fiklarini bildirib o'tganlar.³¹ Kasallik mavjud bolalarda grammatik strukturani tog'ridan to'g'ri bir qator kamchiliklarni ko'rish mumkin bo'ladi. Ular grammatik strukturadan o'zak va qo'shimchalardan ishlata olmaydilar. Bolalar so'zlar va gaplarni tuzish hamda ularni tahlil qilish, umumlashtirish lingvistik belgini tushunish va to'g'ri ishlatish muayyan morfema, so'zni muayyan mavzu yoki hodisa bilan bog'lash uchun foydalana olmaydilar. Ular ot va fe'llarning sonli shakllarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Alalik bolalarda nafaqat nutq faoliyati, balki bilish jarayonlarining shakllanishi orqada qolishi mumkin. Motor alaliyada turli xil nevrologik alomatlarni ko'rish mumkin. Miya disfunktsiyasining yo'qolganligidan tortib markaziy asab tizimiga zarar yetkazish belgilaridan jiddiy nevrologik kasalliklarga (parez), ayniqsa piramidal va ekstrapiramidal tizimlargacha nuqsonlar mavjudligi ko'rish mumkin. N.N.Traugottning so'zlariga ko'ra, og'iz bo'shlig'i apraksiyasi alaliyali bolalarning 10 foizini tashkil etadi. Bolalarda harakatlanishning pasayishi, ritmning yetishmasligi, dinamik va statik muvozanatning buzilishi (ular oyoqqa tura olmaydilar, oyoq barmoqlari va poshnalari bilan yura olmaydilar, to'pni tashlaydilar va tutib oladilar, logda yuradilar va hokazo) ayniqsa, mayda qo'l matorikasi barmoqlar harakatlari buzilishlarida ham ko'rish mumkin. Motor alalik bolalarda chap qo'l va

³¹Л.С Волковой,С. Н.Шахавской., ЛОГОПЕДИЯ -3е изд.,перероб.и доп-М.:ВЛАДОС-2003.365с

ambidextriya ustunligi haqida asosli dalillarni ko'rishimiz mumkin. Ba'zi bolalar harakatsiz, impulsiv, tartibsiz, giperaktiv boshqalar esa aksincha, letargikinert bo'lishi kuzatiladi. Alalik bolalarda xotiraning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Uning hajmining torayishi, paydo bo'lgan izlarning tezda yo'qolishi, og'zaki ogohlantirishlarning cheklangan ushlab turilishi va boshqa hollarni ko'rishimiz mumkin. Vizual mustahkamlash yordamida bolalar materialni osonroq yodlaydilar va o'z-o'zidan ularda xotira shakllanib boradi. So'zlarni unutish bilan bir qatorda so'zlarni tanlashdagi qiyinchiliklar va ularni tuzilishidagi qiyinchiliklar bilan ifoda etish bolaning nutqiy imkoniyatlarini chegaralab boradi. Hikoya chizig'ini eslash jarayonida faol yo'nalishning pasayishi, voqealar ketma-ketligi, kuzatuvning yetarli yemasligi sababli bolalar rasmga qarashadi lekin ko'rishmaydi, muhim tafsilotlarni qabul qila olmaydilar. Ayrim vaziyatda ular patologik shaxsiyat xususiyatlarini, nevroitik xarakter xususiyatlarini o'stirib boradilar. Bolalarda nutq yetishmovchiligiga reaksiya sifatida izolyatsiya, beparvolik, o'z-o'zidan shubhalanish, stress holatlari, ortib borayotgan asabiylashish, xafagarchilik, ko'z yoshlariga moyillik va boshqalar aks etadi. Ba'zida bolalar nutqdan faqat hissiy vaziyatlarda foydalanadilar xolos. Xatolar va masxara qilinishdan qo'rqish ularni nutqdagi qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi, nutq bilan aloqa qilishni rad etadi va imo-ishoralardan foydalanilinishiga yordam beradi. Alalik bolaning shaxsiyati o'ziga xos xususiyatlari markaziy asab tizimining rivojlanmaganligi bilan bog'liq va nutq buzilishining natijasi bo'lib, uni bolalar jamoasidan ajratib turadi hamda yoshiga qarab uning ruhiyatiga ko'proq salbiy ta'sir etadi. Gnoziz, praksiya, fazoviy vaqtni shakllanishidagi qiyinchiliklar nutq vositachiligi sifatida tasniflanadi. Bolalarning kognitiv fan-amaliy faoliyati jarayonida o'ziga xos xususiyatlar mazmuni, faoliyat usullarini umumlashtirish darajasi va amalga oshirish darajasi bilan belginadi.³² Kasallik mavjud bolalar intellektual masalalari tadqiqotchilar tomonidan noaniq ravishda fikr yuritilgan. M.V.Bogdanov-Berezovskiy (1909), R.A.Belova-David (1972) va boshqalar alalik bolalardagi nutq nuqsoni ularning fikrlash jarayoniga ham ta'sir o'tkazadi deb

³²Правдина О.В.Логопедия.-М.,1973-101с

hisoblashadi. Bu esa til qobiliyatining past darajada rivojlanishiga olib kelishini aks ettiradi. M.V.Bogdanov-Berezovskiyning fikricha, alalik bolalar miyaning ayrim qismlarining buzilishi bilan bog‘liqligi natijasida barcha nutq funktsiyalarida buzulishi mavjudligini, balki aql-idrokining umumiy sohalarida ham orqada qolishlarda o‘z aksini topishini ta’kidladi.³³ Kasallik mavjud bolalarda nutqning mantiqiy operatsiyalari qashshoqligi, umumlashtirish va abstraktsiya qilish qobiliyatining pasayishi, og‘zaki va dinamik praksisning buzilishi, akustik gnoziz buzulishlari nutq ishtirokini talab qiladigan bilish jarayonlari faoliyati yetishmovchiligi kuzatiladi. Umumlashtirish darajasining pasayishi o‘yin harakatlarida, rol o‘ynaydigan xatti-harakatlarning shakllanmaganligida va bolalarning birgalikdagi ayniqsa syujetli rol o‘yin ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Bolalarda fazoviy vaqtni shakllantirishda qiyinchiliklar obyektlarning vaqtincha va fazoviy tasavvur idrok etish va og‘zaki belgilash, xotira idrok qilish, aqliy operatsiyalar (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish) buziladi, mantiqiy mavhum fikrlashning yetarlicha darajasi shakllanmagan. Bir qator tadqiqotchilar (N.M. Umanskaya, L.R. Davidovich) alalik bolalar aqliy rivojlanishining birlamchi holati to‘g‘risida gapirib yetarli ijtimoiy va mehnatga moslashish imkoniyatini mavjud ekanligini ta’kidlashdi. Alalik bolalarda psixofizik jarayonning sustligi, motivatsion va hisiy-ixtiyoriy sohaning zaiflashuvi o‘ziga xos xatti-harakatlar va boshqa bir qator xususiyatlar bilan bog‘liq. Aksariyat hollarda alalik bolalarda oliy nerv faoliyatining o‘ziga xosligi intellektual buzilishlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Nutq jarayonlari va hodisalari doimo aqliy faoliyatining tizimli tuzilishi haqidagi fikrlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, kognitiv, ixtiyoriy va motivatsion jarayonlar bir-biri bilan uzviy aloqa qiladi. Bolaning intellektual rivojlanishi ma’lum darajada nutqning holati bilan cheklangan bo‘ladi. Ammo nutq buzilishi, xususan alalik bolalarda aqli zaiflik deb tushunilmaydi. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi yoki yo‘qligi bolaning aqliy rivojlanishidagi bir qator yetishmovchiliklarni keltirib chiqaradi va bu aqliy jarayonlarning rivojlanishiga o‘ziga xos turtki bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ammo

³³ Л.С Волковой, С. Н. Шахавской., ЛОГОПЕДИЯ-3е изд., перероб. и доп.-М.: ВЛАДОС-2003. 365с-176с

alalik bolalarda nutq atrofdagi voqelikni anglash holati yetakchi vositasi bo'lmagan, ba'zi hollarda bolalar intellekti hech qanday og'ishishsiz meyorida shakllanib boradi. Nutqning sust rivojlanishi esa, kognitiv faoliyatning to'liq rivojlanishiga qarshilik qiladi. Mavjud kasallik va aqli zaif bolalarni differentsial tashxislash juda qiyin, ayniqsa erta yoshda bolani bir marta tekshirish orqali bu ikki tashxisni ajratish imkonsizdir. Amaliy kuzatuvlar natijasida alalik bolalarda ko'proq ma'lumot, g'oyalar, tushunish kabi imo-ishoralari, yuz ifodalari, nutq bo'lmagan vaziyatlar, ko'rsatmalar, atrof-muhitga yo'naltirish ko'nikmalarini ochib beradi. Ushbu jarayonda bolalar vaziyatdagi o'zgarishlarni tushunishi, atrofdagilar nutqiga taqlid qilishi holatlari uchraydi. N.I.Jininning oligofreniya va alaliya birlashmasida asrlar davomida fikrlash va nutq o'rtasidagi munosabatlar muammosi yotadi hamda sezilarli somatik nuqsonlari bo'lsa ham, aqliy rivojlanish uchun nutq ham alohida ahamiyat kasb etadi deya ta'kidlaydi.³⁴ Alalik bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida korreksion ish tizimini to'g'ri olib borilsa ma'lum bir ijobiy dinamikaga erishish mumkin. Ulardagi nutqiy faoliyatning darajasiga ko'ra bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi orqali nutq shakllanadi. Bolalar logopedik korreksion ish tizimida ma'lum nutq malakalarini va ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Bu juda sekin sur'atlar bilan yuz beradi hamda rivojlanish jarayonida bolalarda kamchiliklar mavjud bo'lib, ular deyarli o'z-o'zidan kompensatsiya qilinmaydi va buni tuzatish bilan bartaraf murakkablashadi. Aksariyat kasallik mavjud bolalarda alaliyaning barcha shakllariga xos bo'lgan umumiy nuqsonlar mavjud bo'lib, bularga so'zlarning ma'nolari tizimining shakllanmaganligi, grammatik tuzilish nuqsonlari, semantik nuqsonlarni misol qilib aytish mumkin. Motor alalik bolalarga hos bo'lgan nuqsonlar bilan bir qatorda uning o'ziga xos turli darajalariga bo'lgan belgilar ham aks etadi. Aynan shu kamchiliklar nutq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida har doim ham aniqlab bo'lmaydigan buzilishlarning markazida turadi. Birinchi so'zlar kechroq paydo bo'ladi, ko'p hollarda bog'langan nutq faqat 5-6 yildan keyin shakllanishiga guvoh bo'lamiz. Bolalar bog'langan nutqda gaplarni birlashtira olmaydilar va

³⁴Жинкин Н.И. Речь как проводник информации.-М.,1982-58с

ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularda mazmunga qarab gap tuzish uquvi shakllanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Ularning nutqi tushunarsiz, ma'nodorlik jihatidan vaqt va sabab-oqibat aloqalari yetishmaydi. Ushbu bolalar muloqotning dialogik shaklidagi bir qator qiyinchiliklar bilan egallaganda ham bog'langan mustaqil nutqni, egallashda muammolarga duch keladilar. Ulardagi nutqning diaologik shakliga nisbatan monologik nutqi faolroq shakllangan bo'ladi. Bu esa boladan tovushlar talaffuzi va fikrlash uchun muhim bo'lgan aqliy faoliyatning ma'lum darajada shakllanganligini yuzaga keltiradi. Bog'langan nutqni egallash uchun bolaning ichki nutqi yetarli rivojlangan bo'lishi, so'zlarni tanlash, ularni ma'lum tizimda aniqlash, nutqiy muloqot rejasini tuzishni talab etadi. Bog'langan nutq boladan nafaqat ichki balki tashqi nutqni bayon qilish motivatsiyadan boshlanadi, ichki nutq orqali tashqi nutq bayoni yuzaga keladi. Alalik bolalar nutqni shakllantirishning boshlang'ich bosqichlarida bog'langan nutqdan foydalanish muloqotga ehtiyojning yo'qligi kuzatiladi. Bu esa umumiy buzilishlar va nutqiy faollik bilan chambarchas bo'ladi. Bolalar nutqning yo'qligi tufayli paralingvistik vositalardan, imo-ishora, mimika, pantomimika, intonatsiyani ishlatadilar. Bolalar ketma-ket keladigan rasmlar mazmuni bilan mantiqiy tanishtirishda qiyinaladilar. Ayrimlari rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda tahlay olmasalar, ayrimlarini to'g'ri ketma-ketlikdagi rasmlarni to'g'ri nomlashda muammoga duch keladilar. Bog'langan nutqning shakllanmaganligi ichki nutqiy rejalashtirishning yo'qligi tashqi nutqning noto'g'ri amalga oshirilishi bilan birga yuzga chiqadi. Bu holatda nutqiy bayon qilishning fragmenti buzilganligi va bundan tashqari bir tekisdagi ketma-ketlik buzilganligi, vaziyatning bir yoki bir nechta mantiqiy qatorlarining tushib qolishi, fikrlar tarqoqligi yuzaga keladi. Ushbu bolalardagi predmetlarning fazoviy munosabatini ifodalovchi murakkab mantiqiy-grammatik konstruksiyalarni egallash bolaga katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bolalarda rasmlarga qarab hikoya tuzish voqealar ketma-ketligini ifodalashdagi buzulishlar aks etadi. Bolalar mavzuni yechib berish uchun muhim bo'lgan dalillarni tanlolmasdan, kerakli so'zlarni topa olmaydilar va ikkilamchi tavsilotlarga tayanib qolib, asosiy mazmuni anglolmaydilar. Bu holda, alalik

bolalarda nutqning rivojlanmaganligi muloqot motivatsiyasining shakllanmaganligi bilan, faoliyatning turli komponentlari faolligini buzilishi bilan bir xilda kechadi. Agar bolalar bilan muntazzam korreksion tizimda ish olib borilsa nutqiy imkoniyatlarning rivojlanishi, monologik bayon qilishning sabab-oqibat munosabatlarini egallash natijasida mustaqil nutq bir muncha to'g'rilanadi, lug'at boyligi ortadi va faollashadi, so'z va gaplarning tovush-bo'g'in tuzilishida o'sish kuzatilishini ko'rishimiz mumkin.

3. Bolalar nutqining rivojlanishida ertak terapiyasining tarixiy bosqichlari

Ertak terapiyasi amaliy psixologiyaning eng qadimiy va qiziqarli usullaridan biridir, chunki insoniyat tug'ilibdiki ertaklar orqali dunyoni rang-barang ko'rib anglab boradi. Ertak terapiyasi qadimgi davrlarda paydo bo'lgan va hozirgi kungacha faol foydalanib kelinmoqda. Ertaklar orqali ota-bobolarimiz bizga dunyo, hayot falsafasi haqidagi bilimlarini yetkazishgan va har bir avlod ularni qayta o'rganib, tahlil etgan. Ertaklar bolalarni boshqa odamlarni tinglashga va tasavvur qilishga ko'nikmalarni shakllantiradi. Ertaklar kattalarga bolalar bilan umumiy til topishiga, ular bilan do'stlashishga, hamda ba'zi bir bolalar dunyosidagi o'ziga hos tushunmovchiliklarni hal qilishga foydali vosita sanaladi. Ertaklarga murojaat qilish, ruhni yaxshilik bilan to'ydirish, yovuzlik va betartiblikka qarshi turish manbai yaratishga yordamlashadi. Ertaklarga murojaat qilishda yosh chegarasini qo'yish noto'g'ri sanaladi. Har bir yoshning o'z ertakiga, afsonasiga, masaliga, qo'shig'i mavjud bo'ladi. Ertak terapiyasi Psixoterapiyaning ilmiy uslubning rasmiy maqomiga ega bo'lishidan oldin ham, ertaklar o'quv va tarbiya uchun o'ziga xos vosita, xalq psixoterapiyasining vositasi bo'ladi. Ertak terapiyasi jarayoni bolaga ularning muammolarini tushunishi va ko'rishi, ularni aktuallashtirishga imkon beradi va bu juda o'rindir. "Ertak terapiyasi" tushunchasi bilimlarni uzatish usuli, insonning ruhiy yo'li va ijtimoiy hayotning aks etishidir. Shuning uchun ertak terapiyasi insonning ruhiy tabiatiga mos keladigan ta'lim tizimi deb nomlanadi. Ertak terapiyasining ilmiy nazariy asoslari haqida qarashlar XVIII asr o'rtalariga borib taqaladi. Ertaklar orqali xalq og'zaki

ijodida avloddan avlodga axloqiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari yetkazib kelinadi.

Bugungi kunda ertak terapiyasi amaliy psixologiyada faol qo'llanib kelinib, atamaning so'zma-so'z talqini "ertaklar orqali davolash, tuzatish" degan ma'noni anglatadi. Hozirda ushbu talqin taniqli psixolog Zinkevich Evstigneeva tomonidan "Insonning ma'naviy yo'li va ijtimoiy hayoti to'g'risida bilimlarni yetkazish" usullari to'plami deya ta'kidlanadi.³⁵ Ertaklarning ilmiy falsafiy asoslariga nazar tashlaydigan bo'lsak, amaliy psixologiyada mustaqil yo'nalish sifatida ertak terapiyasi XX asr oxirlarida XXI asr boshlarida vujudga keldi. Shu fursat ichida ertak terapiyasi 16 yil davomida amaliy psixologiyani bir bo'g'ini sifatida o'sib bordi. 1997 yilga kelib Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida "Ertaklar terapiyasi" institut vujudga keldi. Ertak terapiyasi usulini ishlab chiqishda bir qator chet el olimlari ilmiy ishlari mavjud. D.B.Elkonin, L.S.Vygotskiy asarlari, B. Bettelheimning tadqiqot va tajribasi, K.G.Jung, M.L.Fon Franz, S.Kopp, E.Fromm, E.GardnE.Bern, A.Gnezdilovning g'oyalari, N.Peseshkianning hikoyalari bilan ijobiy terapiya haqidagi tajriba sinovi hamda psixoterapevtik ertak usullari, T.D.Zinkevich-Evstigneeva, I.Vachkov, N.Sakovich, A.Osipova, N.Kiseleva asarlari hozirgi kunga kelib shu kabi izlanish olib borgan olimlarning ishlarni ertak terapiyasining ilmiy falsafiy asosi bo'lib kelmoqda. Zinkevich Evstigneevaning fikrga ko'ra ertak terapiyasi badiiy psixoterapevtik psixokorreksiya, didaktik, meditatsiyani o'zida aks ettiradi. Zinkevich-Evstigneeva "Ertak terapiyasi nafaqat psixoterapiya yo'nalishi, balki psixologiya, pedagogika, psixoterapiya va turli madaniyatlar falsafasining ko'plab yutuqlari sintezidir" deya ta'kidlagan³⁶. Ushbu nuqtai nazari orqali olim ertak terapiyasini rivojlantirishning to'rtta tarixiy bosqichlarga bo'ladi:

I. bosqich - xalq og'zaki ijodi orqali ertakning boshlanishi asrlar davomida yo'qolgan, ammo og'zaki (va keyinchalik yozilgan) ijodkorlik jarayoni bugungi kungacha davom etishi;

³⁵ Зинкевич-Евстегинеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии.-СПб.:Изд. «Речь»,2005.-310с

³⁶ Зинкевич-Евстегинеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии.-СПб.,2000.-36с

II. bosqich - ertak va afsonalarni to‘plash va tadqiq qilish. Afsonalar va ertaklarni psixologik, chuqur aspekti;

III. bosqich-psixotexnika ertakni psixodiagnostika, tuzatish va shaxsni rivojlantirish uchun imkoniyat sifatida foydalanish;

IV.bosqich- “Integratsiyalashgan ertak terapiyasi kontsepsiyasining shakllanishi, ertaklarga ma’naviy yondoshish, ertak terapiyasini tabiatning do‘sti , ta’lim tizimida insonning organik idroki sifatida tushunish, ota-bobolarimizning ko‘plab avlodlari tomonidan sinovdan o‘tganligi”ga aloqadorligi.

Ertak terapiyasi psixoterapiya va defektologiyada faol rivojlanayotgan sohalaridan sanaladi. Yana bir rus tadqiqotchisi Stanislav Raevskiyning so‘zlariga ko‘ra, “ertak terapevtga va uning mijoziga bir xil tilda gapirishga yordam beradi, umumiy belgilar tizimini beradi va ba’zan siz odamdan eng sevimli ertak nima ekanligini so‘rash orqali ko‘p narsani tushunishingiz mumkin” deya fikrini yoritib beradi. Axborot manbalarida “ertak terapiyasi” ta’rifi turlicha ishlatiladi. Chunki ertak terapiyasi tarbiyalashda, ta’limda va rivojlanishda, mashg‘ulotlarda va psixoterapiya vositasi sifatida foydalaniladi. O‘z navbatida ertak terapiyasining ko‘lami jihatdan kengligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishini hisobga olgan holda bir necha tomondan ko‘riladi. Shundan kelib chiqqan holda, “ertak terapiyasi” ning turli xil tushunchalarini ajratib aytish mumkin:

➤ Foydalanish maydoniga qarab “ertak terapiyasi” turli xil vaziyatlarni aks ettirishda foydalaniladi.

➤ Ertak terapiyasi xalq og‘zaki ijodi. Bunda bolaning jamiyat tomonidan qabul qilingan dunyoga bo‘lgan alohida munosabatini shakllantirish usuli sifatida tasnif etiladi.

➤ Ertak terapiyasi jamiyatda mavjud qadriyatlarni o‘rganishning eng qadimiy usuli sifatida. Bunda bolaga asrlardan meros bo‘lib kelayotgan axloqiy qoidalar, qadiryat va ananalarni yetkazishni ta’minlashda foydali sanaladi.

➤ Ertak terapiyasi rivojlanish vositasi sifatida. Ertak tinglash, ixtiro qilish va muhokama qilish jarayonida bolada samarali hayot uchun zarur bo‘lgan tasavvur

va ijodkorlikni shakillantiradi. Bunda esa bola tomonidan mustaqil shaxs sifatida qarorlarni qabul qilishning asosiy mexanizmlari o‘rganiladi.

➤ Ertak terapiyasi rivoyat sifatida. Ertaklarni tinglash va idrok etish jarayonida bolalar ularni o‘z hayot sahnasiga kiritadi, uni rivojlantirib boradi. Bolalar uchun bu jarayon judda ham maroqli hisoblanib, ko‘pgina bolalar tomonidan ertakni birma-bir va qayta-qayta o‘qish talab etiladi.

➤ Ertak terapiyasi psixoterapiya usuli sifatida. Ertak yordamida bola bilan korreksion ish olib borish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolaga yordam berish davolashning samarali usullari deb qaraladi. Terapiya jarayonida ertakchi mutaxassis bolaga ertak bilan ishlash orqali (o‘qish, ixtiro qilish, ijro etish, davom ettirish), uning hayotidagi qiyinchiliklar va muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Shu bilan birgalikda Zinkevich-Yevstigneyevani “Ertak terapiyasi-bu amaliy psixologiyada yosh, zamonaviy va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, u ertakning metaforik manbalaridan foydalangan holda odamlarga o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishga va boshqalar bilan ishonchli, yaqin munosabatlarni qurishga imkon beradi” deya ta’kidlaydi. Shuningdek, ertaklar bilimlarni yanada boyitish usuli sifatida qaraladi. Darhaqiqat, bolalar ertaklarni tinglay boshlaganida ertakdagi aks ettirilgan jarayonlar dinamikasi anglab olishadi. Ertaklarni tinglab, bola ongsiz ravishda ma’lum bir “hayotiy vaziyatlarni” anglab boradi. Shu bilan birgalikda vaziyatlarni amaliyotda faollashtirishadi. Agar bola bilan birgalikda biz har bir o‘qilgan ertakni aks ettirsak, unda aks ettirilgan bilimlarni bolaning majburiyatlariga emas, faoliyatida qo‘shib borsak ertaklar bola hayotiga ijobiy ta’sir o‘tkazishiga guvoh bo‘lamiz. Ertak terapiyasi ta’siri orqali bolaning shaxsiyatini, yetakchilik fazilatlarini, nutqni, tasavvurni, fikrlashni rivojlanadi, shuningdek, nojo‘ya fazilatlarini, qo‘rquv, tajovuz kabi salbiy odatlaridan halos bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Qayta-qayta takrorlanadigan ertaklar orqali pedagog bilan birgalikda bolalar o‘zaro yordam, minnatdorchilik, adolat, vijdon, sharaf, jasorat va boshqalar kabi turli xil axloqiy tushunchalarni anglab boradilar. Kichik maktab yoshida bola identifikatsiya mexanizmini faol rivojlantirgani sababli bu davrda ertak terapiyasi

eng samaralidir. Bola xarakteri rolga to'liq o'rganadi, qahramoni bilan sodir bo'lgan barcha voqealarni to'liq boshdan kechiradi, unga shaxsiy fazilatlari va munosabatlarini shakillantiradi. Ertaklar tasvirlari bolani odob-axloq normalariga rioya qilib, u yoki bu qiyin hayotiy vaziyatga qanday tushishni tushuntiradi. Ertaklardagi tasvirlar bilish jarayonlarini faollashtirishga yordam beradi. Bu esa tasavvur tuyg'ular barcha aqliy funksiyalar bilan birlashgan bo'ladi. Bugungi kunda, bir qator mutaxassislar tomonidan psixologlar, shifokorlar, defektologlar va o'qituvchilar murojaat qiladigan ertak terapiyasi usulidan faol foydalanish tendentsiya bo'lishini bilishimiz mumkin. Zinkevich-Evstigneva, N.Sakovich, A.Lisinalar tomonidan tashkil etilgan ertak terapiyasi dasturidan³⁷, ertak terapiyasi pedagogik usul sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar, nogironlar bolalar uchun tashkil etilgan markazlar, bolalar uchun reabilitatsiya markazlarida keng qo'llanilmoqda.

Ertak terapiyasining dolzarbligi, bugungi kunda sog'lom bolalar bilan bir qatorda rivojlanishida turli xil nuqsonlari mavjud bolalarni tarbiyalashning eng samarali va tasdiqlangan usullari va vositasidir. Shu jumladan jamiyatimizda nutq kamchiligi mavjud bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishida ham ertak terapiyasini qo'llash maqsadga foydali bo'ladi. Ertaklarni innovatsion texnologiyalar orqali boyitish tufayli bolalar nutqini rivojlantirishda samarali usul sifatida tan olingan. Logopedik amaliyotida ham ushbu usuldan foydalangan holda, bog'langan nutqni rivojlantirishda yaxshi samara berishi mumkin. Yuqorida berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki logopedig mashg'ulotlarda ertak terapiyasidan keng ko'lamda foydalanish bolaning shaxsiyatini yanada rivojlantirish va yangi bilimlarni tez va onson egallashi va undagi nutqning yanada jadal suratlarda rivojlanadi. Buning uchun ertak terapiyasi usuli logopedik mashg'ulotlarning asosiy qismini tashkil etilishi lozim. Muntazam ravisda olib borilgan ertak terapiyasi orqali bolalarda milliy urf-odat qadiryat tarbiyaviy jihatlarini bolalar ularga tushunali bo'lgan qiziqarli holatda yetkazib berish imkoniyati paydo bo'ladi.

³⁷ Зинкевич-Евстегинеева Т.Д Практикум по сказкотерапии.-СПб.:Изд. «Речь»,2005.-310с

Birinchi bob bo'yicha hulosa

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda uchrovchi nutqning sistemali buzilganligi ularning umumiy rivojlanish dinamikasiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu esa bolalarda ham nutq komponentlarining meyordan orqada qolishi ham ulardagi motor harakatlarning o'z tengdoshlariga qaraganda sekinlik og'ishilar bilan rivojlanishini keltirib chiqaradi. Alalik bolalarning aksariyat qismida kominikatsion yetishmovchilik kuzatiladi va shu bilan bir qatorda aniq belgilab berilgan topshiriqlarni bajarishidagi o'ziga nisbatan ishonchsizlik va harakat tezlikning pasayishi faollikning sustligi yoki o'ta giperfaollik holatlari ham kuzatiladi. Albatta maktabgacha yoshdagi bolalardagi nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim muassasaida olib boriladigan logopedik korreksion mashg'ulot muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ustida muntazam korreksion logopedik ish olib borilmasa ularning nutqi o'z o'zidan to'liq yaxshilanmaydi. Shu sababli ushbu ko'nikmalar va qobiliyatlarni mashg'ulotlar jarayonida ertak terapiyasi kabi mashg'ulotlar paytida o'stirish lozim. Ertak nafaqat bolalarni nutq komponentlarni rivojlanishiga balki motor harakatlar nutq bilish jarayonlari bilan birgalikda uzviy rivojlanishiga olib keladi. Bolalarda o'z-o'zidan o'zgaralar nutqiga bo'lgan qiziqishi ortadi bog'langan nutqni ijro etayotgan qahramonlar fikrini o'ylash o'quv faoliyatini rivojlantirish uchun motivatsiyani oshiribgina qolmasdan, balki bolani tahlil qilish analiz-sintez malakalarini shaklanishiga har bir ish yakunida hulosa chiqarishga sabab-oqibat bog'lanishlarni tasavvur qilishga, ertak ichidan ertak qahramonlarining bir birga mantiqiy munosabatni izlashga shu bilan birga bolalardagi mantiqiy taffakur o'stirishga, xulosalar chiqarishga undaydi. Buning uchun ertaklar logopedlar tomonidan bolalarning rivojlanishiga kompleks yondoshishni ta'minlaydigan ertaklardan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

II - Bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIK BOLALAR NUTQINI O'RGANISHNING EKSPEREMENTAL TADQIQOT METODIKASI

1. Takidlovchi ekperiment mazmuni metodlari va uni tashkil etish

Ilmiy tadqiqot ishimizning 3-bosqichida tekshirish metodikasini o'tkazish maqsadida, Toshkent shahar Chilonzor tumaniga qarashli 386-Maxsus maktabgacha ta'lim muassasida tanlab olindi. Tadqiqot ishimizning tekshirish metodikasini o'tkazish uchun maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar tanlab olindi. Hammasi bo'lib, tadqiqotimizda 20 nafar bola ishtirok etishdi. Shulardan 10 nafari qiz bolalar, 10 nafari o'gil bolalar bo'lishidi. Tadqiqot ishining amaliy qismi 3-bosqichda 2019-yilning 3-4 kvartallarida bosqichma-bosqich olib borildi:

1 - bosqichda

- Guruh logopedi hujjatlari bolalar tashxis varaqalari o'rganildi;
- Bolalar bilan do'stona iliq munosabat o'rnatildi;
- Bolalar o'yin va mashg'ulot jarayonlarida kuzatuv ishlari olib borildi;
- Tajriba sinov metodikasi jihozlari tayyorlandi va o'tkazildi;
- Tajriba-sinov natijalari qayd etildi;

2 - bosqichda

- Ishlab chiqilgan ertak terapiyasi texnologiyasini o'tkazish uchun muhit yaratildi;
- Ertak terapiyasi texnologiyasi yakka tartibda va guruhli tarzda kunlarga bo'linib tadbiiq etildi;
- Ertak terapiyasi texnologiyasi bolalarning 1 haftalik kundalik mashg'ulotlariga joriy etildi;

3-bosqichda

- Qayta tekshirish metodikasi o'tkazildi hamda erishilgan natijalar qayd etildi;
- Ertak terapiyasi texnologiyasidan oldingi va so'nggi natijalar solishtirma taxlil qilindi;

- Guruh logopedi va bolalar tomonidan ertak terapiyasiga bo'lgan munosabat o'rganildi;

Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalardagi nutqni tushunishini tekshirish

Bolalarda nutqni tushunish holati tekshirish maqsadida Volkova G.A tomonidan “Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni psixologik-logopedik tomondan tekshirish” metodik qo'lanmasidan foydalandik.³⁸ Ushbu to'plam doirasida 6 turdagi topshiriqlar berilgan bo'lib har bir topshiriq o'z ichiga vazifalarni qamrab oladi. Xususan, muallif tomonidan ishlab chiqilgan topshiriqlar orasidan nutq tushunish holatini tekshirishda bolalardagi bog'langan nutqni tushunishiga doir topshiriqlar, ish harakat holatini tushunishga doir topshiriqlar, gramatik jihatdan tushlangan gaplarni tushunishiga doir topshiriqlar, o'rin joy qo'shimchalari bildirgan nutqni tushunish va fonematik idrokini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar tanlab olindi ushbu topshiriqlar to'plami 1-ilovada aks etirildi

Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar lug'at boyligini tekshirish

Lug'at boyligi boladagi ichki nutqning qay darajada shakllanganligidan darak beruvchi vositadir. Lug'at boyligini tekshirishda avval fe'l so'z turkimiga oid bo'lgan so'zlar tekshirish maqsadga muvofiq, chunki fe'l so'z turkimiga oid so'zlar kundalik hayotda eng ko'p ishlatiladigan so'zlar sanaladi. Bu esa tekshirish jarayonida nafaqat so'z boyligining qay darajada ekanligini aniqlash va shu bilan birga ichki nutqni ish harakatni bildirgan so'zlar bilan boyitadi. Tanlab olingan lug'at boyligini tekshirish metodikasi Rus olimi Volkova G.A tomonidan “Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni psixologik-logopedik tomondan tekshirish” metodik qo'lanmasida tavsiya etilgan. Ushbu metodik qo'lanmada bir qator olimlar fikrlari keltirilgan. Vigotskiyning fikriga ko'ra: “Fe'l so'z turkimiga oid so'zlar ichki nutqni rivojlanishida asosiy o'rin egallaydi”.³⁹ Ichki nutq taffakur va tashqi

³⁸Волкова Г.А. Методика психолого-логопедического обследования с нарушениями речи. Вопросы дифференциальной диагностики: УМП, -СЕЮ, :ДЕТСТВО ПРЕСС, 2004-29с

³⁹Волкова Г.А. Методика психолого-логопедического обследования с нарушениями речи. Вопросы дифференциальной диагностики: УМП, -СЕЮ, :ДЕТСТВО ПРЕСС, 2004-25с

nutqning bog'lab turadigan asosiy qism bo'lib so'zlashish fikr bildirish jarayonida nomoyon bo'ladi. Biz tadqiqotimiz uchun quydagi topshiriqlarni tanlab olindi ushbu topshiriqlar to'plami 2-ilovada aks etirildi.

Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalarda mayda qo‘l matorikasi va umumiy matorikasini tekshirish

Maktabgacha yoshdagi alalik bolalar mayda qo‘l motorikasi va umumiy motor harakatchanligini tekshirishda Rus olimi Volkova G.A tomonidan “Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni psixologik-logopedik tomondan tekshirish” metodik qo‘llanmasida tavsiya etilgan metodik to‘plamdan foydalanildi. Bundan tashqari mayda motorikani tekshirish maqsadida yana bir qator tekshiruv uslubalari O‘zbek tadqiqotchi olimlari Ahmedova Z.M, Ayupova M.Y, Xamidova M.P tomonidan nashr etilgan “Logopedik o‘yin” o‘quv qo‘llanmasidan tanlab olindi ⁴⁰ Bolalarda harakat yetishmovchiligi: murakkab harakatlar koordinatsiyasining yomonligi ko‘rinishida, aniq belgilangan harakatlari bajarishda tezlik, chaqqonlik pasayishida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalarni kuzatganimizda mayda qo‘l motorikasining yaxshi rivojlanmaganligi, barmoqlarning o‘zaro harakati, koordinatsiyasi buzilganligi aniqlangan. Bunday kamchiliklar bolada mashg‘ulot davomida turli xil vazifalarni bajarishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Biz alalik bolalarning mayda qo‘l motorikasi va umumiy motorika holatini hisobga olgan holda topshiriqlarni tanladik. Tadqiqot ishimizni maktabgacha yoshdagi 20 nafar bolalar bilan olib bordik va ushbu topshiriqlar to‘plami 3-ilovada aks etirildi

⁴⁰Ahmedova Z.M, Ayupova M.Y, Xamidova M.P.:“Logopedik o‘yin” darslik.Toshkent-2007

2 Takidlovchi eksperiment natijalari


Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini tushinishini tekshirishda 8 turdagi topshiriqdan foydalanildi, har bir topshiriq 8 tadan vazifa mavjud. Tadqiqotimiz natijasi jadval diagramma ko'rinishida, izohli tarzda tahlil qilindi. Bolalar nutqni tushinishini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar raqamli ko'rsatkichlari 1 jadvalda ifodaladi.

1-jadval

№	Bolalar nutqni tushinishini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar	Bolalar soni	Bolalar tomonidan to'plangan ballar (%)			
			4	3	2	1
1	Ertak qahramonlarini toping	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	7 nafar (35%)	3 nafar (20%)
2	Harakat holatini bajarib ko'rsatish	20 nafar (100%)	5 nafar (25%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	2 nafar (10%)
3	Grammatik tuslanganlikni farqlash	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	5 nafar (25%)	7 nafar (30%)	5 nafar (25%)
4	Kim e'tiborli o'yini	20 nafar (100%)	2 nafar (10%)	8 nafar (40%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)
5	O'yinchoqlarni joylashtir	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	5 nafar (25%)	7 nafar (35%)	5 nafar (25%)
6	Jihozlarni taqqosla	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)

1-diagramma

Nutqni tushunishini tekshirish natijalari



Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutqni tushinish holatini tekshirish jarayonida olingan natijar quydagicha izohlandi:

1-Topshiriq: yuzasidan biz bolalarga ertak yuzasidan 10 ta savol berdik bola savollarga rasmlı kartochkalar orqali javob berishi kerak edi.Ushbu topshiriqni 3 nafar (15%) bola hatosiz tog'ri bajardi; 7 nafar (35%) bola berilgan 7 ta savolga to'liq javob berishdi; 7 nafar (35%) bola esa 5 ta savolga hatolik bilan javob berdilar; 3 nafar (15%) bola 3ta savolga hatolar bilan qoniqarsiz holatda javob berishdi;

2-Topshiriqda bolalarga ish harakatni bildirgan syujetli rasmlar taqdim etilib va shu bilan birga chalg'ituvchi o'xshash rasmlar ham berildi.Mazkur jarayonda 5 nafar (25%) bola hatosiz rasmlarni tog'ri ko'rsatdi; 7 nafar (35%) bola 4 ta syujetli rasmni qiyinchiliklar bilan taqdim etdi; 6 nafar (35%) bola esa 3 ta

savolga takroran hatolik bilan javob berdilar; 2 nafar (10%) bola 2 ta savolga qoniqarli holatda javob beridi;

3 -Topshiriqda bolalarga grammatik tuslangan savollar berildi. 4 nafar (20%) bola hatosiz tog'ri javob beridi; 5 nafar (25%) bola 6 ta rasmni qiyinchiliklar bilan taqdim etdi; 7 nafar (35%) bola esa 4 ta savolga takroran hatolik bilan javob berdilar; 5 nafar (25%) bola 2 ta savolga qoniqarli holatda javob beridi;

4 - Topshiriqda bolalar 2 metr masofadan o'ziga qaratigan topshiriqni anglab olib bajarishi lozim edi. 2 nafar (10%) bola 2 metr masofadan shivirlagan ovozda berilgan vazifani hatosiz tushunib tog'ri bajardi; 8 nafar (40%) bola 4 ta topshiriqni bajarishda biroz kamchilikga yo'l qo'yib bajardilar; 6 nafar (30%) bola esa 3 ta vazifani takroran hatolik bilan bajardilar; 4 nafar (20%) bola 2 ta ish harakatni masofadan tog'ri bajardilar;

5 -Topshiriqda bolalarga predmetlarni joylashtirish vazifasi yuklanadi ushbu vazifani 3 nafar (15%) bola hatosiz o'rin joy kelishiklarni tushunib tog'ri bajardi; 5 nafar (25%) bola 4 ta topshiriqni bajarishda biroz o'rin joy kelshiklarida yanglishidi; 7 nafar (35%) bola esa 3 ta vazifani takroran hatolik bilan bajardilar; 5 nafar (25%) bola 1 ta ish harakatni tog'ri bajardilar;

6- Topshiriqda bolalar predmetlarni bir birga taqqoslab ajratib ko'rsatishdi. 4 nafar (20%) bola 8 turdagi predmetli rasmlari to'gri taqqolab ko'ratib berdi; 7 nafar (35%) bola 6 ta predmetni taqqoslab topshiriqni bajarishda biroz kamchilikga yo'l qo'yib bajardilar; 6 nafar (30%) bola esa 3 ta vazifani takroran hatolik bilan bajardilar; 3 nafar (15%) bola 2 ta vazifani tog'ri bajardilar;


**Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega
bolalarda lug'at boyligini tekshirish natijalari**

Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar lug'at boyligini tekshirish 8 turdagi topshiriqlar o'tkazildi. Har bir topshiriqda 8 tadan vazifa mavjud bo'lib har bir vazifa yuzasidan olingan natijalar qayd etilib topshiriq natijasi matematik statik usulda aniqlandi. Lug'at boyligini tekshirishning umumiy natijalari jadval diagramma ko'rinishida, izohli tarzda tahlil qilindi. Bolalar nutqni tushunishini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar raqamli ko'rsatkichlari 2-jadvalda ifodaladi.

2-jadval

№	Bolalar lug'at boyligini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar	Bolalar soni	Bolalar tomonidan to'plangan ballar (%)			
			4	3	2	1
1	Ish qurollari vazifasi	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	6 nafar (30%)	9 nafar (45%)	2 nafar (10%)
2	Qaysi hayvon qanday harakatlanadi	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)
3	Harakatli fe'llar antonimi toping	20 nafar (100%)	5 nafar (25%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)
4	Predmetlarni umumlashtiring	20 nafar (100%)	2 nafar (10%)	7 nafar (35%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)
5	Pontamimik holatni nomla	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	8 nafar (40%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)
6	Sevimli ertak qahramonlariga taqlid	20 nafar (100%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	5 nafar (25%)	2 nafar (10%)

2-diagramma



Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nutqni tushinish holatini tekshirish jarayonida olingan natijar quydagicha izohlandi:

1-Topshiriq bo'yicha bolalar predmetlarning vazifasini bir so'z bilan aytib tegishli rasmlari kartochkani ko'rsatishi kerak. Mazkur topshiriqda 3 nafar (15%) bola 6 ta predmet vazifasini tog'ri topib nomlab berdilar; 6 nafar (30%) bola 4 savolga qisqacha biroz ikkilanish tushunarsiz nutqda bilan javob berdilar; 9 nafar (45%) bola esa 5 ta savolga takroran hatolik bilan javob berdi; 2 nafar (10%) bola 2 savolga tog'ri rasm ko'rsatdi holos;

2-Topshiriq bo'yicha bolalar hayvonlar harakatlariga taqlid qilib harakatlarni nomlashi kerak edi. Mazkur topshiriqda 3 nafar (15%) bola barcha hayvonlar harakatini to'g'ri nomlab berdilar; 7 nafar (35%) bola esa 5 ta hayvon

harakatini nomlay oldilar; 6 nafar (30%) bola esa 4 ta hayvon harakatini nomlab berdi, ular orasida bir bir bilan almashtirib qo'yish holatlari ham kuzatildi. 2 nafar (10%) bola 3 ta harakatni ham ko'rsatib berishdi lekin ular kamchiliklarga yo'l qo'yishdi;

3-Topshiriq. Bolalar harakatli fe'llar antonimini topishlari kerak edi ushbu topshiriq yuzasidan 5 nafar (25%) bola barcha harakatlar antonimi aytishdi; 6 nafar (30%) bola esa 6 ta fe'l antonimini topishdi; yana 6 nafar (30%) bola esa 4 ta harakat fe'li antonimini biroz qiyinchilik bilan aytishdi; 3 nafar (15%) bola 3 ta harakatni ham ko'rsatib berishdi lekin ular fe'larni ishoralar bilan ko'rsatib topshidi;

4-Topshiriq. Bolalar predmetlarni guruhlashtirish vazifasi berilgan edi. Ushbu topshiriqlar yuzasidan 2 nafar (10%) bola barcha predmetlarni biroz qiyinchilik bilan ammo tog'ri guruhlashtirib nomlashdi; 7 nafar (35%) bola esa 6 ta guruhga tegishli bo'lgan predmetlarni tog'ri qolganlarini esa biroz hatolik bilan ajratib nomlashdi; 7 nafar (35%) bola esa 3 guruhga tegishli predmetlarni aniq qolganlarini hatolik bilan ajratishdi; 4 nafar (20%) bola 2 guruhga doir predmetlarni tog'ri nomlashdi qolgan predmetlarni ajratishda kamchiliklarga yo'l qo'yishdi;

5-Topshiriqda yuz ifodalarni bolalar topib nomlashlari lozim edi, 3 nafar (15%) bola barcha yuz ifodalarini to'g'ri nomlashdi; 8 nafar (40%) bola esa 6 ta yuz qiyofasini tog'ri nomlashdi; 6 nafar (30%) bola yuz ifodasini 4 tasini tog'ri qolganlarini hatobian nomlashdi; 3 nafar (15%) bola esa 3 ta yuz ifodasini topib nomlashdi lekin hatoliklarga yo'l qo'yidilar;

6-Topshiriqda bolalar uchun juda qiziqarli tarzda tashkil etildi. Ushbu topshiriq yuzasidan, 6 nafar (30%) bola barcha ertak qahramonlarini to'g'ri nomladi; 7 nafar (35%) bola esa 6 ta ertak qahramonini tog'ri nomladi 2 ta ertak qahramonini nomlashda hatolikga yo'l qoydilar; 5 nafar (25%) bola 5 ta ertak qahramoni to'g'ri topishdi ammo kamchiliklar bilan 2 nafar (10%) bola esa 3 ta ertak qahramoni tog'ri 5 ta ertak qahramoni esa yanglishib qayta nomlashdi;


**Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar
mayda qo'l motorikasi umumiy motor harakatini natijalari.**

Bolalarda mayda qo'l motorikasi va umumiy motorika harakatlarini tekshirishda 20 nafar 5-6 yoshli alalik bolalar ishtirok etdilar. Berilgan topshiriqlar bolalar uchun juda qiziqarli bo'ldi. Lekin ba'zi topshiriqlarni bajarishda bolalar tomonidan qiyinchiliklar hamda tadqiqotchi yordamiga muhtojlik holati ham kuzatildi. Aksariyat bolalarda vazifani bajarishda chalkashliklar charchash, fazoviy mo'ljal olishning buzilishlari kuzatildi va qayd etib borildi.

Mayda qo'l motorikasi harakatchanligini tekshirish uchun tanlangan topshiriqlar bolalarda katta qiziqish uyg'oti va ular maroq bilan ushbu jrayonda qatnashdilar, biroq ularni bajarishda bir qator qiyinchiliklarga ham uchradilar. Ba'zi bolalar vazifalarni sekin bajardilar. Mayda qo'l motorikasini tekshirish uchun olib borilgan eksperiment mashg'uloti barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlandi. Bolalarda mayda qo'l motorikasi harakatchanligini tekshirish natijalari 3-jadval orqali ifodalandi.

3-jadval

№	Bolalar mayda qo'l motorikasini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar	Bolalar soni	Bolalar tomonidan to'plangan ballar (%)			
			4	3	2	1
1	Echkicha hosil qilish	20 nafar (100%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	3 nafar (15%)
2	Ko'zoynak hosil qilish	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	2 nafar (10%)
3	Panjara hosil qilish	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)
4	Qanot hosil qilish	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	5 nafar (25%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)
5	Halqa hosil qilish	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)
6	Plastilinni barmoqlar bilan yumalatish	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)
7	Munchoqlarni ipga terish	20 nafar (100%)	2 nafar (10%)	5 nafar (25%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)
8	Tugmalarni qadash	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)



Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo'l motorikasi harakatchanligi holatini tekshirish jarayonida olingan natijalar quyidagicha izohlandi:

1-Topshiriq. Echkicha soyasini hosil qilishi topshirig'i bo'yicha 100% (20 nafar) boladan, 6 nafar (30%) bola echki bosh shaklini bir urinishda to'g'ri hosil qildi; 7 nafar (35%) bola topshiriqni bajarishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'ydi; 4 nafar (20%) bola 2-urinishda topshiriqni hatolarga yo'l qo'ygan holda bajardi; 3 nafar (15%) bola esa umuman bajara olmadi va echki shakli aniq holis bo'lmadi;

2-Topshiriq. Ko'zoynak shaklini yasash topshirig'i bo'yicha 100% (20 nafar) boladan, 4 nafar (20%) bola ko'zoynak shaklini na'munadagidek hosil qildi; 7 nafar (35%) bola topshiriqni bajarishda ikki qo'l barmoqlar kordinatsiya qilishda qiyinchiliklar bilan bajarishdi; 7 nafar (35%) bola 2-urinishda topshiriqni hatolarga yo'l qo'ygan holda bajardi; 3 nafar (15%) bola esa umuman bajara olmadi va ko'zoynak shakli aniq holis bo'lmadi;

3-Topshiriq. Panjara shaklini hosil qilish topshirig'i bo'yicha 100% (20 nafar) boladan, 4 nafar (20%) bola ikki qo'l barmoqlarni bir biriga to'g'ri jiplashtirdilar; 6 nafar (30%) bola topshiriqni bajarishda ikki qo'l barmoqlar kordinatsiya qilishda jiplashtirishda chalkashliklar hosil bo'ldi; 6nafar (30%) bola 2-urinishda ham hatolar bilan topshiriqni bajardi; 4 nafar (20%) bola esa topshiriqni umuman bajara olmadi;

4-Topshiriq. Qush qanotlarini hosil qilish topshirig'i bo'yicha 100 % (20 nafar) boladan, 3 nafar (15%) bola na'muna bo'yicha tog'ri bajardi; 5 nafar (25%) bola topshiriqni bajarishda ikki qo'l bosh barmoqlarini birlashtirishda chalkashliklarga yo'l qo'ydi; 8nafar (40%) topshirqni tushunishmadi va beo'xshov shakl hosil qilishdi; 5 nafar (25%) bola esa topshiriqni umuman bajara olmadi;

5-Topshiriq. Havoda spiralsimon halqa hosil qilish topshirig'i bo'yicha 100 % (20 nafar) boladan, 4nafar (20%) bola na'muna bo'yicha tog'ri bajardi; 6 nafar (30%) bola spiralsimon halqalarni bir maromda bajarishda qiyinchiliklarga uchrashdi; 6 nafar (30%) bola esa havoda spiralsiom halqalar hosil qilishda halqalarni tassavvur qila olishmadi va beo'xshov harakatlar bajarishdi; 4 nafar (20%) bola esa topshiriqni umuman bajara olmadi;

6-Topshiriq. Plastilini yumshatish topshirig'ida 100% (20 nafar) boladan,4 nafar (20%) bola na'muna bo'yicha tog'ri bajardi; 6 nafar (30%) bola plastilini yumshatishda qiyinchiliklarga uchrashdi; 7 nafar (35%) bola esa plastilini yumshatishda barmoqlar harakatida sustlik beo'xshovlik kuztildi va berilgan shakl hosil bo'lmadi; 3 nafar (15%) bola esa topshiriqni umuman bajara olmadi;

7-Topshiriq. Munchoqlarni ipga terish topshirig'ida 100% (20 nafar) boladan, 2 nafar (10%) bola na'muna bo'yicha tog'ri bajardi; 5 nafar (25%) bola munchoqlarni 4 dan 3 qismini ipga tera oldi lekin qiyinchiliklar bilan topshiriqni bajardi; 8 nafar (40%) bola munchoqlarni 4 dan 2 qismini ipga tera oldi qolgan munchoqlarni tushirib yubordi; 5 nafar (25%) bola esa munchoqlarni umuman ipga tera olmadi;

8-Topshiriq. Tugmalarni qadash topshirig'ida 100% (20 nafar) boladan, 3 nafar (15%) bola na'muna bo'yicha barcha tugmalarni qaday oldi; 6 nafar (30%)

bola tugmalarni 4 dan 3 qismni qiyinchilik bilan qadadi; 7 nafar (35%) bola tugmalarni 4 dan 2 qismini qaday oldi lekin qadash mobaynida barmoqlarda susutlik kuzatildi; 4 nafar (20%) bola esa tugmalarni umuman qaday olmadi;

Maktabgacha yoshdagi bolalaring umumiy motorikasi harakatchanligi tekshirish jarayonida keskin ifodalangan sustlik va bir holatdan ikkinchi holatga qo'zg'alishda balalarda tormazlanish holati ham kuzatildi. Umumiy motorika holatini tekshirish esa ochiq havoda, bolalar maydonchasida kerakli jihozlar bilan o'tkazildi. Bolalarda umumiy motor harakatlar rivojlanish tekshirish natijalari 4-jadval orqali ifodalandi.


4-jadval

№	Bolalar umumiy motor rivojlanishni tekshirishga qaratilgan topshiriqlar	Bolalar soni	Bolalar tomonidan to'plangan ballar (%)			
			4	3	2	1
1	Kaptokni sherigiga otish va qayta ilib olish	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)	4 nafar (20%)
2	Orqa tarafga o'girilib 10 qadam yurish	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)
3	Shartli belgilli ilon izida oyoq uchida yurish	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)
4	2 metr masofadan kaptokni (4 marta) savatga tushurish	20 nafar (100%)	2 nafar (10%)	5 nafar (25%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)
5	Qo'llarni oldinga cho'zib tovonda yurish	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)
6	Joyda turgan holda 1 oyoqda sakrash	20 nafar (100%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)
7	Kapalak tutish mashqni Bajarish	20 nafar (100%)	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)
8	Yurish yugurish sakrashda signal bo'yicha to'xtash 1 aylana bo'ylab	20 nafar (100%)	2 nafar (10%)	4 nafar (20%)	8 nafar (40%)	6 nafar (30%)

4-diagramma

Umumiy motor rivojlanishni tekshirish natijalari

1 2 3 4



Umumiy motorika holatini tekshirish jarayonida olingan natijalar quydagicha izohlandi:

1-Topshiriq. Koptokni otish va ilib olish topshirig'i bo'yicha 100 % (20 nafar) bolalarning barchasi qiyinchilikga uchradilar. Shulardan 3 nafar (15%) bola 2 marta ham koptokni sherigiga tog'ri otib qayta ilib oldilar; 8 nafar (40%) bola esa ushbu topshiriqda qayta urinishda koptokni ilib oldilar; 5nafar (25%) bola 2 marta ilib olishdan 1 martagini ilib ola oldilar; 4 nafar (20%) bola umuman koptokni sherigiga o'tishda va ilib olishda qo'pol xatolikga yo'l qoyishdi.

2-Topshiriq. Orqa tarafga o'girilib yurish topshirig'ini 20 nafar (100 %) boladan, 3 nafar (15%) bola tog'ri va to'liq bajardi. 6 nafar (30%) bola bajarish jarayonida adashib ketdi; 7 nafar (35%) bola qadamlarida noodatiy qo'pol harakatlar kuzatildi; 4 nafar (20%) bola topshiriqni qoniqarsiz ya'ni bir ikki qadamdan so'ng yakunladi.

3-Topshiriq. Shartli belgilardan ilon izini hosil qilib yurish topshirig'ini 20 nafar (100%) boladan, 4 nafar (20%) bola tog'ri aniq hatosiz bajardilar; 6 nafar (30%) bola ilon izidan oyoq uchida qadam bosishda hatolikga yo'l qo'yidilar; 7

nafar (35%) bola esa ilon izini oxirigacha oyoq uchida qadam bosib borisha olishmadi; 3 nafar (15%) bola topshiriqni qoniqarsiz hatolar bilan bajarishdi.

4-Topshiriq. 2 metr masofadan koptokni savatga tushirish topshirig'i bo'yicha 20 nafar (100%) boladan, 2 nafari 4 marta ham savatga koptokni tushirdi; 5 nafar (25%) bola 3marta savatga koptokni tushurdi; 6 nafar (30%) bola 2 marta savatchaga koptokni tushirdi; 7 nafar (35%) bola esa koptokni savatga 1 martagina tushira oldi.

5-Topshiriq. Qo'llarni oldinga cho'zib boshni tik tutib tovonda doira hosil qilib yurish topshirig'ini 20 nafar (100%) boladan, 4 nafar (20%) bola doira so'ngigacha topshiriqni to'ri bajardi; 6 nafar (30%) bola bajarishda doira shaklidan chiqib ketish holati kuzatildi; 7 nafar (35%) bola doirani tovon uchida to'liq aylanib chiqa olishmadi va topshiriq qoniqarli deb baholandi; 3 nafar (15%) bola esa topshiriqni to'liq bajarishmadi ularda fazoviy mo'ljal olishda katta kamchiliklarga yo'l qo'yishdi.

6-Topshiriq. Joyda turgan holda bir oyoqda 10 marta sakrash topshirig'ida 20 nafar (100%) boladan, 4 nafar (20%) bola 10 marta to'liq bir oyoqda sakradilar; 7 nafar (35%) bola 7 marta to'liq bir oyoqda qolgan 3 marta 2 oyqda sakradilar; 6 nafar (30%) bola 5 martagina 1 oyoqda sakradi va qolganlarida hattolarga yo'l qo'yidilar; 3 nafar (15%) bola sakrashda bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yidilar va natija qoniqarsiz deb baholandi.

7-Topshiriq. Kapalak tutish mashqi 5 marta ushbu topshiriqni 20 nafar (100%) boladan, 3 nafar (15%) bola to'gri va to'liq bajardi; 7 nafar (35%) bola 4 marta bajara oldi holos; 6 nafar (30%) bola esa 3 marta bajara oldilar va kamchiliklarga yo'l qo'yishdi; 4 nafar (20%) bola 2 marta sakrab kapalak tuta olishdi.

8-Topshiriq. Yurish yugirish signalda to'xtash topshirig'i barcha bolalarga qiyinchik tug'di, topshiriqni 20 nafar (100%) boladan, 2 nafar (10%) bola to'gri va aniq bajardi; 4 nafar (20%) bola signal ovozda toxtash kerakligida yugurib ketishdi; 8 nafar (40%) bola yurish yugurishda signal ovozini adashtirib qoydi; 6

nafar (30%) bola esa bir tempda faqat yurish orqali signal ovozigga reaksiya bermadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Maktabgacha tarbiya yoshidagi alalik bolalarning nutqni tushunish lug'at boyligi, mayda va umumiy motorikasi hamda bilish jarayonini didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, ertaklar asosida topshiriqlar berildi. Bolar har bir topshiriqni qiziqish bilan bajardi. Topshiriq natijalarni tahlili asosida tekshirish bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin. Alalik bolalarda nutqni tushunishida bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib ular grammatik jihatda murakkab tuzilgan gaplarni tushunishda o'rin-payt kelshiklarini bir-biridan farqlashda qiyinchiliklarga uchradilar. Lug'at boyligini tekshirish natijalariga ko'ra esa bolalarda fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni bir-birdan farqlashda va ushbu so'z turkumiga oid so'zlarni yetarlicha bilmasligi, fe'larni tuslay olmaslik, atrofdagilar nutqini tushunishda fonematik idrokning yetishmasligi, har bir aytilayotgan so'zlarni predmetning rasmi yoki o'zi orqali ifoda etishini talab etadi. Alalik bolalardagi lug'at boyligining kambag'alligi va nutqidagi sistemali buzilish sababli fiklarni to'liq ifoda etib bera olmaydi, predmetlar nomini nomlay olmaydi, predmetlarni xususiyatlari bilan ifoda etadi. Alalik bolalar nutq komponentlariga umumiy xulosa beradigan bo'lsak, bolalarda murakkab so'zlarni talaffuz eta olmaslik, o'zak so'zlarni talaffuz qilishda tovushlar tallaffuzining rivojlanmaganligi, bolalar ekspressiv nutqining asosiy qismini unli va tallaffuzi jihatdan murakkab bo'lmagan tovushlar tashkil qilishi nomoyon bo'ldi. Bundan tashqari umumiy va mayda barmoqlar harakatchanligini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar natijasida bolalardagi mayda qo'l motorikasi va umumiy motorika harakatchanligining sustligi, barmoq uchni harakatlantirishdagi beo'xshov harakatlar qo'l va barmoqlar motor kordinatsiyadagi nomutanosibliklar umumiy motor harakatlaridagi bir vazifa turidan ikkinchi vazifani bajarilishga o'tishdagi qiyinchiliklar, gavda koordinatsiyasidagi vestibular apparat holatining me'yorida emasligi, fazoda mo'ljal olishning yaxshi rivojlanmaganligi kuzatildi va ushbu kuzatuv natijasiga asoslangan ertak terapiyasi texnologiyasi ishlab chiqish vazifa etib belgilab olindi.

III Bob. MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALAR OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANISHIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING O'RNI VA AHAMYATI.

1 Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda ertak terapiyasini texnologiyasini tashkil etish va o'tkazish

Tadqiqot ishimiz yuzasidan ishlab chiqilgan ertak terapiyasi texnologiyasi tadqiqot ishimizning obekti hisoblangan alalik bolalar nutq komponentlarini faol rivojlantirish bolalardagi badiiy, ijodiy qobiliyatini ham rivojlantirishga qaratilgan olib borilgan tadqiqot ishimiz natijasida ishlab chiqilgan ertak texnologiyasi har bir bolaning rivojlanishi uchun juda keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Ertak terapiyasini texnologiyasini tashkil etish va o'tkazish bosqichi 2019-yilning 3-4 kvartallarini o'z ichga oladi. Ushbu muddatda eksperimental bosqich uchun tajriba sinov maydoni aniqlanadi, obyekt kuzatiladi va atroflicha o'rganiladi va shu asosida takidlovchi eksperiment metodikalari ishlab chiqiladi tajriba sinov o'tkaziladi bundanso'ng olingan natijalarga tayangan holda ta'limiy eksperiment ishlab chiqiladi.

2020-yilning 1 kvartalida ishlab chiqilgan ta'limiy eksperiment tashkil etiladi va o'tkazib boriladi natijalari tahlil qayd etiladi. Ushbu olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bir qator ijobiy hususiyatlarga ega bo'lgan ertak terapiyasi usuli orqali alalik bolalar faoliyatida o'z navbatida ulardagi nutq kamchiliklarni korreksiya qilish bilan bir qatorda bolaning shaxs hususiyatlarini rivojlanishini umumiy motorik rivojlanishga qaratilgan kompleks tizim bo'lib, ushbu texnologiya ta'limiy tarbiyaviy korreksion rivojlantiruvchi vazifalarni hal etish imokonini beradi, quyda vaizfalar to'plami qayd etildi:

- Bolalarda tashabusskorlik hissi, ijodiy fikrlash qobilayati, o'z-o'zini baholash hissini rivojlantirish;

- Bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish asosida o'zaro aloqa munosabatlarini o'rnatish qobiliyatini, turli xil vaziyatlarda xatti-harakatlar modelini namoyish etish va etarli darajada baholash qobiliyatini rivojlantirish;
- Bolalarda qiziqarli tarzda nutq barcha funksional tizimini rivojlantirish;
- Bolalarda lug'at boyligini yangi so'zlar bilan boyitish;
- Bolalarga o'rganilgan yangi so'zlarni matn orasida mustahkamlash;
- Jamiyatdagi munosabatlarning ijtimoiy normalarini o'zlashtirishga yordam berish;
- Bolalardagi odob ahloq me'yorilarini o'rnakli ertak sahnalari orqali rivojlantirish, ertak asosida yaxshi va yomon tushunchlarini bir birdan keskin farqlashga o'rgatish;
- Bolalar ongiga do'stlik mehr sahiylik kabi ijobiy fazilatlarni singdirish;
- Ertak asosida yaxshi va yomon tushunchlarini bir birdan keskin farqlashga o'rgatish;
- Bolalarga milliy va jahon ertaklari asosida ertakdagi tarixiy qadryatlarini bir parchasini nomoyish etish;
- Bolaning shaxsiy muammolarini bilvosita hal qilishga yordam berish, atrof muhit bilan o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli modellarini namoyish etish;
- Bolalardagi mayda barmoqlar harakatchanligini ertak ichidagi voqelarga bog'lab rivojlantirish;
- Bolalardagi umumiy harakatlar korrinatsiyasini ertaklardasyujetlar asosida rivojlantirish;
- Ertak terapiyasi orqali korreksion mashg'ulotlarni tashkil etishda bolalarda uchrab turuvchi quyidagi shaxs hususiyatlariga ahamiyat berish kerak:
- Bolalar nutqining holati (nevrologik alomatlar bilan murakkablashgan alaliya nutq kamchiligi yoki II-III darajadagi nutqning umumiy rivojlanmaganli, shu bilan bir qatorda yoqori giperaktivlik holati bilish faoliyatidagi o'zgarishlar);
- Bolalardagi ekspressiv nutq holatiga aloqador bo'lmagan bilish jarayonlarini etarli darajada rivojlanmaganligi (eshitish qobiliyati va xotiradagi buzilishlar);

- Kattalar bilan o'zaro aloqa qilish istagining etarli emasligi; ixtiyoriy diqqatning tarqoqligi; harakat faoliyatining pastligi);
- Bolalarning yoshiga nisbatan nomutanosiblik (hissiy bilishning yuqoriligi, fobiya holati, qo'zg'aluvchanlik).

Shuni ta'kidlash kerakki, ertak terapiyasining korreksion vazifalari va alaliya nutq kamchiligiga ega bolalarda nomoyon bo'luvchi shaxs hususiyatlarini inobatga olgan holda ertak terapiyasi uchun tanlangan ertaklar quydagi tamoillar asosida talablar ishlab chiqilib bosqichma-bosqich olib borilishi lozim.

Ertak terapiyasi bilan ishlash tamoyillari:

1. Ertak bilan tanishlik tamoyili.
2. Ertakni qiziqarliligi tamoyili.
3. Ertakni haqiqatga asoslanganligi tamoyili.

Ertak terapiyasiga tanlab olingan ertaklar uchun qo'yiladigan talablar:

- Ertak mazmun jihatida sodda didaktik jihatdan materialarga boyligi;
- Ertakning bolalar uchun yaxshi tanish bo'lishi (masalan, "Bo'g'irsoq", "Sholg'om", "Uch ayiq", "ur toqmoq");
- Ertakning syujeti qiziqarli bo'lishi, bolalarda hissiy reaksiyani uyg'otishi kerak;
- Ertakda butun voqeani emas, balki syujet elementlari asosida aniq bir piktagramni yorqin namoyish etishi mumkin ekanligi;
- Ertak syujetining rang barangligi qahramonlarning aniq obrozga ega ekanligi;
- Ertak senariysi sahnalashtirish uchun yetarli darajada qiziqarli bo'lishi;
- Ertak tilini guruhdagi barcha bolalar uchun tushunarli bo'lgan til vositalarini tanlash;

Korreksion rivojlantiruvchi ertak terapiyasini o'tkazish bosqichlari:

- 1-bosqich. Ertakga "kirish".
- 2-bosqich. Ertakni takrorlash.
- 3-bosqich. Ertakni mazmunini bayon etish.
- 4-bosqich. Ertakni mustahkamlash.
- 5-bosqich. Ertakni o'yin faoliyatga integratsiya qilish.

6-bosqich. Ertakga xulosa yasash.

7-bosqich. Ertakni “yakunlash”.

Ishlab chiqilgan ertak terapiyasi texnologiyasi aniqlovchi tajriba o'tkazilgandan so'ng natijalar qayd etilib shu asosida guruhda yakka va guruhli tartibda tdabiq etila boshladi. Rejadagi ertak terapiyasi usuling barcha bosqichlariketma-ketligida olib borildi har bir bosqichdan so'ng bolalar tomonidan bolalar emotsional holati va ertak terapiyasiga nisbatan uyg'ongan qiziqishlari qayd etib borildi. Ertak terapiyasi asosida 3 turdagi ertakning texnologik shakli (1-jadval) yaratilidi.

1-jadval

№	Ertak nomi	Asosiy terapiya usuli	O'tkazish tartibi	Ertak terapiyasi muddati
1	Bo'girsoq	Qum terapiyasi	Guruhli	3 kun
2	O'rmonchada mukofot	Harakatli ovozi terapiyasi	Guruhli	3 kun
3	Oltin tuxum	Piktagramma terapiyasi	Yakka	2 kun

Ishlab chiqilgan ertak terapiyasi texnologiyasi 4-ilovada aks etirilgan

2 Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar eksperimental guruhida ertak terepiyasi natijalar

Ertak terapiyasi texnologiyasi bolalar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilindi 8 kun davomida olib borilgan ertak terapiyasi doirasidagi mashg'ulotlarni har bir kun davomidagi mashg'ulotlarda 20 (100%) nafar bola to'liq qatnashdilar. Ertak terapiyasi yakunlangan so'ng bolalar bilan qayta tekshirish metodikasi olib borildi va olingan natijalar izohli solishtirma diagramma va jadval tarizda qaydi etildi.

Nutqni tushinishini tekshirish bo'yicha takidlovchi eksperement va ertak terapiyasi texnologiyasidan so'ng aniqlovchi eksperement natijalarining solishtirma ko'rsatkichlari (5-jadval).

№	Nutqni tushinishi tekshirish topshiriq turi	Takidlovchi eksperiment natijasi				Ta'limiy eksperiment natijasi			
		4 ball	3 ball	2ball	1 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1	Ertak qahramonlarini toping	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	7 nafar (35%)	3 nafar (20%)	7 nafar (35%)	9 nafar (45%)	4 nafar (20)	-
2	Harakat holatini bajarib ko'rsatish	5 nafar (25%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	2 nafar (10%)	8 nafar (40%)	8 nafar (40%)	4 nafar (20%)	-
3	Grammatik tuslanganlikni farqlash	4 nafar (20%)	5 nafar (25%)	7 nafar (30%)	5 nafar (25%)	8 nafar (40%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)	1nafar (5%)
4	Kim e'tiborli o'yini	2 nafar (10%)	8 nafar (40%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	9 nafar (45%)	3 nafar (15%)	2nafar (20%)
5	O'yinchoqlarni joylashtir	3 nafar (15%)	5 nafar (25%)	7 nafar (35%)	5 nafar (25%)	7 nafar (35%)	9 nafar (45%)	4 nafar (20%)	-
6	Jihozlarni taqqosla	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)	9 nafar (45%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	-

Lug'at boyligini tekshirish bo'yicha takidlovchi eksperiment va ertak terapiyasi texnologiyasidan so'ng aniqlovchi eksperiment natijalarining solishtirma ko'rsatkichlari (6-jadval)

Mayda qo'l va umumiy motor harakatlarni tekshirish bo'yicha takidlovchi eksperiment va ertak terapiyasi texnologiyasidan so'ng aniqlovchi eksperiment natijalarining solishtirma ko'rsatkichlari (7-8 jadval)


6-jadval

№	Lug'at boyligini tekshirish topshiriq turi	Takidlovchi eksperiment natijasi				Ta'limiy eksperiment natijasi			
		4 ball	3 ball	2 ball	1 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1	Ish qurollari vazifasi	3 nafar (15%)	6 nafar (30%)	9 nafar (45%)	2 nafar (10%)	7 nafar (35%)	9 nafar (45%)	3 nafar (15%)	-
2	Qaysi hayvon qanday harakatlanadi	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)	10 nafar (50%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)	-
3	Harakatli fe'llar antonimi toping	5 nafar (25%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)	-
4	Predmetlarni umumlashtiring	2 nafar (10%)	7 nafar (35%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	10 nafar (50%)	3 nafar (15%)	1 nafar (5%)
5	Pontamimik holatni nomla	3 nafar (15%)	8 nafar (40%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	8 nafar (40%)	4 nafar (20%)	1 nafar (5%)
6	Sevimli 6 ta ertak qahramonlariga taqlid	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	5 nafar (25%)	2 nafar (10%)	10 nafar (50%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)	-


№	Mayda qo'l motorikasini topshiriqlari	Takidlovchi eksperiment natijasi				Ta'limiy eksperiment natijasi			
		4 ball	3 ball	2ball	1	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1	Echkicha hosil qilish	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	3 nafar (15%)	13 nafar (65%)	6 nafar (30%)	1 nafar (5%)	-
2	Ko'zoynak hosil qilish	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	2 nafar (10%)	10 nafar (50%)	8 nafar (40%)	2 nafar (10%)	-
3	Panjara hosil qilish	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)	9 nafar (45%)	8 nafar (40%)	3 nafar (15%)	-
4	Qanot hosil qilish	nafar (15%)	5 nafar (25%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)	8 nafar (40%)	8 nafar (40%)	3 nafar (15%)	1nafar (5%)
5	Halqa hosil qilish	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)	10 nafar (50%)	8 nafar (40%)	2 nafar (10%)	-
6	Plastilinni barmoqlar bilan yumalatish	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)	9 nafar (45%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	-
7	Munchoqlarni ipga terish	2 nafar (10%)	5 nafar (25%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)	7 nafar (35%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	2nafar (10%)
8	Tugmalarni qadash	3 nafar (15%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	8 nafar (35%)	4 nafar (20%)	1nafar (10%)

№	Umumiy mator rivojlanish topshiriqlari	Takidlovchi eksperiment natijasi				Ta'limiy eksperiment natijasi			
		4 ball	3 ball	2ball	1 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1	Kaptokni sherigiga otish va qayta ilib olish	3 nafar (15%)	8 nafar (40%)	5 nafar (25%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	9 nafar (45%)	4 nafar (20)	-
2	Orqa tarafga o'girilib 10 qadam yurish	3 nafar (15%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	5 nafar (25%)	5 nafar (25%)	3nafar (15%)
3	Shartli belgilardan hosil qilingan ilon izida oyoq uchida yurish	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)	9 nafar (45%)	8 nafar (40%)	3 nafar (15%)	-
4	2 metr masofadan kaptokni (4 marta) savatga tushurish	2 nafar (10%)	5 nafar (25%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	4 nafar (20%)	3nafar (15%)
5	Qo'llarni oldinga cho'zib tovonda doira hosil qilib yurish	4 nafar (20%)	6 nafar (30%)	7 nafar (35%)	3 nafar (15%)	8 nafar (40%)	9 nafar (45%)	3 nafar (15%)	-
6	Joyda turgan holda 1 oyoqda sakrash (10 marta)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	8 nafar (40%)	4 nafar (20%)	1nafar (5%)
7	Kapalak tutish mashqni bajarish	3 nafar (15%)	7 nafar (35%)	6 nafar (30%)	4 nafar (20%)	7 nafar (35%)	8 nafar (40%)	3 nafar (15%)	2nafar (10%)
8	Yurish yugurish sakrashda signal bo'yicha to'xtash 1 aylana bo'ylab	2 nafar (10%)	4 nafar (20%)	8 nafar (40%)	6 nafar (30%)	6 nafar (30%)	8 nafar (40%)	4 nafar (20%)	2nafar (10%)

Takidlovchi eksperimentda olingan natijalar soni



Ta'limiy eksperimentda qayd etilgan natijalar soni



Yuqorida keltirilgan takidlovchi va ta'limiy eksperiment solishtirma natijalarini (5-6-7-8) jadval bo'yicha har bir tekshirish metodikasi topshiriqlari yuzasidan 4 ballik tizimda taqsimlab berildi. Jadvalning yig'ma ballari hisoblanib 5-diagrammada umumiy solishtirma natijalar qayd etildi. Unga ko'ra ertak terapiyasi texnologiyasi o'tkazishidan oldingi qayd etilgan ballar soni va ertak terapiyasi texnologiyasidan keying ya'ni aniqlovchi eksperimentdan so'ng qayd etilgan ballar foizi 4 ball kesimida tahlil qilindi. Natijada:

4 ball eng yoqori ya'ni barcha topshiriqlarni tog'ri bajarilganligi bilan belgilanib takidlovchi eksperimentda 17% (98 marta) tashkil etdi. Aniqlovchi eksperiment natijalariga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 23% (120 marta) ga oshib, 40% (222 marta) ni o'sdi;

3 ball topshiriqlarni 70% ya'ni berilgan vazifalarni bajarishda bir nechta hatolarga yo'l qo'yilganligi holati takidlovchi eksperimentda 31% (177 marta) tashkil etgan bo'lsa, aniqlovchi eksperiment natijalarida 8% (43 martaga) oshdi va 39% (220 marta)ga yetdi;

2 ball toshiriqlarni qoniqarli darajada ya'ni 50% va undan kam ko'rsatkichda bajarganlik holati takidlovchi eksperimentda 33% (189 marta) qayd etilgan bo'lsa, aniqlovchi eksperimentda 16% (93 marta) ga kamaydi;

1 ball olgan bolalar topshiriqlarni umuman bajara olmadilar ularning aksariyat qismi topshiriqlarni 10% bajardilar ushbu holat qoniqarsiz deb baholandi. Takidlovchi eksperiment natijalariga ko'ra ushbu holat 19% (104 marta) qayd etildi. Aniqlovchi eksperimentda 15% (84 marta)ga sezilarli darajada kamayib 4% (20 marta)ni tashkil etildi.

3 Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishida o'zbek xalq ertaklarining o'rni.

O'zbek folklorining barcha janrlarida milliy qadiryatlar o'zbek ananalari o'zbek millatining tarixi millatimizga hos urf-odatlar tarbiyaviy estetik jihatlar aks etgan bo'lib, ya'ni miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, tarixiy qo'shiqlar, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, marosim folklori va bolalar folklorining barcha janrlari, xilma-xil qo'shiqlar, og'zaki drama, askiya va boshqalar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadirlar. Shu jumladan ertaklarimizda ham tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk, yuqori axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan jihatlar ertaklarimizda o'z aksini topgan. Ertaklarida halollik, to'g'rilik, yaxshilik, botirlik, sahiylik, go'zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak fazilat sifatida ulug'lanib keladi. Va aksincha, tekinxo'rlik, egrilik, yomonlik, qo'rqqoqlik, baxillik, xunuklik, manmanlik singari salbiy xususiyatlar azal-azaldan qoralanadi. "Farhod va Shirin", "Uch o'g'il", "Aql va oltin" ertaklarida ilm-hunar ulug'lansa, "Etti ahmoq" "Kuygan chol", "Bilmasvoy", "Tulki va turna" kabi ertaklarida savodsizlik, ahmoqlik, fahmsizlik kabi illatlar tanqid qilinib kulgi ostiga olingan. Shu sababli ham qadimdan insoniylik yosh avlodni go'zal ahloqli qilib tarbiyalashda asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirib kelmoqda.

Bolalarga go'daklik chog'idanoq ertaklar asosida ijobiy fazilatlar singdirib kelinadi va bu ananana keyichalik ham Maktabgacha ta'lim muassasalarida davom ettirib kelmoqda. Shuni aytib o'tish kerakki milliy ertaklar nafaqat ta'limiy tarbiyaviy balki korreksion rivojlantiruvchi vazifalarni ham bajaradi. Xalq og'zaki ijodi maxsuli bo'lmish ertaklarda mehnatning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi qayd etiladi. Mehnat bola tarbiyasida asosiy vosita deb qaraladi. O'zbek xalq ertaklari: hayot haqiqatiga asoslangan, hayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo'g'rilgan, bolalarga ibrat, o'git beruvchi og'zaki hikoyalardir. Ertaklar "varsaqi", "cho'pchak", "ushuk", "masala" ham deyiladi. Mazmunan uch hilbo'ladi.

Hayvonlar haqida hamda ma'joziy ertaklar: “Susanbil”, “O'rmonchada mukofot”

Sehrli fantastik ertaklar: “Gulhaqiqat”, “Xusniyabonu”, “Guljamol”
Hayotiy-maishiy ertaklar: “Malikam Xusniobod”, “Oltin baliq” kabi ertaklar kiradi.

Milliy ertaklar asosida bolalar nutqini shu bilan bir qatorda nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini ham rivojlantirish mumkin. Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda turli hil tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ertaklardan terapevtik usul ishlab chiqish mumkin. O'tkazilgan ta'lim eksperiment asosida na'munaviy mashg'ulot rejasini tavsiya etamiz ushbu mashg'ulot 4-ilovada aks etkan.

4. Ertak terapiyasi orqali alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar.

Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutq komponentlarni qay darajada rivojlanganligini ulardagi mayda motor va umumiy motor rivojlanganlik holatini kuzatish va ushbu kuzatuvlar asosida eksperiment tekshirish metodikasini o'tkazish qayd etilgan natijarga binoan ta'limiy eksperiment ertak terapiyasi texnologiyasini o'tkazish ta'limiy eksperimentdan so'ng aniqlovchi eksperiment natijalari va takidlovchi eksperiment natijalarini solishtirma tahlil qilib ertak terapiyasi yordamida bolalardagi ijobiy natijalarni qayd etish orqali ertak terapiyasini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Olib borilgan tadqiqot ishi natijasida shu ma'lum bo'ldiki, mazkur terapevtik usul alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning nafaqat nutqi balki bilish jarayonlari, motor rivojlanishi, hissiy irodaviy doirasi, bolalardagi xulq-atvor ko'nikmalarining samarali rivojlanishiga imkon beradi.

Ertak terapiyasi bolalarda uchrovchi ko'plab muammolarni hal qilish uchun imkon yaratib beradi. Hususan alalik bolalardagi nutq malakalarni shakllantirish, o'z o'ziga bolgan ishonch hisini uyg'tish, bolalardagi giperaktivlik holatini, o'z nutqidan uyalish holatini, yaxshi yomon tushunchalarni, shuningdek, turli xil

psixosomatik kasalliklar va xulq-atvor muammolari yumshatishga va ularni asta sekinlik bilan bartaraf etishda foydalanish mumkin. Tadqiqot ishi asosida ertak terapiyasi texnologiyasini ishlab chiqish va ushbu ertakning terapevtik tasirchanligini oshirish maqsadida ertak terapiyasining quydagi usullarni tavsiya etishimiz mumkin:

- Xalq og'zaki ijodidagi mashxur ertakdan foydalanish va ushbu ertakning emotsional bo'yoqdorligini yanada oshirish

- Ertak elementlarni boyitish ertak qahramonlari nutq ta'sirchanligini oshirish turli drammatik teatrlashtirish uslublarnidan foydalanish;

- Bolalarning nutqi rivojlanganlik holatidan kelib chiqib ertak to'qish va ushbu ertakni sahnalashtirish;

Biz ertak terapiyasi usulini ishlab chiqish uchun 3 turdagi ertak turlarini tavsiya etamiz:

- Badiiy ertaklar tarbiyaviy jihatidan muhim ahamiya kasb etadi.ularning barchasi yaxshilikga o'rgatadi.Ularda yaxshi obrozlar ham yomon obrazlar ham mavjud.Ertak terapiyasi usulida ushbu ertaklarni yanada rang barang qilib foydalanish bolalardagi nutqiy malakani shaklanitish bilan bir qatorda odob-ahloq qoidalarini ham o'rgatib boradi.ushbu ertak terapiyasi usuli musiqa terapiyasi bilan birga tashkil etish bolalarda ertak mazmumuni chuquroq anglash ertak jarayonida ertak voqealarni tasavvur qilish holati kuzatiladi;

- Didaktik ertaklar ertak terapiyasi ishlab chiqish uchun qo'l keluvchi ertaklardan biri bo'lib ertaklardagi rang-barangliligi ulardagi o'yin jarayonida ertak qahramonlarning sarguzashtlari ertak qahramonlarning dialoglari bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va hu sababli didaktik ertaklar ichida piktagramma terapevtik usulidan foydalanishtavsiya etiladi;

- Psixokorreksion ertaklar bolalarda o'z nutqidan uyalish tengdoshlari bilan muloqatga kirishdagi tortinchoqlik bola bilish jarayonidagi nutq funksiyalarni yanada rivojlanishga o'z hissani qo'shadi va ushbu turdagi ertaklarni qum terapiyasi usuli bilan birgalikga foydalanish alalik bolalardagi giperaktiv holati mayda motor harakatlarni yanda rivojlanishga hissa qo'shadi.

Ertak terapiyasi uchun yuqorida berilgan ertak turidan biri va ushbu ertak ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida qo'shimcha terapevtik usul tanlab olinganda so'ng ertak terapiyasini o'tkazish ketma-ketligini tavsiya etamiz quydagicha o'tkazish usullarini tavsiya etamiz:

- Ertak hissiy bo'yoqdorlik bilan hikoya qilib berish;
- Ertak (rasmini qumda qog'ozda yoki havoda barmoqlar orqali chizish);
- Ertakni mutahassis bilan birgalikda tahlil qilish;
- Ertakda uchragan yangi so'zlarni ko'rgazmali usulda bolalarga tushuntirish va takrorlash;
- Ertak qahramonlarni mulyaji yoki rasmlaridan foydalanib obrozlarni ifodalash;
- Ertak sahnasini ishlab chiqish (bolalar bilan yoki taqdimot ko'rinishida);
- Ertak yuzasidan savollar ishlab chiqish;

"Ertakni hikoya qilish va davom etirish" usul.

Har qanday hikoya o'z navbatida terapevtik ijtimoiy tarbiyaviy ahamiyatga ega usul hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishida ertak hikoyasi usuli obrozlarga bo'linib har bir qahramon ovoziga taqlid bilan o'qilsa bolalar monogik nutqga bo'lgan qiziqish uyg'o'nadi. O'z navbatida ertakni o'qib bergandan ko'ra so'zlab bergan yaxshiroq sababi ertakni so'zlab berish davomida ertak o'qayotgan mutahassis diqqati bolalarga qaratilgan bo'ladi va har bir bola nutqi nazorat ostiga olinadi. Mutahassis tomonidan yakunlanmagan ertakdan foydalanish, mustaqil ravishda ertak davomini ixtiro qilish ham bolalardagi fikrlash tasavvur va shu bilan bir qator nutq malakalarining shakllanishiga hissa qo'shadi;

"Ertak rasmini chizish" usuli

Ertak hikoya qilib berilgandan so'ng bolalardagi ertakga bo'lgan qiziqish oshadi va ushbu jarayonda ertak qahramonlarni qog'ozda yorqin yordamida, ertak manzarasini qum shishasi ustida ta'svirlash, ertak qahramonlari holatini esa havoda mayda barmoqlar orqali chizish terapevtik ish samaradorligini yanada oshiradi. Bolalarni his hayajon o'z nutqiga bo'lgan qiziqishni yanada ortishiga hissa

qo'shadi. Tasvirlangan ertak syuetining qanday chiqish sifati muhim emas. Bolalarda aks etirgan kuchli-his hayajon bolalar eshitgan qahramonlarni tasvirlash jarayonidagi yirtqich hayvonlar salbiy obrazlarni tasvirlash uchun foydalanilgan ranglarga ijobiy obrazlar uchun foydalanilgan ranglarga ahamiyat qaratishi kerak;

“Ertakni mutahassis bilan birgalikda tahlil qilish” usuli;

Ertakni tahlil qilishda bolalar tomonidan har bir ishlangan rasm, qum tasvirlariga izoh berib o'tiladi. Sababi har bir bola o'z qo'li bilan yaratilgan ertak tasvirni rag'batlantirishni hohlaydi. Ertakni bolalar ifodalagan syujetlarda tahlil qilish orqali bolalarni ertakni qanchalik tushunganligini, ertakdagi syujetni tasavvur eta olganligi kuzatiladi. Ertak tahlili jarayonida bolalar orasida solishtirma tahlil qilish maqsadga muvofiq ushbu holatda bolalar ular tasvirlagan qahramonlar qiyofalarni ko'rishdi va mutahassis va bolalar tomonidan har bir bola qahromonida ajralib turgan sifatlarni aytib o'tilganda bolalar lug'at boyligida so'zlar mustahkamlanadi va tallafuz malakasi osha boshlaydi.

“Ertakdagi yangi so'zlarni ko'rgazmali usulda” o'rganish.

Ertakdagi yangi so'zlarni ko'rgazmali usulda o'rgatish bolalarda ertak obrazni yanda yaxshiroq esda qolishi uchun hizmat qiladi. Ertak ichidagi yangi so'zlar va usbu so'zlarni rasmlar bilan assotsativ bog'lab o'rgatish bolaning ichki faol lug'ati boyishiga hizmat qiladi so'zlarni takrorlash holati uch bosqichda amalga oshiriladi:

1 So'z + Rasm

2 So'z + Rasm + Tallafuz

3 Rasm + Tallafuz yangi so'zlar usbu formula bo'yicha mustahkamlanib borilsa bolalar usbu so'zlardan foydalanishda qiyinchilikga uchramaydilar.

“Ertak qahramonlarni mulyaji yoki rasmlaridan foydalanib obrazlarni ifodalash” usuli

Ertak qahromonlari mulyaj yoki yumshoq o'yichoqlardan foydalanib obrazlarni bolalar ishtirokida bo'lib olib ifodalash, bolalarda dialogik nutqqa bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Bolalarda roli syujetli ertak o'yinida faol nutqi

rivojlanadi. Ko'rgazmali rasmlar orqali o'rganilgan yangi so'zlar qayta mustahkamlanadi. Ertakni bolalar yordamida ifodalashda bolalarda nutq komponentlarni rivojlanishi bilan birga ularda motor harakatlar izchiligi ham rivojlanib boradi.

“Ertak sahnasini ishlab chiqish” usuli

Ertak sahnasini ishlab chiqishda bolaar bilan yoki taqdimot ko'rinishda tashkil etish bolalrda ertakni boshidan oxirgacha tasavvur qilishi va mazmunini esda saqlab qolishiga yordam beradi. Ushbu jarayonda bolalar va mutahassis ertakning tugash qismiga yangliklar kiritish mumkin ertakni davomini ixtiro qilish har bir bola o'z fikrlarini rasmlar orqali yoki tovushlar orqali ifoda etishi mumkin.

“Ertak yuzasidan savollar ishlab chiqish” usuli

Ertak yuzasidan savollar ishlab chiqilganda ertak yana bir marta mustahkamlandi. Bolalar savolarga rasmlar orqali javob berishi mumkin shu bilan bir qatorda savol-javob usuli orqali bolalar ertakni qanchalik o'zlashtirganligini ham kuzatish mumkin.

Biz ertak terapiyasi samaradorligini yanada oshirishi maqsadida qo'shimcha terapevtik usular bilan birgalikda ertak terapiyasini olib borishni tavsiya etamiz:

- O'yin terapiyasi;
- Qumli terapiya;
- Piktagramma terapiyasi;
- Musiqa (ovoz) terapiyasi;

O'yin terapiyasi

Bolalarning asosiy faoliyatini o'yinlar tashkil etkanligi tufayli o'yin terapiyasi ertaklarda foydalanish bolalarda motor harakatlar rivojlanishi natijasida nutq birliklari lug'at boyligi va bolalarda diologik nutqga bo'lgan qiziqish ortadi. Shu bilan bir qatorda didaktik o'yinlarda ertak ichida foydalanish sahnalashtirilgan ertakga alalik bolalar nutqidagi yaqqol namoyon bo'luvchi kamchiliklarni bartaraf etish bilish jarayonlarini rivojlanitirish maqsadida didaktik shartli o'yinlardan ertak davomini so'zlab berish uchun bosqichma-bosqich turli hil shartli o'yinlardan

foydalanish bolalarda nafaqat nutq-harakat balki taffakur idrok kabi bilish jarayonlarni ham faol rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Qum terapiyasi

Ertak terapiyasi nin tashkil etishda qum terapiyasidan foydalanish ertakni yanada qiziqarli va tashkil etishga hizmat qiladi.Qum terapiyasi psixoterapevtik usul sifatida hulq-atvor buzilishlarni korreksiya qilish giperaktiv bolalar faoligini muvozanatlashtirish,mayda motorik harakatlar faoligini oshirishga o'z navabatidag eng qiziq usullaridan biri bu ajoyib qum terapiyasi. Ertaklardagi qum terapiyasi usuli ertak terapiyasining variantlaridan biri sifatida shaxsning psixologik rivojlanishini ham,xulq-atvordagi buzilishlarni bartaraf etishda samarali usullardan biri bo'lib hizmat qiladi.Qum terapiyasi va ertak terapiyasi birga qo'llanilganda alalik bolalar nutqini faollashtirish,bolalarda nutqiy harakatlarni rivojlantirish,qum ustida tasvir hosil qilish,qum ichida ertak qahramonlarini topish bolalarda mantiqiy taffakur bilish jarayonlarni bilan birgalikda nutqni rivojlantirishga hizmat qiladi.

Piktagramma terapiyasi

Piktagramma ya'ni kartochkali rasmlardan tashkil topgan terapevtik usul bo'lib ushbu usul ertak terapiyasi ichida olib borilsa,alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun qiziqarli didaktik ertak yaratiladi.Piktagramma terapiyasining syujetli rasmlardan farqi bunda bolalarga ertak nomi aytiladi va bolalarga ushbu ertakga mos kartochkaninomoyish qilishi so'raladi piktagramma terapiyasida bolalar diqqat tasavvur kabi bilish jarayonlari rivojlanadi piktagrammadagi rang-baranglik ertak taqdimoti ichida so'zlar yoki ertak qahramonlari o'rniga ularning rasmi joylashtiriladi va bolalardan ertak hikoyasi davomida rasmlar nomi so'raladi va ertak davom etadi.piktagramma terapiyasi bolalar lug'at boyligini oshirishda samarali usul hisoblanadi.

Musiqqa terapiyasi

Musiqqa terapiyasi o'z navabatida keng qo'llanilib keluvchi usul bo'lib maktabgacha yoshdagi bolalar shu jumladan alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar muassalarida ham logopritmik,musiqqa mashg'ulotlarida keng qo'llaniladi,o'z navbatida alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi

rivojlanishida ovoz sozlash nafas mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa terapiyasini asosida ertak terapiyasi sahnalashtirish bolalarda ertaklarga bo'lgan qiziqishini ortishi bilan birga ularda ertak qahramonlari va ertaklarda uchrovchi ba'zi bir murakkab so'zlarni kuylab talaffuz qilish, fonematik idrok rivojlanishi, ertak qahramonlari obrazini yaratish, qahramonlar ovoziga musiqali taqlid qilish bolalar ovozva monologik nutqini rivojlantiradi, o'z navbatida alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishida ovoz sozlash nafas mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatt mutahassilar tomonidan olib borilgan logopedik ish samdorligini oshirishda bolalar ota-ona ko'magini his qilsa, bolada o'z nutqiga bo'lgan qiziqish va intilishni yandada oshadi. Buning uchun ota-onalari bilan uy sharoitida mashg'ulotlarni mustahkamlab tez-tez takrorlab borishi muhimdir. Shu maqsadda, biz ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash tizimini tashkil etishda ular uchun metodik tavsiyalar to'plamini tayyorladik. Binobarin, ota-ona maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan alalik bolalar nutqini rivojlantirishda qanday metodlar va texnologiyalar olib borilayotgani haqida xabardor bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalar majlislari va maslahatlar tashkil qilinadigan mashg'ulotlarga ota-onalarni taklif qilish kerak degan g'oyani tavsiya etmoqchimiz.

Shuningdek, quyidagicha mavzular bo'yicha materiallar to'plab, ularni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin:

“Bolalar bilan tomosha qiling” (ertakli predmet rasmlari kitoblari tavsiya etiladi).

“Javobini toping” (Topishmoqlar beriladi.)

“Bolalar bilan yodlang” (Kichik-kichik ertak ichidagi maqollar she'rlari beriladi)

“Bolalar bilan o'ynang” (so'z o'yinlari tavsiya etiladi.)

“Bolalar bilan ko'ring va eshiting” (saxnalashtirilgan ertaklar va audio radio ertaklar dasturi tavsiya etiladi).

Bundan tashqari, ota-onalar burchagi tashkil qilish, unda “ertaklar olamiga sayohat” sarlavhasi ostida mashg’ulotlar va mashg’ulotlardan tashqari vaqtlarda bolalar tomonidan o‘zlashtirilayotgan materiallar, lug‘at boyligi, nutqni rivojlantiruvchi she’rlar, jismoniy daqiqalar matni, topishmoqlar hamda kichkintoylarga olib berish mumkin bo‘lgan bolalar adabiyoti ro‘yxati shakllantirish ham alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutq nuqsonlarini bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Ishlab chiqilgan ertak terapiyasi doirasidagi metodik tavsiyalardan soha mutahassislar ota-onalar logopediya sohida ta’lim oluvchi talabar uchun foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur bobda maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ta'limiy eksperiment ertak terapiyasi texnologiyasi ishlab chiqildi va bolalar mashg'ulot jarayonida muntazam ketma ketlikda o'tkazib borildi. O'tkazilgan ertak terapiyasi o'z ichiga 3 turdagi jahon va o'zbek ertaklarini qamrab olindi, har bir bir ertak asosini 3 turdagi terapevtik usul tashkil etdi. Ertak ichida foydalanilgan terapevtik usullar Qum terapiyasi, Piktagramma rasm terapiyasi ovoqli terapiya usullari bolalar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Olib borilgan terapevtik usullar bolalarda og'zaki nutq, nutqni tushunish, lug'at boyligi, hissiy irodaviy doirasida ijobiy o'zgarishlar, mayda qo'l va umumiy motor harakatchanlik faoligi oshishi uchun xizmat qiladi. Ertak terapiyasi o'yin shaklida olib borilganligi tufayli o'yin muhitida bolalar o'zlarini erkin tutishi, jismoniy, nutqiy kamchiliklaridan uyalmaslik, berilgan topshiriqlarni tortinmasdan erkin holda bajarish holatlari kuzatildi. Shu bilan birga ertak terapiyasida keltirilgan qizqirli rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishda bir qator qiyinchiliklar ham kuzatildi. Vazifalarni bajarishda bir diqqat turidan ikkinchi diqqat turiga o'tishda berilgan topshiriqlarni eslab qolishda biroz qiyinchiliklar kuzatildi. Bolalarda rang barang ertakga doir rasmlar, jihozlar, shakllar, so'z mantiqiy tafakkurlarga qaratilgan vazifalarni mustaqil bajarishda qiyinchiliklar kuzatildi. Ta'limiy eksperimentdan so'ng o'tkazilgan natijalarga qaraganda bolalarda topshiriqlar yuzasidan ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Hususan eng yuqori 4 ball qayd etilishi holati 23% ga 3 ball qayt etilishi holati 8% oshdi. 2 ball qayd etilish holati 16% ga, 1 ball qayd etilish holati esa 15% ga kamaydi bundan ko'rinib turibdiki, olib borilgan ta'limiy eksperiment ma'lum bir jihatdan o'z samarasini ko'rsata oldi va biz ushbu ertak terapiyasi usuli yuzasidan mutahassis logopedlarga ertaklarni tanlab olishning ahamiyati va ishlab chiqish texnologiyasi yuzasidan metodik yordam, ota-onalarga farzandlari bilan ertak terapiyasi o'tkazish uchun tavsiyalar berildi.

Umumiy xulosa

Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalar orasida nutqning umumiy buzilishlaridan biri bu nutqning umumiy rivojlanishidagi kamchiliklar kuzatilib kelinmoqda. Tadqiqotimiz jarayonida sistemali nutq buzilishiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi alalik bolalarning motor sohasini va lug'at boyligi nutqni tushunish holati muntazam ravishda o'rganish shuni ko'rsatadiki, alalik bolalar lug'at boyligining bola yoshiga nisbatan sezilarli darajada kamligi, sodda tuzilgan so'zlarni narsalar nomini bo'ginlar orqali talaffuz qilish holati kuzatildi, bolalar nutqni tushinishdagi yaqqol namoyon bo'luvchi holat keshik qo'shimchalar ma'nosini tushunmaslik va kelishlardan faol nutqida foydalana olmaslik holati kuzatildi. Ularning ko'pchiligida harakat nomukammalligi barcha harakatchanlik tarkibiy qismlarida yuz, artikulyar, shuningdek qo'llar va barmoqlarning mayda matorikasida yaqqol nomoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalarning umumiy motor sohasi noqulay, cheklangan harakatlar bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari shuni ma'lum qildiki alalik bolalarda psixomotor va sezgi funksiyalarining holati yosh normasidan ancha pastligi bolalarda bilish jarayonlari rivojlanishidagi og'ishishlar diqqat va xotira, ko'ruv va eshituv idrok buzilishlari kuzatildi.

Muommo bo'yicha adabiyotlarni taxlil qilishda bizga ma'lum bo'ldiki, motor alalik bolalar nutqi va mayda qo'l motorika xarakatchanligini bilan uzviy bog'liq ekanligi, o'zbekistonda bolalar og'zaki nutqi va motor holatlarini folklor janrida rivojlantirish usulalri yetarli darajada o'rganilmaganligini aniqlandi. Magisitrlik desertatsimizning ikkinchi bobida alalik bolalarda nutq komponentlaridagi sistemali buzilish mayda qo'l motorika va umumiy motorika xarakatchanligining sustligi, bir vazifa turidan keying vazifani bajarishga o'tishdagi qiyinchiliklar, fazoda mo'ljal olishning yaxshi rivojlanmaganligi kuzalildi, Bundan tashqari alalik bolalarning bilish jarayonlarini tekshirishda ularing bir diqqat turidan ikkinchi diqqat turiga o'tishda, berilgan topshiriqlarni eslab qolishda qiyinchiliklar kuzatildi. Bolalarda rang, shakl, mantiqiy tafakkur, so'z mantiqiy tulukkurlarga quratilgan vazifalari mustaqil bajarishda qiyinchiliklar

kuzatildi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolada ko'rsatiladigan motorli faoliyatga bo'lgan ehtiyoj o'zaro bola nutq rivojlanishi bilan bog'liq deb topildi. Tadqiqot ishimizning 3 bobida Maktabgacha yoshdagi alalik bolalar og'zaki nutqi, nutqni tushinish qobiliyati so'z boyligini oshirish maqsadida ertaklardan logopedik korreksion mashg'ulotlarda foydalanish texnologiyasi ishlab chiqildi. Tizimli olib borilgan ertak terapiyasi mashg'ulotlarida mobaynida bolalar jami 100 ga yaqin so'zni o'zlashtirish ko'zda tutish mumkin degan qarashni ilgari surishimiz mumkin. Bu so'zlar amaliy zaruriyat, nutqda takrorlanish, ehtiyoj, qiziqish va muloqot mavzulariga mos ravishda tanlanishi uchun ertak mazmuniga ahamiyat berish kerak.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mutahassis tomonidan turli hil nutq nuqsonlarini bartaraf etishga qaratilgan ertaklarni yozish ertaklar syujetini qumda tasvirlash, qog'irchoq terapiyasi yordamida ertak qag'ramonlarini gavidalantirish ish samaradorligin yanada oshiradi. Ertak terapiyasi berilgan metodik tavsiyalar asosida tashkil etilsa logopedic koreksion mashg'ulotlar jarayonida **ertak terapiyasi yordamida quyidagi maqsadlarga erishish mumkin:**

- Ertak terapiyasi bolalar nutq komponentlarini rivojlantiradi;
- Ertak terapiyasi bolalar mayda va umumiy motor holati rivojlanishini faollashtiradi;
- Ertak terapiyasi bolalar bilish jarayonlarni rivojlantirish vositasidir nutq komponentlarini rivojlantiradi;

Mazkur tadqiqot ishidan alaliya nutq kamchiligiga ega bolgan bolalar nutqini rivojlantirish usullaridan biri sifatida qo'llanilishi kelajakda ertak terapiyasi usuli keng targ'ib etishga hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Davlat Qonunlari va dasturlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,1992
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»– T.:Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – T.:Sharq nashriyot– matbaa konserni, 2016

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning asarlari

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O'zbekiston”, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.– T., 2017
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning PF-5270: “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish” bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi.-T.,2017

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning asarlari

7. Логопедия /Под ред. Л.С. Волковой. С.Н. Шаховской. - М., 2003.
8. Беккер К.П., Совак М. Логопедия-М.,1981.
9. Волкова Л.С.Селеверстов В.И. Хрестоматия по Логопедии 1 том-Учебное пособие.-Москва., ВЛАДОС.:1997.
10. Хватцев М.Е Логопедия-М.,1959.
- 11.Мастюкова Е.М. Ребенок с отклонениями в развитии-М.,1992.
- 12.Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. - М.: Просвещение, 1995.
13. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации.-М.,1982-58с

14. Вартаян И.А.: Физиология сенсорных систем- Учебное пособие.- Москва.,1999.
15. Левина., Основы теории и практики логопедии.:под ред -М 1968.
16. Правдина О.В.: Логопедия.-М.,1973
17. Ю.Васильева С.А., Соколова Н.В. Логопедические игры для дошкольников. - М.: Школа-Пресс, 1999.
18. Волкова Л.С. Логопедия. М., Владос, 2003.
19. Жукова Н.С.,Мастюкова Е. М.,Филичева Т.Б.Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников.Е.: Изд-во, 1998.
- 20.Лопухина И.С. Логопедия. — М.: Аквариум, 1995.
21. Новиковская О.А. Логоритмика для дошкольников в играх и упражнениях. — М.: 2005.
- 22.Филичева Т.Е. Чиркина Г.В. Подготовка к школе детей с общим недоразвитием речи в условиях специального детского сада Филичева Т.Е, Г.В.Чиркина. — М.: 1994.
23. Филичева Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. — М.: 2000.
24. Филичёва Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста / Практическое пособие. — М.: 2004.
25. Специальная педагогика. Под.ред. Н.М. Назаровой.-М.:Akademiya, 2004.
26. Соботович Е.Ф. Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции. - М.: 2003.
27. В.И. Селиверстов. Игры в логопедической работе с детьми. М.-1981
28. ТумановаТ.В. Особенности словообразования у дошкольников с общим недоразвитием речи. М: 2002.
29. Худенко Е.Д. Как научить ребенка думать и говорить. - М.: 1993.
30. Шишкина Г.Р., Зернова Л.П., Зимина И.А. Логопедическая работа с дошкольниками. - М: 2001.
31. Е.Л. Волшебный мир звуков и слов. - МЛ: Владос, 2003.

32. Собонович Е.Ф. Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции. - М.: 2003.
33. В.И. Селиверстов. Игры в логопедической работе с детьми. М.-1981.
34. Ткаченко Т.А. Если дошкольник плохо говорит. - СПб.: 1997.
35. Туманова Т.В. Особенности словообразования у дошкольников с общим недоразвитием речи. М: 2002.
36. Зинкевич-Евстигнеева Т.Д. Практикум по сказкотерапии.-СПб.,2000.
37. Зинкевич-Евстигнеева, Т.Д. Путь к волшебству. Теория и практика Сказкотерапии.- СПб.: Златоуст, 1998.
38. Защиринская О.В., Сказка в гостях у психологии. Психологические техники: сказкотерапия [Текст] / О.В. Защиринская - М.: Гуманит. изд. ВЛАДОС, 2003.
39. Соколов Д.Ю. Сказки и сказкотерапия.: Эксмо-пресс, 2001; 2005.
40. Кудзилов Д.Б., Зинкевич-Евстигнеева Т. Д., Психодиагностика через рисунок в сказкотерапии.-СПб.: Речь, 2003.
41. Фесюкова Л.Б. Воспитание сказкой [Текст]Л.Б. Фесюкова - Харьков, 1996 год.
42. Чех Е.В. Я сегодня злюсь. Расскажи мне сказку. - СПб.: Речь; М.: Сфера, 2009.
- 43.7. Ткач Р.М. Сказкотерапия детских проблем. СПб.: Речь; М.: Сфера, 2008.
44. Гребенщикова Л.Г. Основы куклотерапии. Галерея кукол. - СПб.: Речь, 2007.

45. IV. Qo'shimcha adabiyotlar

46. Сакович Н.А. Технологии игры в песок. Игры на мосту. СПб.: Речь, 2008.
47. Стишенок И.В. Сказка в тренинге: коррекция, развитие, личностный рост. СПб.: Речь, 2005.
48. Лынская, Марианна Ильинична. Формирование речевой деятельности у неговорящих детей с использованием инновационных технологий :под ред. С.Н. Шаховской. — М.: ПАРАДИГМА, 2012
49. Довгаль Н.В. Логопедические игры в песочной стране // Логопед. – 2004.

51. Shomahmudova R.; Mo'minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ulari bartaraf etish. T.: 1993.
52. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Y, Axmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik. o'yinlar. T.: Yangi asr avlodi, 2007.
53. Shomahmudova R., Mo'minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ulami bartaraf etish. T.: 1993.
54. Ahmedova Z.M, Ayupova M.Y, Xamidova M.P.:Logopedik o'yin darslik.Toshkent-2007
55. Ayupova M.Y. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007
56. Soatov. B, G. Xamidova, Usmonova M Ifodali o'qish uslubiy qo'llanma.;2015
57. Ahmedova.Z. Ertak terapiyasi. -Toshkent.:2018.
58. Mo'minova.L. R, Kabulova R.A. Bolalar nutqni kichik falklor janrlari asosida rivojlantirish texnologiyasi -T.:2019.
59. Shomahmudova To'laganova U.R Logopediya kompleks mashqlar.T.:2013
60. Husanova.J.V.: To'g'ri gapiraylik.- Toshkent.:2018
61. Xamidova M.P, Ayupova M.Y. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi.- T 2009

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

62. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish.
// Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
63. Маслова Е.С. Использование изобразительной деятельности дошкольного возраста с нарушениями речи Сборник материалов по итогам научно-исследовательской деятельности молодых ученых в области гуманитарных, естественных и технических наук в 2005 г. – М.: Прометей, 2006. – С. 93–96.
64. Маслова Е.С. Рисование как средство обогащения социальных представлений дошкольников с нарушениями речи Обучение и

воспитание детей с нарушениями речи на основе верботонального метода.
Выпуск 3 под ред. Л.И. Руленковой – М.: СППРиК, 2007. – С. 52–55.

VI .Internet saytlari:

- 65.<http://www.gov.uz/> Nizomiy nomidagi TDPU sayti.
- 66.<http://www.pedagog.uz/>Pedagogika muassalari portal.
- 67.<http://www.ziyo.uz.com/>
- 68.Ta’lim tog’risidagi qonun.: Meyoriy hujjat-O’zb.Res.Q-2016 “www.Lex.uz”
- 69.O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyev PQ 3305-sonli qarori
“<https://www.prezident.uz>”.
- 70.O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyev PF- 5270-sonli qarori
“<https://www.prezident.uz>”.
71. O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyev PQ 3955-sonli qarori.
“<https://www.prezident.uz>”.
- 72.Седов Евгений.: Арт-терапия и сказкотерапия»
“<http://www.psichudo.ru/2016/04/art-terapiya-i-skazkoterapiya.html>”
73. Царькова Марина Витальевна г. Коломна Арттерапевтический метод применяемый психологами на занятиях с детьми ограниченными возможностями здоровья.:“<http://ped-kopilka.ru/blogs/marina-vitalevnacarkova/art-terapevticheskii-metod-primenjaemyi-psiologami-na-zanjatijah-sdetmi.html>”
- 74.Кудрякова Д.А.,Моругина В.В.,Исторический аспект изучения моторной алалии как речевого нарушения.:студенческий научный вестник.-2018-№ 3-6 “<http://www.eduherald.ru/article>”.

ILOVALAR

1-Ilova



Bolalarda bog'langan nutqni tushunishiga qaratilgan topshiriq.

1.Topshiriq “Ertak qahramonlarini toping”.

Maqsad: Bolada bog'langan nutqini tushunishini tekshirishga qaratilgan.

Jihozlar: Ertak kitobi va tanlab olingan ertakga mos predmetli rasmlari (quyosh, chol va kampir, o'rmon, un, deraza tokchasi, yo'l, quyon, ayiqpolvoni) kartochkalar.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolalar uchun tanish bo'lgan ertak tanlab olinadi, ertakning uncha katta bo'lmagan qismi bir tempda emotsionl bo'yoqdorlik bilan bolaga o'qib beriladi. Bola kartochkali rasmlar orqali ertak qahramonlarini tanlab taqdim etishi kerak.

Tanlab olingan ertak: “Bo'g'irsoq” ertakidan parcha. Bir bor ekan bir yo'q o'rmondagi kichkina uychada chol va kampir yashar ekan. Quyoshli kunlarning birida kampir qolib ketgan unlardan bo'g'irsoq tayyorlabdi ba unni sovusini deb tokchaga qo'yibdi. Vaqt o'tib bo'g'irsoq sovubdi va deraza tokchasidan dumalab uzun yo'l bo'ylab qochib ketibdi. Bo'g'irsoq dumalab-dumalab ketayotib yo'lida quyonni uchratib qolibdi. Quyon uni yemoqchi bo'lgan ekan u quyonga she'rini aytib berib yana qochib ketibdi. So'ng bo'g'irsoq ayiqpolvonni uchratibdi va shu tarzda ertak ketma-ketligi aytib beriladi. Ertak tugagach bolaga ertak yuzasidan suhbat qurish taklif etiladi, suhbat ertakda aks ettirilgan predmetlar yuzasidan savol javob tarzida o'tkaziladi, tadqiqotchi tomonidan tekshirish olib borilayotgan bolaga ertak yuzasidan quyidagi savol beriladi:

- Havo qanday edi (quyoshli bulutli yomg'irli)?
- Uychada kimlar yashar ekan?
- Uycha qayerda joylashgan ekan?
- Chol bilan kampir nima tayyorlashdi?
- Bo'g'irosoqni nimadan tayyorlashdi?

- Bo'g'irosoq qayerdan dumalab tushib qochib ketdi?
- Bo'g'irosoq nima bo'ylab ketdi?
- Bo'g'irosoq birinchi bo'lib qaysi hayvonni uchratdi?
- Bo'g'irosoq ikkinchi bo'lib qaysi hayvoni uchratdi?

Bola tadqiqotchi so'ragan ertak qahramolari rasmini ertakga tegishli bo'lgan predmetlarni rasmlari kartochkalar orasidan tanlab topib ko'rsatishi kerak.

Baholash mezonlari:

4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 5 tandan 7 tagacha bo'lgan savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

2 ball – tadqiqotchi yordamida 3dan 5gacha savollarga to'g'ri javob berilsa;

1 ball – 0-1 to'g'ri javob;

Bolalarda ish harakatni bildirgan nutqni tushunishga qaratilgan topshiriq:

2-Topshiriq. “Syujetli rasmlarni to'g'ri ko'rsat”.

Jihozlar: Predmetli rasmlari mavjud kartochkalar.

Maqsad: Bolalarda ish harakatni bildirgan nutqni tushunishini tekshirish.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan tekshirish olib borilayotgan bolaga ish harakatni bildirgan nutqni tushunishga qaratilgan quyidagi savollar beriladi:

- Kapalak tutayotgan qizil ko'ylakdagi qiz rasmini ko'rsat!
- Koptok o'ynayotgan sariq shimdagi uzun bo'yli bola rasmini ko'rsat!
- Ovqat pishirayotgan oshpaz ayol rasmini ko'rsat!
- Daraxtda turgan uchta maymun bolalari rasmini ko'rsat!
- Raqsga tushayotgan bobo rasmini ko'rsat!

va ushbu savollarga mos rasmlar bola oldiga qo'yiladi. Bola ushbu ish harakati ifodalangan rasmlarni so'rovlarga mosni olib ko'rsatishi lozim.

Baholash mezonlari:

4 ball – barcha ish harakatni to'g'ri ko'rsatib kartochkali rasmlar taqdim etilsa;

3 ball – 3 tagacha ish harakatga mos to'g'ri javob;

2 ball – 2 tagacha ish harakatga tadqiqotchi yordamida to'g'ri javob berilsa;

1 ball – 0-1 to‘g‘ri javob;

3 -Topshiriq. “Vazifa bajarish vositasini top”.

Jihozlar: Predmetli rasmlar savollarga doir rasmlari kartochkalar (tutqich, koptok, daraxt qozon, kapalak rasmlari).

Maqsad: Bolalarda ish harakatni bildirgan nutqni tushunishini tekshirish.

Ko‘rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolalarga grammatik tuslangan gaplar berilgan bola ish harakatni bildirgan nutqni tushunishga qaratilgan quyidagi savollar beriladi, savollar mazmuniga qarab tuslanib boriladi:

- Qizcha kapalakni nima bilan tutayapti? (Tutqich)
- Qizcha nimani tutayapti? (Kapalak)
- Oshpaz nima pishirayapti? (Ovqat)
- Oshpaz ovqatni nimada pishirayapti? (Qozon)
- Maymunlar soni nechta? (3 ta)
- Ular qayerda qanday turishibdi? (Daraxt shoxi)
- Bola nima o‘ynayapti? (Koptok)
- Koptok shakli va rangi qanday?(dumaloq, qizil)

va ushbu savollarga mos rasmlar bola oldiga qo‘yiladi. Bola ushbu ish harakati ifodalangan grammatik jihatdan tuslangan savollarga mos rasmlarni mosni olib ko‘rsatishi lozim.

Baholash mezonlari:

4 ball – barcha savollarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 5 tadan 7 tagacha bo‘lgan savollarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

2 ball – tadqiqotchi yordamida 3 dan 5 gacha savollarga to‘g‘ri javob berilsa;

1 ball – 0-1 to‘g‘ri javob;

❖ **Bolalarda nutqni tushunish va fonematik idrokini tekshirishga qaratilgan topshiriq**

4-Topshiriq. “Kim e‘tiborli?”

Maqsad: Bolalarda masofaviy ko‘rsatma orqali ish harakatga qaratilgan nutqni tushunish va eshituv idrokini tekshirish.

Jihozlar: Topshiriqga mos bo'lgan rasmlar mulyaj tadqiqot yuzasidan o'yinchoqlar.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi va bola orasida ikki metr masofa saqlanadi. Bola oldiga tadqiqot uchun ajratilgan o'yinchoqlar qo'yildi. Tadqiqotchi past ovozda bolaga o'yinchoqlarni joyini almashtirish topshirig'i beriladi.

- Ayiqcha va mashina o'rnini almashtirib qo'y;
- Qog'irchoqning kiyimini yech;
- Gullarni savatdan olib guldonga sol;
- Legolar orasidan qizil ranglisini ajratib ko'rsat;
- Yovoyi hayvonlarni uy hayvonlari orasidan ajratib ko'rsat;
- Bo'g'irsoq ertagidagi qahramonlarini yovoyi hayvonlar orasidan tanlab ol.

Bola bu buyruqlarni eshitishi, tushunishi va bajarishi kerak. Vazifalar qisqacha va aniq bo'lishi kerak.

Baholash mezon:

4 ball – barcha vazifalarni to'g'ri bajarsa;

3 ball – 3 tadan 4 tagacha vazifani hattosiz bajarsa;

2 ball – 3 tagacha tadqiqotchi yordamida vazifani xattosiz bajarsa;

1 ball – hech qaysi vazifani to'g'ri bajarmasa;

5-Topshiriq. “O'yinchoqlarni joylashtir”.

Maqsad: Bolalarda joylashish holatini bildirgan qo'shimchalar (tagi, usti, yoni, ichi, atrofi, orqasi) ish harakatni bildirgan nutqni tushunishini tekshirish.

Jihozlar: predmetli rasmlari mavjud kartochkalar mulyajlar har bir topshiriq uchun jihozlar.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi va bola yonma yon o'tiradi. Tadqiqotchi tomonidan tekshirish olib borilayotgan bolaga o'rin joy ish harakatni bildirgan nutqni tushunishga qaratilgan quyidagi topshiriqlarni bajarish so'raladi:

- Savat ichidan ko'ptokni olib qutdagi ko'ptoklar orasiga sol!
- Qutidagi ko'ptoklari sanab quti ustini qopqog'i bilan yop!
- Qo'g'irchoqlar orasidan eng kichigini olib quti stul tagiga qo'y!

- Uycha rasmi atrofiga daraxt rasmni chiz!
- Kitob ichga qalamni solib daftar yoniga olib qo'y!
- Mashina rasmni orqasini o'girib qo'y!

Boladan ushbu topshiriqlarni bajarish so'raladi. Bola ushbu ish harakatilarni topshiriq asosida to'g'ri bajarishi kerak.

Baholash mezon:

- 4 ball – barcha vazifalarni to'g'ri bajarsa.
- 3 ball – 3 tadan 4 tagacha vazifani hatosiz bajarsa.
- 2 ball – 3 tagacha tadqiqotchi yordamida vazifani hatosiz bajarsa.
- 1 ball – hech qaysi vazifani to'g'ri bajarmasa.

6 - Topshiriq “Jihozlarni taqqoslash”.

Maqsad: Bolada katta-kichik, uzun-kalta, qalin-yupqa semiz-ozg'in kabi tushunchalarni nutqda tushunishini tekshirish.

Jihozlar: Ko'rgazmali kartochkalar va juftlashtirilgan tarqatma rasmlar.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bir qator bir biriga o'xshash juftlashtirilgan rasmlar taklif etiladi va bola logoped ko'rsatmasiga binoan so'ralgan predmetni rasmni yoki predmetning o'zini olib berishi kerak.

- Uzun qalamni olib ber?
- Kalta qalamni olib ber?
- Katta ayiq rasmni olib ber?
- Ayiqcha rasmini olib ber?
- Qalin arqani olib ber?
- Ingichka arqoni olib ber?

Shu asosida topshiriq yakunlanadi.

Baholash mezon:

- 4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;
- 3 ball – 3 tadan 4 tagacha savolalarga to'g'ri javob;
- 2 ball – 3 tagacha savolga tadqiqotchi yordamida to'g'ri javob berilsa;
- 1 ball – 0-1 to'g'ri javob;

1- Topshiriq. “Ish qurollari vazifasi”.

Maqsad: Bolalardagi ish harakatga doir soʻz boyligini predmetlarning funksiyasi asosida tekshirish.

Jihozlar: Predmetlar va predmetning vazifasini bildirgan rasmlar

Koʻrsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolaga 8 turdagi predmetlar namoyish etiladi va bola ushbu predmetlar vazifasiga doir rasmlar kartochkani topib koʻrsatishi va talaffuz qilishi kerak.

- Oʻchirgʻich qanday vazifani bajaradi? (oʻchiradi)
- Qaychi qanday vazifani bajaradi? (qirqadi)
- Pichoq qanday vazifani bajaradi? (kesadi)
- Bolgʻa qanday vazifani bajaradi? (chopadi)
- Igna qanday vazifani bajaradi? (tikadi)
- Sanchqi qanday vazifani bajaradi? (ovqatni sanchadi)
- Telefon qanday vazifani bajaradi? (aloqa)
- Chizgʻich qanday vazifani bajaradi? (oʻlchaydi)

Baholash mezon:

4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 5 tadan 7 tagacha savollarga toʻgʻri javob;

2 ball – 3 tadan 5 tagacha savolga tadqiqotchi yordamida toʻgʻri javob;

1 ball – 0-1 toʻgʻri javob;

2 -Topshiriq. “Qaysi hayvon qanday harakatlanadi?”.

Maqsad: Bolalardagi harakat turlarini bildirgan soʻzlarni hayvonlar harakatini tasvirlash orqali tekshirish.

Jihozlar: Hayvonlar rasmi va har bir hayvonning haraklanayotkandagi holati video roʻligi.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolaga 8 ta hayvon rasmi ko'rsatiladi va hayvonlarning harakat holati so'raladi bola javobidan so'ng video rolik namoyish etiladi.

- Ilon nima qiladi? (sudraladi)
- Akula nima qiladi? (suzadi)
- Burgut nima qiladi? (uchadi)
- Yo'lbars nima qiladi? (yuguradi)
- Maymun nima qiladi? (sakraydi)
- Kuchuk nima qiladi? (vovulaydi)
- Chumoli nima qiladi? (o'rmaydi)
- Ot nima qiladi? (kishnaydi)

Baholash mezon:

- 4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;
- 3 ball – 5 tadan 6 tagacha savolalarga to'g'ri javob;
- 2 ball – 4 tagacha savolga tadqiqotchi yordamida to'g'ri javob berilsa;
- 1 ball – 0-2 to'g'ri javob;

3 - Topshiriq. “Harakatlar antonimi toping”.

Maqsad: Bolalardagi harakat turlarini bilishini va harakatga qarama-qarshi holatni so'zlarda ifodalashini tekshirish.

Jihozlar: Harakat turlarini bildirgan kartochkali rasmlar antonim harakatni bildirigan kartochkali rasmlar.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolaga 8 ta harakat holati aytiladi kartochka rasmi ko'rsatiladi bola harakatning antonim holatini aytib rasmi kortochkada ifodalashi kerak.

- | | | |
|------------------------|-----------------------------|-----------------------|
| ➤ Kirish-
(chiqish) | ➤ Yotish-
(turish) | ➤ Uchish-(qonish) |
| ➤ Ochish-
(yopish) | ➤ Ko'tarish-
(tushurish) | ➤ To'xtash-(yugurish) |
| | | ➤ Kulish-(yig'lash) |
| | | Olish-(berish) |

Baholash mezon:

- 4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 4 tadan 6 tagacha savolalarga to‘g‘ri javob;

2 ball – 3 tagacha savolga tadqiqotchi yordamida to‘g‘ri javob berilsa;

1 ball – 0-1 to‘g‘ri javob;

4 - Topshiriq. “Predmetlarni umumlashtiring”.

Maqsad: Predmetlarni bir guruhga umumlashtirish orqali bolalardagi predmet turlarini qay darajada bilish qobiliyatini aniqlash.

Jihozlar: Mevalar, sabzavotlar, uy hayvonlari, yovoyi hayvonlar, tana a‘zolari, uy jihozlari har bir guruhga doir kartochkali rasmlar.

Ko‘rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolaga 6 ta guruhga doir rasmlar taqdim etiladi va har bir guruh uchun savatchalar taqdim etiladi bola har bir predmetli rasmni nomlab tegishli guruhlar uchun ajratilgan savatlarga joylashtirishi kerak.

- Mevalar (olma, anor, shaftoli, o‘rik, banan, uzum)
- Sabzavotlar (sabzi, kartoshka, piyoz, baqlajon, sarimsoqpiyoz, qalamipir)
- Uy hayvonlari (kuchuk, sigir, echki, mushuk, quyon, qo‘y)
- Yovoyi hayvonlar (ayiq, bo‘ri, tulki, olmaxon, she‘r, bo‘rsiq)
- Tana a‘zolari (ko‘z, qol, oyoq, quloq, bosh, lab)
- Uy jihozlari (javon, parda, qandil, stol, kiyim javon, partret)

Baholash mezon:

4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 6 tadan 8 tagacha savolalarga to‘g‘ri javob;

2 ball – 3 tadan 5 tagacha savolga tadqiqotchi yordamida to‘g‘ri javob berilsa;

1 ball – 0-2 to‘g‘ri javob;

5 - Topshiriq. “Pontamimik holatni nomla”.

Maqsad: Bolalarda yuz ifodalari orqali turli hildagi his hayajon holatlariga oid so‘z boyligini tekshirish .

Jihozlar: His hayajon ifoda qilingan yuz qiyofalari aks etgan rasmlar kartochkalar

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolaga sakkiz turdagi predmet ovozi qo'yib eshitiriladi va bola ushbu ovozlarni qaysi predmetga tegishli ekanligini aytishi kerak.

- | | |
|----------------|-------------------|
| ➤ kulmoq | ➤ hursand bo'lmoq |
| ➤ jaxl qilmoq | ➤ qayg'urmoq |
| ➤ yig'lamoq | ➤ o'ylanmoq |
| ➤ hafa bo'lmoq | ➤ orzuqilmoq |

Baholash mezonlari:

4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 5tadan 7tagacha savolalarga to'g'ri javob;

2 ball – 3tadan 5tagacha savolga tadqiqotchi yordamida to'g'ri javob berilsa;

1 ball – 0-1 to'g'ri javob;

6 - Topshiriq. “Ertak qahramonlarini nomla”.

Maqsad: Bolalarda ertaklarga bo'lgan mehrini yanada oshirish orqali sevimli ertak qahramonlariga taqlid asosida lug'at boyligini tekshirish.

Jihozlar: Ertak qahramonlarining harakat holatini aks etgan video rolik.

Ko'rsatma: Tadqiqotchi tomonidan bolaga 10 turdagi turli ertak qahramonlariga video rolik orqali taqlid qilib ushbu qahramonlarni nomini aytish so'raladi.

- | | |
|-------------------|--------------|
| ➤ no'xat polvon | ➤ bo'g'irsoq |
| ➤ qizil qalpoqcha | ➤ qimmatoy |
| ➤ yirtqich bo'ri | ➤ bilmasvoy |
| ➤ oltin baliq | ➤ bilag'on |

Baholash mezonlari:

4 ball – barcha savolarga mos kartochkali rasmlarni taqdim etilsa;

3 ball – 5tadan 7tagacha savolalarga to'g'ri javob;

2 ball – 3tadan 5tagacha savolga tadqiqotchi yordamida to'g'ri javob berilsa;


1 ball – 0-1 to'g'ri javob;

Mayda qo'l motorikasini tekshirish uchun topshiriqlar to'plami.

Mayda qo'l motorikasini tekshirish maqsadida quyidagi topshiriqlardan foydalandik:


1 -Topshiriq. "Echkicha"

Kaftning ichki tomonini pastga qaratiladi, ko'rsatkich barmoq va jimjiloqni oldinga uzatiladi, o'rta va nomsiz barmoqni ichkariga qaytariladi, boshbarmoq bilan qamrab olinadi topshiriqni bir urinishda to'g'ri va aniq bajarilishiga ahamiyat qaratish lozim;




2 - Topshiriq "Ko'zaynak"

O'ng va chap qo'lning bosh barmoqlari birdan doira shakliga keltiriladi. Ikkala qo'lni ko'zga olib kelib mo'ralab qarash barmoqlarini navbatma-navbat mushtum holatiga keltirish va ochish;




3 – Topshiriq. "Panjara". Kaftlarni burchak ostida tutib, ikkala qo'lning barmoqlari o'zaro chirmashitiriladi. Bunda barmoqlarni oldiniga yo'naltirib, tirsaklarni biqinga yopishtirmast ko'tarib turish lozim. berilgan sur'at bo'yicha barmoqlarni stolga ketma-ket urish;




4- Topshiriq. "Qanot"

Kaftlarni o'zimizga qaratib, bosh barmoqlarni bir-biriga chirmashtiramiz, boshbarmoqlar qush boshi qolganlari yoyiq holda qanot hosil qilish, ularni silkitish;



5 - Topshiriq. "Halqa"

O'ng qo'lni ko'rsatkich barmog'ini oldiniga cho'zilgan holda aylantirib, oldiniga harakatlantiramiz, keyin huddi shu harakatni chap qo'l bilan takrorlanadi;



6 - Topshiriq. Plastilinni barmoqlar bilan yumalatish;

7 - Topshiriq. Munchoqlarni ipga terish;

8 - Topshiriq. Tugmalarni qadash;

Baholash mezon:

4 ball – topshiriq tog’ri bajarilsa;

3 ball – topshiriq bajarishda kamchiliklarga yo’l qo’yilsa;

2 ball – topshiriq qisman bajarilsa logoped ko’magida bajarilsa;

1 ball – topshiriqni bajara olmasa;

Umumiy motorika holatini tekshirish uchun topshiriqlar to’plami 1

-Topshiriq. Kaptokni sherigiga otish va qayta ilib olish (3marta);

2 -Topshiriq. Orqa tarafga o’girilib 10 qadam yurish;

3 -Topshiriq. Shartli belgilardan hosil qilingan ilon izida oyoq uchida yurish;

4 -Topshiriq. 2 metr masofadan kaptokni (4 marta) savatga tushurish;

5 -Topshiriq. Qo’llarni oldinga cho’zib boshini tik tutib tovonda doira hosil qilib yurish;

6- Topshiriq. Joyda turgan holda 1 oyoqda sakrash (10 marta);

7 -Topshiriq. Kapalak tutish mashqni (5 marta) bajarish;

8 - Topshiriq. Yurish yugurish sakrashda signal bo’yicha to’xtash 1 aylana bo’ylab;

Umumiy motorik harakatchanlik holatini tekshirishga oid topshiriqlarni bolalar qay darajada bajarganliglari quydagicha ball tizimida izohlanadi:

Baholash mezon:

4 ball – topshiriq tog’ri bajarilsa;

3 ball – topshiriq bajarishda kamchiliklarga yo’l qo’yilsa sekin bajarsa;

2 ball – topshiriq qismanqiyinchiik bilan uzoq vaqt bajarilsa;

1 ball – topshiriqni bajara olmasa;

“Bo’g’irsoq” ertagi asosida qumli terapiya korreksion usuli.

Ta’limiy maqsad: Ertak haqida bolalar tushunchasini shakllantirish

“Bo’g’irsoq ertagi” mavzusidagi bolalar lug’atini aniqlash, yaxshilash va boyitish.

Korreksion maqsad:

- Nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- Dialogik nutqni rivojlantirish;
- Eshitish qobiliyatini, fikrlashni, ijodiy tasavvurni rivojlantirish;
- Umumiy va mayda qo’l motorikasini teri taktil sezgisini rivojlantirish;

Tarbiyaviy maqsad: Do’stlik ko’nikmalarini, guruh bo’lib ishlash, ma’suliyatlilik, tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish. Bolalarda emotsional sferasi: qayg’u, hayrat, quvonch, ishonch tuyg’ulalrini tarbiyalash va ularni ifodalashga doir piktogramlar yordamida ifodalash va tan olishga o’rgatish.

Jihozlar: Ko’rgazmali rasmlar: qishloq hovlisining manzarasi, uycha, har bir qahramonning rasmi kartochkasi, ertakning syujetli rasmlari, qum qutisi, ertak asosida yumshoq o’yinchoqlar va o’yinchoqlar mulyaji, ertakning taqdimoti ATK vositasi, gilamcha.

1 kun:

Guruh bilan tanishish, bolalar bilan do’stona munosabat o’rnatish: Bolalar bilan salomlashildi. Har bir bola bilan alohida yondashuv olib borildi. Bolalar guruhlashtirildi va ular bilan “rangli koptok” mayda motorika va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi o’yini o’tkazildi.

Ertaklar haqida rasmi kartochkalar asosida suhbat qurish: Bolalarni stul atrofiga aylana tarzda joylashtirildi bolalarga ertaklar haqida sodda tushunarli tarzda syujetli rasmlar orqali umumiy tushuncha berildi. Bolalar har bir ertakni katta qiziqish bilan kutib oldilar.

Artikulatsion gimnastika mayda motorik o’yin o’tkazish: Taqdimot orqali tadqiqotchi logoped tomonidan “bo’g’irsoq ertak” qahromonlari ijrosida dastur yaratildi va ushbu dasturni bolalar katta qiziqish bilan qabul qildi. Taqdimot asosida bolalar aylana bo’lib o’tirgan tarzda, slaydlar orqali namoyish etilgan ertak

qahramonlari bajarayotgan artikulatison gimnastika, ovozga taqlid, unlilarni kuylash mashqlarini bajarishdi. Ular bu jarayoda maxsus massaj kaptokchasi aylantirishdi.

Bolalarda qum qutilariga qiziqish uyg'otish: Bolalar bilan birgalikda qum qutilarida qum o'yinlari tashkil etilidi va bu orqali bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishdi. Har bir topshiriq tadqiqotchi logoped tomidan namoyish etildi.

- Ko'rsatkich barmoqda zigzaksimon harakatni hosil qilish;
- Ko'rsatkich barmoqda aylanasimon harakatni hosil qilish;
- O'ng va chap ko'rsatkich barmoqda ko'zaynak ta'svirini hosil qilish;
- O'ng va chap panja izini hosil qilish;
- O'ng va chap qo'l yordamida qum ustiga sepilgan qizil loviya donlarini terish;

2 kun:

Bolalar bilan salomlashish: Bolalar aylana shaklida stul atrofiga o'tkazildi. Guruhda "quvnoq qalamlar" mayda motorika va bilish jarayonlarini bog'langan nutqini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi.

Bo'g'irsoq ertagini ifodali o'qish: Bolalarga kutilmagan sovg'a sifatida ertak qahramoni bo'girsoq yumshoq o'yinchog'i taqdim etildi va sekin mayin ovozda qahramonlar ovozigga taqlid bilan ertak o'qildi:

Tadqiqodchi logoped: Bir bor ekan bir yo'q o'rmondagi kichkina uychada ekan chol va kampir yashar ekan. Quyoshli kunlarning birida kampir qolib ketgan unlardan bo'g'irsoq uchun hamir qilib hamir oshsin deb deraza tokchasiga qo'yibdi birozdan so'ng esa bog'irsoq tayyor bo'lib deraza tokchasidan dumalab uzun yo'l bo'ylab qochib ketibdi va bo'g'irsoq yo'lida quyoni uchratib qolibdi. Quyoni uni yemoqchi bo'lgan ekan u quyonga she'rini aytib beribdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un urvoq,
Men bobomdan qochdim,
Men buvumdan qochdim.

Sendan ham qochib ketaman!

yana qochib ketibdi. So'ng bo'g'irsoq dumalab dumlab ketayotgan chog'ida ayiqpolvoni uchratibdi. Ayiqpolvon bog'irsoqga seni yeyman degan ekan. bo'g'irsoq ham she'rini aytib beribdi: Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,

Supradagi un urvoq,

Men bobomdan qochdim,

Men buvumdan qochidim.

Men quyondan qochdim.

Sendan ham qochib ketaman!

Bog'irsoq yo'lida davom etib ketayotsa, Bo'riga duch kelibdi va bo'ri ham bog'irsoqga hujum qilmoqchi ekan bo'g'irsoq bo'riga bo'rijon bo'ri meni yema she'rimni aytib beraman debdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,

Supradagi un urvoq,

Men bobomdan qochdim,

Men buvumdan qochidim.

Men quyondan qochdim.

Men ayiqdan qochidim

Sendan ham qochib ketaman!

deb qochib hursand bo'lib ketayotsa, yo'lda ayyor tulkiga duch kelibdi. Ayyor tulki bog'irsoqga sen bog'irsoqni yeyman debdi bo'g'irsoq she'rini aytib berishni so'rabdi va she'rini boshlabdi:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,

Supradagi un urvoq,

Men bobomdan qochdim,

Men buvumdan qochidim.

Men quyondan qochdim.

Men ayiqdan qochidim,

Men bo'ridan qochdim

Sendan ham qochib ketaman!

debdi va dumalab qochayotgan ekan tulki hoy bog'irsoq shoshilma men seni she'ringni eshitmadim kelib burnimga chiqib aytib bera qol debdi shunda

bog'irsoq tulkinging yolg'oniga ishonib burniga chiqib she'rini takrorlashni boshlasa:

Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,
Supradagi un urvoq,
Men bobomdan qochdim,
Men buvumdan qochidim.
Men quyondan qochdim.
Men ayiqdan qochidim,
Men bo'ridan qochdim.
Sendan ham qochib ketaman!

deyishi bilan ayyor tulki hop etib bo'g'irsoqni yeb qo'yibdi!

Ertakning har bir sahnasini taqdimot orqali namoyish etish, ertak qahramonlari harakatiga taqlid, ertakdagi har bir sahna yuzasidan savol javob:

Tadqiqotchi logoped:(birinchi sahna) namoyishi.

Bolalar o'rmonchada nimalar o'sadi? (kartochkali rasmlar yovoyi daraxtlar mevali daraxtlar, poliz ekinlari) kartochkali rasmlardan 1 sahnaga qarab yovoyi daraxtlar rasmini tanlashdi

Bolalar: Yovoyi daraxtlar so'zi birgalikda talaffuz etildi.

Tadqiqotchi logoped: Uycha qanday shaklar qatnashgan? (kartochkali rasmlar dumaloq, uchburchak, aylana, to'rtburchak).

Bolalar: Birinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda uchburchak va to'rtburchak shaklini ko'rsatishdi va birgalikda ushbu shaklar havoda chizildi.

Tadqiqotchi logoped: (ikkinchi sahna) namoyishi.

Bog'irsoq nimadan tayyorlandi? (kartochkali rasmlar un, guruch, olma).

Bolalar: Ikkinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda un rasmini ko'rsatishdi va birgalikda talaffuz qilindi (artikulatsion filcha mashqi bajarildi. U-u-u).

Tadqiqotchi logoped: (3 sahna) namoyishi

Bog'irsoq qanday shaklda? (sariq rangdagi kartochkali rasmlar dumaloq, uchburchak, to'rtburchak).

Bog'irsoq qayerdan qochib ketdi? (kartochkali rasmlar eshikdan, tokchadan).

Bolalar: Uchinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda sariq aylana va tokcha rasmini ko'rsatdilar birgalikda (artikulatsion aylana mashqi bajarildi O-o-o) talaffuz qilindi.

Tadqiqotchi logoped: (to'rtinchi sahna) namoyishi

Bog'risoqni qaysi hayvon yeyishni hohladi? (kartochkali rasmlar quyon, she'r zebra).

Bolalar: Uchinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda quyon rasmni to'g'ri ko'rsatishdi va yulduzchali kartochkalar bilan rag'batlantirildi. Bolalar va tadqiqotchi logoped stullardan turib quyonchga taqlid qilib sakrashdi.

Tadqiqotchi logoped: (beshinchi sahna) namoyishi

Bog'risoqni quyondan so'ng qaysi hayvon yeyishni xohladi? (kartochkali rasmlar zebra yo'lbars, tulki)

Bolalar: Beshinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda ayiq rasmni to'g'ri ko'rsatishdi va yulduzchali kartochkalar bilan rag'batlantirildi. Bolalar va tadqiqotchi logoped stullardan turib ayiqqa taqlid qilib yurishdi. **Tadqiqotchi**

logoped: (oltinchi sahna) namoyishi.

Bog'risoqni quyon ayiqdan so'ng qaysi hayvon yeyishni hohladi? (kartochkali rasmlar zebra yo'lbars, bo'ri)

Bolalar: Oltinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda bo'ri rasmni to'g'ri ko'rsatishdi va yulduzchali kartochkalar bilan rag'batlantirildi. Bolalar va tadqiqotchi logoped stullardan turib bo'ri ovoziga taqlid qilib yurishdi. U-u-u-u-u

Tadqiqotchi logoped: (yettinchi sahna) namoyishi.

Bog'risoqni qaysi hayvon aldab yeb qo'ydi? (kartochkali rasmlar zebra, tulki, bo'ri).

Bolalar: Yettinchi sahnaga diqqat bilan qaragan holda tulki rasmni to'g'ri ko'rsatishdi va yulduzchali kartochkalar bilan rag'batlantirildi. Bolalar va tadqiqotchi logoped stullardan turib tulkinging yurishga taqlid qilib yurishdi.





Ertakdagi qahramonlarni yumshoq o'yinchoqlarda ifodalash:

Tadqiqotchi logoped: Har bir bolaga ayiq, bo'ri, tulki, quyon, chol, kampir, bo'g'irsoq yumshoq o'yinchog'ini tarqatib chiqadi va bolalarga bo'g'irsoqni tutish topshirig'i berildi.

Bolalar: Har bir qahramon egasi bog'irsoqni tutish uchun uni ketidan yugurishdi. Bolalar biroz dam olishgandan so'ng ular bilan birgalikda ertak ichidagi yangi so'zlar takrorlanadi. Bolalar ushbu jarayonda guruh bo'lib ishlashga o'rganadilar va do'stona taqlid orqali bog'langan nutqi va so'z boyligi ortish ko'rsentini ortdi.

Bolalarga qumli quti orqali ertakda mavjud shakllarni ta'svirlashni taklif etish:

Tadqiqotchi logoped: Har bir bolaga qumli quti tayyorladi va bolalarga qumli qutida ertakdagi voqea elementlarini ta'svirlash so'raldi.

- Uyning tomi shaklini tasvirlash 
- Uyning devor qismini ta'svirlash 
- Bo'g'irsoq uzun yo'l orqali ketdi 
- Bog'irsoq dumalab qochib ketdi 

Bolalar: Bolalar har bir vazifani katta qiziqish bilan kutib oldi va bajarishdi

3 kun:

Bolalar bilan salomlashish: Bolalar aylana shaklida stul atrofiga o'tkazildi. Guruhda "tipratikancha" sjok kaptoki bilan mayda motorika va bilish jarayonlarini bog'langan nutqini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi. Bolalarni aylana shaklida stullarga o'tkazildi.

Ertaklar haqida rasmi kartochkalar asosida suhbat qurish: Sodda bolalarga tushunarli tarzda syujetli rasmlar orqali "Bo'g'irsoq" ertagi aqliy hujum orqali takorlandi:

Tadqiqotchi logoped: Bu nima deb yumshoq o'yinchoq hayvonlarni birma-bir bolalarga ko'rsatadi va emotsional taqlid nutqidan foydalandi.

Bolalar: Bolalar bilan birga ertak qahramonlari nomi takorlandi, har bir bola birma-bir qahramonlar nomiva rangini aytib berdi.umumiy tushuncha berildi.

Artikulatsion gimnastika mayda motorik o'yin o'tkazish: Taqdimot orqali tadqiqotchi logoped tomonidan “Bo'g'irsoq” ertak qahromonlari ijorisda dastur yaratilgan dastur asosida bolalar aylana bo'lib o'tirgan tarzda va slaydlar orqali namoyish etilgan ertak qahramonlari bajarayotgan artikulation gimnastika va unilarni kuylash mashqlarini bajarishadi ular bu jarayoda sujok kaptokchani aylantirishadi.

Bolalarga qumli qutilarda orqali ertakni ta'svirlashni taklif etish:

Tadqiqotchi logoped: Har bir bolaning qumli qutida ertakdagi voqea elementlarini ta'svirlash so'raldi. Qumda ertakni ta'svirlash jarayonida taqdimot orqali har bir ertak sahnasi namoyish etildi. Birinchi galda qumli qutidagi qum uyimi orasidan ertak qahramonlari mulyajlarini topish so'raldi.

Bolalar: Qumli qutidagi qum uyimida qahramonlar mulyajlarini topishdi.

Tadqiqotchi logoped: Har bir bolaning qumli qutida ertakdagi voqea elementlarini ta'svirlash so'raldi.

- Bo'g'irsoq ta'svirini chizish (ko'rsatkich barmoq orqali aylana, ikki nuqta ko'z, tabassum, ko'rinishini ifodasi).
- Uycha shaklini chizish (ko'rsatkich barmoq uchburchak va to'rtburchakni birlashtirib hosil qilish).
- Quyosh va yo'l tasvirini chizish (ko'rsatkich va o'rta barmoq orqali quyosh aylanasi, jimjiloq barmoqda tayoqchalar bilan quyosh nurlarni hosil qilish, Ikki kaftning o'ng yuzasi bilan ko'ndalang holatda yo'lni tasvirlash).
- Quyonchanning boshini bo'g'irosoqni va o'tloqni tasvirlash (ikkita qo'l barmoq uchlarini qumga iz tushirgan holatda o'tloqni tasvirlash, nomsiz barmoqda bog'irsoq shaklini tasvirlash, ko'rsatkich barmoqlarda quyonchanning boshini aylana shaklida quloqlarini cho'ziq ovalsimon shaklda tasvirlash).
- Bo'ri va ayiq ko'rinishini tasvirlash (Bo'rining bosh qismini ko'rsatkich barmoqda uchburchaklarni birlashtirgan holda tasvirlash, ayiq rasmni aylanalarni birlashtirgan holda tasvirlash).

- Tulki va bog'irsoq ko'rinishini daraxt to'nkasini tasvirlash (Tulkining bosh qismini ko'rsatkich barmoqda uchburchaklarni birlashtirgan holda tasvirlash, bo'girsoq rasmni aylanalarni birlashtirgan holda tasvirlash daraxt to'nkasini yarim uchburchak shaklda tasvirlash).

Bolalar: Bolalar har bir vazifani katta qiziqish bilan kutib oldi va bajardi.

Ertakning yakuniy xulosasi:

Tadqiqotchi logoped: Bolalarga ertakning yakuniy hulosasini so'zlab berish. Ertak so'ngida har bir bolaga qahramonlarning yumshoq o'yinchoqlarini sovg'a qilindi.

“O'rmonchada mukofot” ertagi asosida harakatli ovoz terapiyasi korreksion usuli:

Ta'limiy maqsad: Ertak haqida bolalar tushunchasini shakllantirish “Mukofot” ertagi mavzusidagi bolalar lug'atini aniqlash, yaxshilash va boyitish.

Korreksion maqsad:

- Nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- Uy hayvonlari ovozigacha taqlid etish orqali bo'g'inlarni mustahkamlash va
- Monologik dialogik nutqni rivojlantirish;
- Bolalarda emotsional holat pantamikanini rivojlantirish;
- Bolalar lug'at boyligi boyitish;
- Fazoviy mo'ljal olish, ijodiy fikrlash qobiliyatini, ijodiy tasavvurni rivojlantirish;
- Umumiy va mayda qo'l motorikasini teri taktil sezgisini rivojlantirish;

Tarbiyaviy maqsad:

- Ertak eshtish odobini shakllantirish;
- Ertakchi bilan guruh bo'lib ishlash malakasini shakllantirish;
- Maktab ta'limiga bo'lgan mehr tuyg'usini uyg'otish;
- O'quv qurollarini yaxshi saqlash kerak ekanligi kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirish;
- Bolada tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish;

- Bolalarda emotsional sferasi: qayg'u, hayrat, quvonch, ishonch tuyg'ularini tarbiyalash va ularni ifodalashga doir piktogramlar jismoniy harakatlar yordamida ifodalash o'rgatish.

Jihozlar:

Ertak yuzasidan kartochkali rasmlar, hayvonlarning audio ovozlari, ertak qahramonlarining kortochkali rasmlari jismoniy harakatlar uchun kerakli

1 kun:

Guruh bilan tanishish, bolalar bilan do'stona munosabat o'rnatish: Bolalar bilan salomlashildi. Bolalar gilamchaga yarim oy shaklida o'tkazildi. Har bir bola bilan alohida yondashuv olib borildi. Bolalar guruhlashtirildi va ular bilan "halqacha" mayda motorika va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi.

Ertaklar haqida rasmi kartochkalar asosida suhbat qurish: Bolalarni gilamchaga aylana tarzda o'tirdi. Bolalarga ertaklar haqida sodda tushunarli tarzda syujetli rasmlar orqali umumiy tushuncha berildi. Bolalar "O'rmonchada mukofot" ertagini qiziqishib bilan kutib oldilar tingladilar.

Artikulatsion gimnastika mayda motorik o'yin o'tkazish: Taqdimot orqali tadqiqotchi logoped tomonidan "O'rmonchada mukofot" ertak qahromonlari ijrosida dastur yaratildi va ushbu dasturni bolalar katta qiziqish bilan qabul qildiva taqdimot asosida bolalar aylana bo'lib o'tirgan tarzda va slaydlar orqali namoyish etilgan ertak qahromonlari bajarayotgan artikulatsion gimnastika va unilarni kuylash mashqlarini bajarishadi ular bu jarayoda sujok kaptokchani aylantirishidi.

Harakatli ovoz terapiyasiga bolalarda uyg'otish: Bolalar bilan birgalikda harakatlanib birga o'ynash uchun maydonchaga jihozlarni to'plandi (har bir bola uchun arqoncha, xalqacha koptokcha) o'yinlari tashkil etildi va bu orqali bolalarda harakat asosida bog'langan nutq so'z boyligi mayda qo'l motorikasini rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishdi. Har bir topshiriq tadqiqotchi logoped tomidan namoyish etildi.

- Ketma-ket qo'yilgan halqachalardan sakrash;
- Arqonchani gilamcha bo'ylab qo'yish va izma-iz yurish;

- Izma-iz yurishda qo'larni yonga yoyib yelkalarni tik tutib yurish;
- O'ng va chap qo'llarda koptokchani ushlab turgan joyda 10 marta sakrash;

2 kun:

Bolalar bilan salomlashish: Bolalar bilan salomlashildi. Har bir bola bilan alohida yondashuv olib borildi. Bolalar guruhlashtirildi va ular bilan “quvnoq labirint” mayda motorika va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi.

“O'rmonchada mukofot”ertagini ifodali o'qish: Bolalarga kutilmagan sovg'a sifatida ertak qahramonlarining mulyajlari taqdim etildi va sekin mayin ovozda qahramonlar ovoziga taqlid bilan ertak o'qildi: **Tadqiqodchi logoped:**

“O'rmonchada mukofot”.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, kattakon o'rmonda qayrag'ochlar ostida bir maktab bor ekan. Unda Moshvoy ismli mushukcha futbolchi mushukcha, Qag'-qag' ismli uchuvchi qarg'acha, Dik-dik ismli yuguruvchi quyuncha, ismi Chiy-chiy ismli chaqqon sichqoncha, Pi-pi ismli sakrog'ich maymuncha, Xur-xur ismli dangasa cho'chqacha va boshqalar o'qishar ekan.

O'qish boshlangan kuni Tovusxon ismli juda xushfe'l, muloyim dono bir o'qituvchi ularga kitob va daftar, qalam ruchka kabi o'quv qurollari ulashibdi.

Tovusxon: “Kitoblaringizni yirtmasdan, yaxshi saqlanglar. Bu kitoblarni sizdan keyin ukalaringiz ham o'qishadi”, — debdi va ta'kidlab yana qo'shib qo'yibdi: — “Kimki kitobini yaxshi saqlasa, o'quv yili oxirida o'shanga mukofot ham beramiz” debdi.

Ular kitob va daftarlarni o'quv qurollarini sevinib-sevinib olib ketishibdi. Oradan ko'p o'tmabdi. Bir kuni Chiy-chiy chaqqongina bo'lib badan tarbiya mashqlarini bajaribdi va qorni ochib qolib kitobni muqovasini yeb qo'yibdi, so'ng esa Pi-pi sakrog'ich mazza qilib sakrayotgan ekan chiy-chiy kelib maqtanib:

“Muqovasini yeb ko'rsam, biram mazaliki”, — debdi kitobini ko'rsatib.

Pi-pi ham sakrashdan to'xtab shunaqamikan-a, deb kitobning muqovasini qiyma-qiyma qilibdi.

Ularni kuzatib turgan dangasavoy xur-xur o'tirib olib oyoqlarni tapilatayotgan ekan keyin u ham maqtanib qolibdi: “Kitobda piyoz, sholg'om,

kartoshka surati bor ekan”, hammasini yedim debdi. Pi-pi ham qiziqib ketib, kitobdagi jami suratlarni yeb chiqibdi. Qag’-qag’ uchib ketayotgan yo’lidan qonibdi va ularning safiga qo’shilib u ham olcha, gilos, olma, yong’oq rasmlarini cho‘qib, kitobni ilma-teshik qilib tashlabdi.

O‘quv yili tugashi bilanoq Tovusxon o‘quvchilardan kitoblarni birma-bir yig‘ib olibdi. U Chiy-chiy bilan Pi-pidan ham, Xur-xur bilan Qag’-qag’dan ham juda-juda xafa bo‘libdi. Ammo Moshvoy bilan Dik-dikdan xursand bo‘libdi. Chunki ular kitoblarini yirtmay, kir qilmay, ozoda saqlagan, yaxshi tutishgan ekan.

Tovusxon, Dik-dikka bitta sabzi, Moshvoyga esa issiqqina bo‘g‘irsoq mukofot beribdi va suratlarini namunalilar qatoriga ilib qo‘yibdi.

Ertakning har bir sahnasini taqdimot orqali namoyish etish, ertak qahramonlari harakatiga taqlid, ertakdagi har bir sahna yuzasidan savol javob:

Tadqiqotchi logoped: (birinchi sahna) namoyishi. Bolalar o‘rmonchada nima bor ekan? (kartochkali rasm maktab, uycha, bog‘cha),

Maktabda qaysi parranda dars berar ekan? (kartochkali rasm tovuq, o‘rdak tovus), kartochkli rasmlardan birinchi sahnaga qarab yovoyi daraxtlar rasmini tanlashdi.

Bolalar: Kartochkali rasmlar va birinchi sahnaga qarab rasmini tanlashdi.

Tadqiqotchi logoped: maktab va tovus rasmini ko‘rsatib birgalikda har bir bola bilan talaffuz qildi.

Tadqiqotchi logoped: (ikkinchi sahna) namoyishi.

Bolalar quyon dik-dik nima yeydi?

Mushuk moshvoy nima yeydi?

Qag’-qag’ qarg’a nima yeydi?

Chiy-chiy sichqoncha nima yeydi?

Pi-Pi maymuncha nima yiydi?

Xur-xur cho‘chqacha nima yeydi?

(sabzi, go’sht, pishloq, banan, chuvalchang, o‘t)rasmli kartochkalaridan har bir bola bittasini tanlab yegulik nomi va qaysi hayvon yeyishi topib aytishi kerak.

Bolalar: Kartochkali rasmlarni tanlab hayvonlarga yeydigan yeguliklarni tadqiqotchi logoped yordamida nomlashdi va ikkinchi sahnaga qarab rasmini tanlashdi.

Tadqiqotchi logoped: (uchinchi sahna) namoyishi. Bolalar sizlar qanday o'quv qurollarni bilasizlar?" uchinchi sahnada tasvirlangan o'quv qurollari rasmlari nomi so'raladi va ular qanday vazifa bajarishi bilan tanishtiriladi.

- Portfelga nimalarni solamiz? O'quv qurollarni
- Nima yozadi? Ruchka yozadi.
- Nima chizadi? Qalam chizadi.
- Nimaga yozamiz? Daftarga yozamiz.
- Nimaga chizamiz? Rasmdaftarga chizamiz.
- Nima o'lchaydi? Chizg'ich o'lchaydi.
- Nima o'chiradi? O'chirg'ich o'chiradi
- Nima boyaydi? Rangli mo'yqalam bo'yaydi.

Bolalar: uchinchi sahnaga diqqat bilan qarab sahna tasvirlangan o'quv qurollarni nomlashdi va birgalikda qanday vazifa bajarishini aniqlashdi.

3 kun:

Bolalar bilan salomlashildi. Har bir bola bilan alohida yondashuv olib borildi. Bolalar guruhlashtirildi va ular bilan "gio kontur" mayda motorika va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi.

"O'rmonchada mukofot" ertagini syujetli rasmlar asosida yana bir marta takrorlab o'tish: Ertakni yana bir bor qayta ta'svirlash ertakdagi voqealar ertak qahramonlarinig kitobni yeb qo'yganligi yaxshi ish emasligi o'quv qurollarni asrab avaylash kerak ekanligini tushuntirish.

Ertakdagi qahramonlar nomini ovozli taqlid usuli orqali ifodalash:

- **Tadqiqotchi logoped:** (to'rtinchi sahna) namoyishi.
- Mushukcha ovozigga taqlid qilining: Myav-mya-myav
- Maymuncha ismini takrorlang:Pi-pi-pi
- Sichqoncha ovozigga taqlid qiling:Chi-chi-chi
- Qarg'a ovozigga taqlid qiling:Qag'-qag'-qag'

- Cho'chqacha ovozigacha taqlid qiling: Xur-xur-xur

Bolalar: To'rtinchi sahnada tasvirlangan har bir hayvon ovozigacha taqlid qilindi. Bolalar ushbu jarayonga yuqori qiziqish bildirishdi. har bir bola bilan ham guruhli ham yakka tartibda talaffuzi ustida nazorat olib borildi.

Bolalarga ertak qahramonlariga taqlid orqali harakatli o'yinlar taklif etish:

Tadqiqotchi logoped: (beshinchi sahna) namoyishi. Bolalar qarang hamma qahramon o'zining ovqatlarini emas balki kitob muqovalarini yeb qo'yishdibu yaxshi ishmi?

Bolalar: Yo'q deb javob berishdi!

Tadqiqotchi logoped: Kim birinchi bo'lib kitob muqovasini yedi?

Bolalar: Chiy- Chiy sichqoncha!

Tadqiqotchi logoped: Keling, birgalikda chaqqonoy sichqonchani harakatlariga taqlid qilib turib oyoq uchida qo'llarimizni oldinga cho'zib qadimimizni tik tutib gilamcha bo'ylab sekin yuramiz.

Bolalar: Chiy- Chiy sichqonchaga taqlid qilib logoped orqasidan sekin asta oyoq uchida yurishdi.

Tadqiqotchi logoped: Endi esa maymuncha sakrog'ichga taqlid qilib turgan joyimizda sakraymizmi?

Bolalar: Sakrog'ich maymunchaga o'xshab hamma birgalikda joylarida turib sekin sakrashdi.

Tadqiqotchi logoped: Bolalar qaysi qahramonimiz yerga o'tirib olib oyoqlarni tapilatayotgan edi?

Bolalar: Xur-xur deb javob berishdi.

Tadqiqotchi logoped: Endi hammamiz o'tirib olamiz va qo'llarimizni yonga cho'zgan holda oyoqlarimizga birma bir tekazamiz.

Bolalar: Ushbu mashqni katta qiziqish bilan bajardilar.

Tadqiqotchi logoped: Oxirgi bo'lib qaysi qahramon kitob muqovalarni yeyish uchun uchib keldi?

Bolalar: Qag'-qag' barakalla bolajonlar

Tadqiqotchi logoped: Kelinglar biz ham qarg'a qag'-qag'ga o'xshab qo'llarimizni qanot qilib keng yoyib quloch ochib katta katta qadam bosib yuguramiz gilamcha atrofida yuguramiz.

Bolalar: Qag'-qag'deb gilamcha atrofida qo'llarini keng quloch ochib silkitib yugurishdi.

Ertakga yakuniy xulosa:

Tadqiqotchi logoped: oltinchi sahna namoyishi.

Bolalar qarang quloqsiz hayvonlar kitob muqovalarni yebqo'yishdi bu yaxshi ishmi?

Bolalar: Bolalar yo'q deb javob berishdi.

Tadqiqotchi logoped: Bolalar qaysi hayvonlar kitobni toza ozoda saqlashdi?

Bolalar: Quyuncha va mushukcha rasmili kartochkalarni ko'rsatishdi so'ng birgalikda talaffuz qilishdi.

Tadqiqotchi logoped: Bolalar quyuncha va mushukchaga ustozni to'vusxon nima sovg'a qildi?

Bolalar: Quyuncha va mushukchaga idishda sut va sabzi (kartochkali rasmlar orqali bolalar ko'rsatishdi).

Tadqiqotchi logoped: Barakalla bolalar demak biz ham maktab o'quv qurollarni ozoda saqlashimiz kerak ekan!

“Oltin tuxum” Ertagi piktagramma terapiyasi korreksion usuli:

Ta'limiy maqsad: Ertak haqida bolalar tushunchasini shakllantirish

"Oltin tuxum"ertagi mavzusidagi bolalar lug'atini aniqlash, yaxshilash va boyitish.

Korreksion maqsad:

- Nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- Diologik nutqni rivojlantirish;
- Bolalarda hissiy irodaviy doirasi emotsional holatni pontamikani rivojlantirish;
- Bolalar lo'gat boyligi boyitish;

- Rasmlar orqali bolalarda katta kichik kabi qarama-qarshi tushunchalarni farqlashga o'rgatish;
- Fazoviy mo'ljal olish, ijodiy fikrlash qobiliyatini, ijodiy tasavvurni rivojlantirish;
- Umumiy va mayda qo'l motorikasini teri taktil sezgisini rivojlantirish;

Tarbiyaviy maqsad:

- Ertak eshtish odobini shakllantirish;
- Ertakchi bilan guruh bo'lib ishlash malakasini shakllantirish;
- Maktab ta'limiga bo'lgan mehr tuyg'usini uyg'otish;
- Bolada tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- Bolalarda emotsional sferasi: qayg'u, hayrat, quvonch, ishonch tuyg'ularini tarbiyalash va ularni ifodalashga doir piktogramlar jismoniy harakatlar yordamida ifodalash o'rgatish.

Jihozlar:Ertak yuzasidan kartochkali rasmlar, ATK ertak qahramonlarining kortochkali rasmlari mayda motorikanirivojlantirishga doir vositalar, ertak taqdimoti, ertak qahramonlari yumshoq o'yinchoqlari.

1 kun:

Guruh bilan tanishish, bolalar bilan do'stona munosabat o'rnatish:Bolalar bilan salomlashildi Bolalar gilamchaga yarim oy shaklida o'tkazildi. Har bir bola bilan alohida yondashuv olib borildi. Bolalar guruhlantirildi va ular bilan "sujok koptokcha" mayda motorika va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi.

Ertaklar haqida rasmi kartochkalar asosida suhbat qurish: Bolalarni gilamchaga aylana tarzda o'tirdi. Bolalarga ertaklar haqida sodda tushunarli tarzda syujetli rasmlar orqali umumiy tushuncha berildi. Bolalar "Oltin tuxum" ertagini qiziqish bilan kutib oldilar tingladilar.

Artikulatsion gimnastika mayda motorik o'yin o'tkazish: Taqdimot orqali tadqiqotchi logoped tomonidan "Oltin tuxum"ertak qahromonlari ijorisda dastur yaratildi va ushbu dasturni bolalar katta qiziqish bilan qabul qildiva taqdimot asosida bolalar aylana bo'lib o'tirgan tarzda va slaydlar orqali namoyish etilgan

ertak qahramonlari bajarayotgan artikulation gimnastika va unilarni kuylash mashqlarini bajarishadi ular bu jarayoda sujqok kaptokchani aylantirishidi.

Piktagramma terapiyasi orqali bolalarni qiziqishini oshirish: Bolalarga ertak yuzasidan piktagramma rasmlar taqdim etildi har bir rasmda bitta mayda qo'l motorikasi rivojlantirishga doir mashq berilgan bo'lib har qaysi bola o'zi tanlagan rasmdagi mashqni bajarib ko'rsatish o'yinlari tashkil etilidi va bu orqali bolalarda harakat asosida bog'langan nutq so'z boyligi mayda qo'l motorikasini rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarishdi. Har bir topshiriq tadqiqotchi logoped tomidan namoyish etildi:

- Barmoqlarda uchburchak shaklini hosil qilish ;
- Qalamlar bilan barmoqlarni uqallash;
- Ikki kaftda kapalak qanotini hosil qilish;
- Ikki qo'l barmoqlarni jipslashtirib zanjir hosil qilish;
- Zanjirni o'nga chapga aylantirish;
- O'ng va chap qo'llarda koptokchani ushlab 10 marta aylantirish;

2 kun:

Bolalar bilan salomlashish: Bolalar bilan salomlashildi. Har bir bola bilan alohida yondashuv olib borildi. Bolalar bilan "quvnoq labirint" mayda motorika va bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi o'yini o'tkazildi.

"Oltin tuxum ertagi"ertagini taqdimot orqali ifodali o'qish: Bola va tadqiqotchi logoped birga korreksion parta yoniga o'tirishdi bolaga kutilmagan sovg'a sifatida ertak qahramonlarining yumshoq o'yinchoqlari taqdim etildi va sekin mayin ovozda qahramonlar ovoziga taqlid bilan ertak o'qildi:

Tadqiqodchi logoped: (birinchi sahna) Bir bor ekan, bir yo'q ekan, olis o'lkalarning birida qishloqdagi kichkinagina mo'rili uychada chol va kampir yashagan ekan ularning bitta chipor tovuqchasi bor ekan (uycha tovuq rasmi ko'rsatildi boladan tovuq rasmi oldiga uchani qo'yish va talaffuz qilish buyurildi).

(ikkinchi sahna) Chipor tovuqning tumshug'i uzun qanotlari keng ekan u quloq yozganda uchishga shayangandek tayyorlanarkan (turli hil rangdagi tovuqlar rasmi taqdim etildi va chipor tovuq rasmini ko'rsatish so'raldi).

(uchinchi sahna) Chipor tovuq har doim tuxum qo'ygandan so'ng Qu-qu-qu-qu deb quqular ekan. Bu gal ham tovuq odatdagidek ququlabdi (tovuq, jo'ja, tuxum rasmi orasidan tuxum rasmi tanlash so'raldi va tuxum yoniga tovuqni qo'yib boladan tovuqga taqlid qilib ququlash so'raldi).

(to'rtinchi sahna) Bu gal ham tovuq ququlaganda kampir kelib tuxumni olmoqchi bo'lsa tuxum oddiy emas tilla rangda biroz kattaroq uchqurroq va juddayam qattiq ekan (Bolaga rasmlar orasidan kampir rasmi oq va tilla rangdagi tuxumlar orasidan katta tilla rangli tuxumni tanlash so'raldi).

(beshinchi sahna) Cho'l kelib tuxumni olib bolg'a bilan chaqmoqchi bo'libdi lekin chaqa olmabdi. tuxum juddayam qattiq ekan chol va kampir hafa bo'lishibdi. (predmetli rasmlar orasidan) chol va bolg'a rasmini olib ko'rsatish talab qilindi, bolg'a rasmiga bolg'a mulyaji taqdim etildi, bolg'acha bilan tilla tuxum ustiga urush so'raladi tuq-tuq-tuq-tuq.

(oltinchi sahna) Tuxum juddayam qattiq ekan chol va kampir hafa bo'lishibdi, kampir yig'labdi chunki ularning tillatus tuxumdan boshqa hech qanday yeguligi yo'q ekan (bolaga turli hil his hayajoni bildirgan yuz ko'rinishlari taqdim etildi, chol uchun hafa bo'lgan kampir uchun yig'lagan qiyofani tanlash va taqlid etish so'raldi)!

(yettinchi sahna) Cholga yordam berish uchun inidan zangori dumi uzun shalpanq quloq sichqoncha chiy-chiy-chiy deb yugurib kelibdida dumi bilan tuxumni chaqishga harakat qilibdi lekin chaqa olmabdi (turli hil mayda hayvonlar rasmlari orasidan zangori sichqoncha rasmini tanlash sichqoncha ovozigacha chiy-chiy-chiy taqlid qilish so'raldi).

(sakkizinchi sahna) Chipor tovuq Chol va kampirni yig'layotgani ko'rib hafa bo'libdi, va tovuq: "Men sizlarga oddiy tuxum qo'yishga va'da beraman!" Shunda bobo va buvi xursand bo'libdi (bolaga turli hil his hayajoni bildirgan yuz

ko'rinishlari taqdim etildi, chol va kampirning hursand bo'lgan qiyofani tanlash va taqlid etish so'raldi)!

(to'qqizinchi sahna) Kunlarda bir kur kuni kutilgan kuni kelib tovuq yana qa-qa-qa-qa ovoz chiqaribdi. Bobo yugirib kelib qarasa, tuxum oq rangda oddiy dumaloq ekan (oq va tilla tuxum rasmini taqdim etildi tovuq ovozigacha taqlid etish so'raldi Qu-qu-qu-qu).

(o'ninchi sahna) Bobo hursand bo'lib kampirni chaqiribdi kampir va bobo hursand bo'libdi kulib raqsga tushibdi (bolaga turli hil his hayajoni bildirgan yuz ko'rinishlari taqdim etildi, chol va kampirning hursand bo'lgan qiyofani tanlash va taqlid etish so'raldi va "Chip-chip jo'jalarim" qo'shig'i qo'yilib tovuqlar raqsiga taqlid qilib berish so'raladi).

(o'n birinchi sahna) Bobo qarasa oq tuxum qimirlayotgan ekan tuxum juddayam silkinibdi bobo va buvi qo'rqib qochibdi, chipor tovuq kulibdi (boladan oq tuxumni qo'lga olib silkitish so'raladi).

(o'n ikkinchi sahna) Birdaniga tuxum ichidan sapsariq, kichkina, momiqgina jo'ja chip-chip-chip deb yorib chiqibdi bobo va buvi yana hursand bo'libdi sichqoncha ham inidan chiqib raqsga tushibdi (bolaga tuxum silinganda so'ng tuxumdan nima ochib chiqdi deb savol berildi va jo'ja mulyaj taqdim etildi)!

(o'n uchinchi sahna) Chipor tovuq o'zining jo'jasini har kuni kuylashga o'rgatar ekan (tovuq va jo'ja mulyajlarini qo'larda ushlab turib aylana hosil qilib yurish so'raldi).

(o'n to'rtinchi sahna) A-O-U-I-E-O' jo'jacha judda aqli ekan doim onasi ortidan qolmay bog'da sayr qilar ekan jo'jacha katta bo'libdi. U onasi kabi savlatli qulochlari keng tovuq bo'libdi (aylanayurish davomida unli tovushlarni kuylash so'raladi va tadqiqotchi tomonidan taqlid etib ko'rsatildi so'ng jo'jacha va yosh tovuq rasmlari namoyish etilib jo'janing onasi kabi katta tovuq bo'lgani ko'rsatib berish so'raldi).

Ertak yakuniy qismi: Yakka tartibda olib borilgan "Oltin tuxum" ertagiga yakunlandi. Lug'at uchun yangi so'zlar takrorlani har bir o'quvchidan mashg'ulot

yakunida ertak haqida qisqacha so'rovnoma olib borildi so'rovnoma orqali bolalarda ertak qanday tasurot qoldirgani aniqlandi.

Ushbu ertak terapiyasi texnologiyasi tadbiiq etilgandan so'ng qayta tekshirish metodikasi o'tkaziladi va natijalar solishtirma taxlil qilinadi.

5-ilova

1- Mashg'ulot. "KIM BILIMDON? Zumrat va Qimmat"ertagi asosida o'yin terapevtik usuli

Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari uchun odob -ahloq qoidalarini singdirish asosida nutqni rivojlantirish.Ertak terapiyasi tarbiyachi logoped tomonidan saxnalashtiriladi.

Maqsad:

- Bolalar lug'atini mehnat-sevar qilib tarbiyalash, salomlashish odobi, o'zidan kattalarni hurmat qilish, "sizlab" murojaat etish, "Kechirasiz", "Mumkinmi?", "Rahmat", "Marhamat", "Lab-bay", "Ho'p bo'ladi" kabi so'z va iboralari kabi baddiy so'zlar bilan boyitish;
- Bolalar fikrini aniq ifodalashiga, og'zaki nutqini ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Bolarga ertakda bosqichma bosqich o'yin orqali mevalar va poliz ekinlarini farqlashga o'rgatish;
- O'zbekistonning qadimiy shaharlari, zamonaviy texnikasi haqida tasavvurga hosil qilish;

- O'zbek milliy raqslari nomini bilish va musiqadan zavqlanishga o'rgatish; Harakatli o'yinlar orqali motor harakat faoligini oshirish chaqqonlikka o'rgatish;
- Rangli toshlar ustiga bo'yoq to'kib bolalar ranglarni puflash yo'li bilan nafasni rivojlantiruvchi mashqlarni tashkil etish, toshlar ustiga barmoqlar bilan ishlash orqali mayda barmoqlar harakat holatini rivojlantirish;

Kerakli jihozlar: Magnit doskasi, 0 dan 10 gacha tartib sonlar, sehrli sandiq, O'zbekistonning qadimiy shaharlari rangli suratlari, Milliy raqs musiqa audio va rasmlari, o'rmoncha sahna rasmi yovoyi hayvon mulyajlari, rangli bo'yoqlar.

Ishtirokchilar: Zumrad va Qimmat, Tarbiyachi obrazlarida guruh logoped tarbiyachisi va musiqa o'qtuvchisi

Mashg'ulotning borishi: Bolalar aylana stul atrofiga joylashtiriladi. (*Qimmat sandiqchani olib kiradi*).

QIMMAT: — Uf! Rosa char-chadim, og'ir ekan! (*Sandiqni stol ustiga qoyib, stulga o'tiradi*). Voy! Bu yerda bolalar bor ekan-ku! Hoy bolalar, bilasizlarmi Zumrad uxlab yotgan ekan, men sandig'ini sekingina olib qochdim, bilmay qoldi, zo'r bo'ldi-da! deydi.

TARBIYACHI: — Hoy, Qimmat opa, yaxshi ish qildim deb o'ylamang. Siz birovning sandig'ini so'ramasdan olib keldingiz, bu — yaxshi ish emas. Tog'rimi bolalar? deb bolalardan so'raydi.

QIMMAT: — Hoy, nima ishing bor?

TARBIYACHI: — Qimmat opa, odob-siz ekansiz! Bu yerdan tezroq keting, biz odobsizlarni yomon ko'ramiz deb bolalar tomonga qaraydi! va bizning bolalarimiz juda odobli. Biz odobli, aqlli, dono, bilimli bolalarni yaxshi ko'ramiz. Bizning bolalarimiz esa aynan shunday. Eshikdan kirib kelganda, nima deyish kerak, bilasizmi, Qimmatoy? deb savol beradi.

TARBIYACHI: - Bu juda ham kerakli, yoqimli so'z, qani bolajonlar Qimottoyga bu so'zni o'zimiz o'rgataylik deydi.

BOLALAR: arilla "Assalomu alaykum", deyishadi.

TARBIYACHI: Bolalar, Qimmatoyga bu so'zning ma'nosini aytib berimizmi? deyidi.

TARBIYACHI: - "Assalomu alaykum" degani "Sizga sihat-salomatlik tilayman" deganidir deb aytadi va N. Shodiyevning "Salom" she'rini ifodali aytib beradi:

Har kun tongda turaman
Dildan quvnab yuraman
Quyosh, maysa, o'tloqqa,
Duch kelgan do'st-o'rtoqqa.
Yayrab, desam: "Assalom",
Zavq olaman bir olam.

Salom so'zi muqaddas,
Salom o'zi muqaddas.

Tog'a, hola, ammaga Salom deyman hammaga.

"Rahmat, dono bolam", der,

"Gullasin bu olam", der.

BOLALAR: Qarsak chalishadi!

TARBIYACHI: Endi, Qimmatxon, bu sandiqni egasiga qaytarib, kechirim so'rab, kelishi kerakmi deb bolalarda so'raydi?

TARBIYACHI: Kechirim so'rash ham yaxshi odat deydi.

QIMMAT: - Yo'q, bu sandiq endi meniki, uning ichidagi narsalar ham menga! Qani, ochib qaraylik, nima bor ekan-a. deydi. (*Eshik taqillaydi*).

TARBIYACHI: - Iya, bu kim bo'ldi ekan? (*Zumrad kirib keladi*).

ZUMRAD: — Assalomu alaykum! Bolalar, bog'changizga kelish uchun sovg'alar tayyorlagan edim. Lekin qo'ygan joyimdan g'oyib bo'lib qolibdi. (*Zumrad sandiqni ko'rib qoladi*). Voy, mana, men sizlar uchun tayyorlagan sehrli sandiq! Bolalar, buni kim olib keldi? deydi.

BOLALAR: — “Qimmat” deyishadi!

ZUMRAD: — Qimmat, qayerga yashirinib oldingiz? Bu yoqqa chiqing deydi. (*Qimmat yashiringan joyidan chiqib keladi*.)

ZUMRAD: Bolalar Qimmatning qilgan ishi to'g'rimi?

BOLALAR: - Yo'q, to'g'ri emas.

QIMMAT: (*O'zinig qilgan ishidan uyalib, Zumraddan, bolalardan, tarbiyachi opadan kechirim so 'raydi*). Meni kechiringlar!

TARBIYACHI: -Bolalar, Zumradxon! Qimmatni kechiramizmi?

BOLALAR: - Ha.

QIMMAT: — Rahmat sizlarga. Zumrad opa, keling, ikkimiz do'st bo'lib, bolalarning nutqi qanchalik ravon, aqli, topqirligini, bilag'onligini aniqlaymiz.

ZUMRAD: - Mayli. (*Bolalarga murojaat qilib*). Endi sehrli sandiqni ochaman! Menga va Qimmatga yordam berasiz, men sizlarga turli-tuman topshiriqlar to'plab kelganman deydi.

ZUMRAD: Topshiriqlarni ketma-ket o'qiy boshlaydi. Har bir bola uchun topshiriqlar beriladi

1. Meva va poliz ekinlarini nomini ayting va ajrating. Stol ustiga meva hamda poliz ekinlari namunalari joylashtiriladi. Bittadan bola kelib, qaysi shaklni olsa, uni o'z o'rniga joylashtirishi lozim. Masalan, mevalarni daraxtga iladi, poliz ekinlarini egatga qo'yib, joyiga o'tiradi.

2. Rangli toshlar ustiga bo'yoq to'kib, puflash yo'li bilan hosil bo'lgan shakllarni ayting. (*Javoblar ixtiyoriy tarzda qabul qilinadi.*)

3. Raqamli kartochkalar orasidan 3, 5 sonlarining qo'shni sonlarini aniqlang.

4. Sehrli o'rmon chizilgan rasmga qarab, unda yashovchi biror hayvon nomini ixtiyor ayting yoki ovozigaga taqlid qilib bering.

5. O'zbekiston shaxarlari orasidan Toshkent, Samarqand, Buxoro rasmlarni olib bering.

6. Zamonaviy texnik elektr quvvat bilan ishlovchi qurilmani ko'rsating vositani ko'rsating. (telefon, hisob chot, kompyuter, kitob)

7. O'zbek milliy raqslari musiqasini tinglab rasmni ko'rsating va raqsga taqlid qilib bering. (*Andijon polkasi, Lazgi, Sharti: har bir javob raqs ijrosi bilan isbotlanadi.*)

Na'munaviy ishlab chiqilgan ertak terapiyasini sahnalashtirish orqali alalik bolalar o'g'zaki nutqi lug'at boyligi fonetik-fonematik eshituv birligi, bilish jarayinlari hissiy irodaviy doirasiumumiy mayda motorikasi va shu bilan bir qatorda umumiy rivojlanish dinamikasi rivojlanishga hissa qo'shadi. Shu ertak asosida turli hil tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ertaklarni tanlab olib terapevtik usullar orqali ertakni sahnalashtirish mumkin.

№	Tayanch so'zlar		
1.	Analizator	Analyzer	Анализатор
2.	Analiz	Analysis	Анализ
3.	Artikulyatsiya	Articulation	Красноречивый
4.	Lug'at boyligi	Dictionary	Словарь богатства
5.	Bilish jarayoni	Knowledge	Процесс резки
6.	Idrok	Reasoning	Восприятие
7.	Artikulyatsiya mashqlari	Articulation exercise	Артикуляционные упражнения
8.	Bolaning lug'ati	Childlexicon	Детский словарь
9.	Bosh miya	Mainbrain	Мозг
10.	Verbal muloqot	Verbal conversation	Устное общение
11.	Jarayon	Process	Процесс
12.	Motor alaliya	Speech apraxia	Мотор алалия
13.	Didaktik o'yin	Didactic game	Дидактическая игра
14.	Rivojlantirish	Develop	Развитие
15.	Natijalar	Results	Результаты
16.	Tashkil etish	Organize	Решение об учреждении
17.	Tavsif	Characterization	Определение
18.	Tayyorlash	Preparation	Получение
19.	Pedagogik ish	Pedagogical work	Педагогическая работа
20.	Nazariya	Theory	Теория
21.	Rivojlanishida nuqsoni bor bola	Children with dopmental disorder	Ребенок с нарушениями развития
22.	Korreksiya	Correction	Коррекция
23.	Kompensatsiya	Compensation	Компенсация
24.	Nutq	Speech	Речь
25.	Nutqsiz	Without speech	Без речи

26.	Nutqning rivojlamangan	Complete develop speech	Речь недоразвита
27.	Nuqson	Disorder	Этот дефект
28.	Nutq fonetikasi	Developed speech by	Фонетика речи
29.	Nutqning to'liq rivojlanmaganligi	Breaches of to speed development	Неполное развитие речи
30.	Nafas mashqlari	Breath lessons	Дыхательные упр
31.	Ertak	Fairy-tale	Сказка
32.	Terapiya	Teraphy	Терапия
33.	Qum terapiya	Sand teraphy	Песочная терапия
34.	Musiqa terapiya	Music teraphy	Музыкальная терапия
35.	Piktagramma terapiya	Pictogram teraphy	Картинная терапия
36.	Nuqson	Anomaly	Этот дефект
37.	Ovoz	Voice	Голос
38.	Psixik funksiyalar	Mental functions	Психические функции
39.	Reabilitatsiya	Rehabilitation	Реабилитация
40.	Refleks	Reflecs	Рефлекс
41.	Logopediya	Logopegics	Логопедия
42.	Logoped	Logopedist	Логопед
43.	Logopedik o'yinlar	Speech therapy game	Логопедические игры
44.	O'yin	Game	Игра
45.	Eksperissiv lug'at	Expressive speech	Эксперимент.словарь
46.	Muommo	Problem	Проблема
47.	Rivojlantiruvchi t	Devolopment	Развивающее образование
48.	Natija	Result	Результат
49.	Tashxis	Analysis	Диагноз
50.	Magistrlik desertatsiya	Master's dissertation	Магистерская работа

Logopediya kafedrası p.f.n., dots: Z.M.Axmedova

Logopediya mutaxassisligi 2-kurs magistranti Dilbar Matkasimovaning

“Alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘zbek xalq ertaklaridan foydalanish” mavzusidagi

magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar Xulosasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakillantirish, o‘shida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror yuzasidan bolalarni ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga va qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yo‘llash bo‘yicha tibbiy-psixologik pedagogik komissiya to‘g‘risidagi nizom tayyorlandi”. Ushbu nizomga ko‘ra, tibbiy psixologik pedagogik komissiya xulosasini berish uchun asos bo‘ladigan tibbiy ko‘rsatmalar ro‘yxatini 3-bandida ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilingan nutqida nuqsonga ega bo‘lgan bolalarga tashxis qo‘yish jarayoni aniq ko‘rsatib berilgan.

Maktabgacha logopediyaning eng dolzarb masalalaridan biri nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga faol tayyorgarlik ko‘rishida ko‘maklashishdan, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar kamchiliklarini bartaraf etib, ularni sog‘lom tengdoshlari singari ta’lim tarbiya olishi mazkur bolalarni jamiyatimizga integratsiyalashtirish kabi masalalari hisoblanadi. Nutq buzilishi, nutqiy muammolar cheklanganligi bola shaxsining shaklanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, aslida bo‘lmagan ruhiy buzilishlarni hamda hissiy irodaviy kamchiliklarni yuzaga keltirish va bu orqali uning harakteridagi salbiy xulqni rivojlanishini keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalardagi nutqiy faoliyatni rivojlantirish hamda undagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga, nutqiy faoliyati rivojlanmaganligi bilan birga namoyon bo'ladigan motor va bilish jarayonlaridagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish sohaning asosiy muammolari hisoblanadi. Alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar bilishi, motor rivojlanish hususiyatlari rivojlantirishga doir maxsus dastur, qo'llanmalar, ishlanmalar, ko'rgazmali materiallarning kamligi sababli ushbu muammo dolzarb deb topildi, hamda mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos qilib olindi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda Matkasimova Dilbarning "Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklaridan foydalanish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi dolzarb muammoni tadqiq etisha bag'ishlangan. Mavzuning dolzarbligini magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida batafsil, aniq ma'lumotlarga tayangan holda yoritilgan.

Dissertatsiya mavzusi Logopediya mutaxassisligiga mos bo'lib, maktabgacha tarbiya yoshidagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklarining o'rni va korreksion axamiyatini o'rganish va kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni qamrab olgan.

Dissertatsiyada tadqiqot maqsadi, ob'yekti, predmeti, vazifalari aniq belgilangan.

Muammoga bog'liq holda o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi alalik bolalar nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklaridan foydalanish texnologiyasi bo'yicha metodik tavsiyalar yoritilgan. Bu esa tadqiqotning amaliy qiymatini oshiradi.

Bizning respublikamizda hozirgi vaqtgacha maktabgacha tarbiya yoshidagi alalik bolalarning nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklaridan foydalanish muammosi o'rganilmaganligi sababli magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Magistrant D. Matkasimova dissertatsiyada tadqiqotning ilmiy yangiligini asoslab bera olgan.

Dissertatsiya yozishda magistrant ijodiy yondashgan, mavzuga doir ilmiy, pedagogik, psixologik, metodik manbaalarni o‘rganib, keng qamrovli taxlil qilgan va tegishli xulosalar chiqara olgan. Tadqiqot tajriba sinov metodikalari berilib, son va sifat jihatdan taxlil qilingan.

Dilbar Matkasimova tomonidan tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasi ushbu turdagi ishlarga qo‘yilgan Nizom talablariga mos keladi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

Logopediya kafedrasi p.f.n., dots:



Z.M.Axmedova

bosqichda o'quvchilar o'z fikrlarini yozma tarzda bayon qila olishlari lozim. Matnda ulardan o'zlarining shaxsiy nutqiy nazarlarini aniq ifodalashlari talab etiladi. Matn orqali boshqalarning fikrlari, nuqtai nazarlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari kerak.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilardan faqatgina chet tili darsliklari bilan cheklanib qolmasdan hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil ta'limning negizi bo'lgan mustaqil ishlar mashg'ulotning faol turi bo'lib, uni bajarish jarayonida o'quvchilar erkin fikrlashga va faoliyat yuritishga o'rganadilar. Chet tili darslarida mustaqil ishni bajarishdan oldin o'quvchilar mazkur jarayonga tayyorlanadi. Ularga beriladigan topshiriqlarning maqsadi qisqa va aniq qilib tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matn hajmi kichik va o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi lozim. Uni tanlashda o'quvchining tayyorgarligi, o'tilgan matnning xarakteri hisobga olinadi. Masalan: so'z turkumi "Sifat" mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar mavzu borasida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini boyitish hamda ularning og'zaki va yozma nutqida bu so'z turkumidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim orfografik qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Sifatning lingvistik xususiyatlari juda murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim kategoriyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarining qanchalik zarurligi hisobga olinadi. Chet tili fanidan amaliy bilimlarni berishda, mustaqil fikrlashga o'rgatishda "Krossvord", "Iztopar", "O'zim tekshiraman", "Zanjir", "Sirlil so'z" o'yinlari muhim o'rin tutadi. Qiziqarli o'quv materiali, didaktik o'yinlar, muammoli vazifalarni hal etish, testlar, musobaqa, seminar darslar, muzokaralar jarayonida o'quvchilarning mustaqil bilimga qiziqishi namoyon bo'ladi. O'quv ma'suliyati va javobgarlikni his qilish, puxta bilim olish burchi ekanligini anglash, topshiriqlarni mehr bilan bajarishga kirishish uchun ham imkon yaratiladi. Hulusa qilib shuni aytish mumkinki, chet tili fanidan mustaqil ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni har tomonlama savodxon bo'lishga, mustaqil ravishda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga zamin yaratadi.

РУХИЙ РИВОЖЛАНИШИ СУСТЛАШГАН БОЛАЛАР НУТҚИЙ КАМЧИЛИГИНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ

Маткасимова М., Низомий номидаги ТДПУ 1-босқич магистранти

Нутқ бу – олий психик жараёнлардан бири бўлиб, у тафаккурнинг махсули ҳисобланади. Нутқ бу- мулоқот воситасидир. Инсон ўз нутқи билан бошқа мавжудодлардан фарқ қилиб туради. Ана шу нутқ натижасида йилдан-йилга инсон онги, тафаккури кенгаймоқда, фан-техника ривожланмоқда. Нутқни ўз вақтида тўлиқ эгаллаш, бола руҳиятини ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Тил нутқ орқали тушунтирилади ва тарқалади. Тилнинг хусусиятлари, функцияси, структураси ва ривожланиш йўллари билиш махсус педагогикада муҳим ўрин тутади. Ривожланишида камчилиги бор болалар орасида руҳий ривожланиши сустрлашган болалар ҳам мавжуд.

Рухий ривожланиши сустрлашган болалар нутқи меъёрда ривожланаётган болаларга нисбатан ривожланиши ва шаклланиши нуқтаи-назардан бирмунча орқада қолади. Рухий ривожланиши сустрлашган болаларда гугулаш даври, биринчи бўғинлари, сўзларининг пайдо бўлиши соғлом болаларга нисбатан анча кеч ривожланади. Бу тоифада нутқнинг шаклланиши талаффуз камчиликлари билан кечади. Рухий ривожланиши сустрлашган болаларда нутқни ривожланиши ва билиш фаолиятларининг онтогенезда нутқ ва таффакурнинг номутаносиблиги билан кечади. Бундай болаларда нутқ бузилишларининг бирламчи ва белгиловчи нуксони бу семантик компонентининг бузилиши ҳисобланади. Интеллектуал етишмовчиликнинг муҳим белгиларидан бири, олий психик функцияларнинг ривожланмаганлиги, улар оқибатиданутқий функцияларнинг ривожланмаслигидир. Ушбу болаларнинг кўпчилигида мураккаб турдаги нутқий нуксонлар кузатилади. Бу тоифадаги болаларни аксарият қисмида ҳам импрессив, ҳам экспрессив, ҳам оғзаки, ҳам ёзма нутқ

камчиликлари нуткида товушларни талаффузқилаётган вақтда кузатилади, товушларни дифференциация қилиш пайтида қийинчиликларга дуч келадилар. Бу тоифага кирувчи болаларни ўзига хос томонларидан яна бири, боғланган нуткидир. Тингланган хикояларни қайта сўзлаб беришда қийинчиликларга учрайдилар, улар суъратларга қараб хикоя тўзилишлари ҳам мушкул, мустақил ҳолда хикоя ўзиш етарли шаклланмаган. Савол жавоб вақтида асосий фикрлари бошқа фикрлар билан чалғиб кетади.

Клиник ва нейрпсихологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, руҳий ривожланиши сустлашган болалар нутки кечикиб шаклланади, нутқ фаоллиги суст бўлади, нутқий ҳаракатлар операциясида ҳам қийинчиликларга дуч келадилар. Бундай болаларда луғат бойлиги чегараланган бўлиши, тушунчаларни торлиги ва уларни умумлаштиришда қийинчиликлар кузатилади.

Руҳий ривожланиши сустлашган болаларда нутқ камчиликларни бартараф этиш жараёни доимий ва тизимли кетма-кетликка асосланган ҳолда олиб борилиши мақсадга мувофиқдир. Товушларни талаффуз қилиш маданиятини шакллантиришдаги услуб ва методлар фонематик идрок, боладаги нутқ ривожланиш даражасига қараб олиб борилади.

Коррекционлогопедикашларқуйидаги босқичларасосидаамалгаоширилади:

1) ниқкиламчи камчиликларни олдини олиш учун нутқ фаолиятига эрта таъсир кўрсатиш.

2) нутқни ҳартарафламо ривожлантириш (фонетик – фонематик, лексик грамматик).

Ушбу босқичлар асосида олиб борилган иш фаолияти болаларга мустақил боғланган, грамматик жихатдан тўғри нутқни эгаллашга, она тилини саводли ўзлаштиришга ёрдам беради.

Коррекцион ўқитишни асосий вазибалари қуйидагилардан иборат:

- Нутқини фонетик – фонематик, лексик грамматик томонларини эгаллаш.

- товушлар талаффузини шакллантириш, сўзни бўғин структурасини, фонематик эшитиш, фонематик идрокни ривожлантириш;

- саводхонликни ошириш учун боғланган нутқини шакллантириш.

Товушларни ўрганиш жараёнида бола уларни ажратишга ўрганади. Товушларни солиштириш боладаги фонематик идрокни ривожлантиришга туртки бўлади. Қўйилган товушлар бўғинларда, сўзларда, гапларда мустаҳкамлаб борилади. Эшитиб хотирада саклаш қобилиятини ривожлантириш учун махсус машғулотлар олиб борилади.

Расмларни номлаш жараёнида талаффуз қилинаётган сўз охиридаги товушни ажратиш (пиёла, нон, коса, гул, дераза, кўза). Болани нутқига қўйиладиган товуш чўзиб талаффуз қилинади.

Руҳий ривожланиши сустлашган болаларни нутқининг фонетик-фонематик камчиликларни бартараф этиш жараёни тўртта босқични ўз ичига олади, ва изчил кетма – кетликда тўғри талаффузни шакллантириш учун олиб борилади.

1. Биринчи босқичда логопед артикуляция органларини товуш қўйишга тайёрлаши лозимдир. Бунинг учун артикуляцион аппарати ҳаракат қанлигига доир машқлар олиб борилади. Иккинчи босқичда эса логопед барча маълум усуллардан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир.

2. Логопед болаларга маълум бир товушни артикуляциясини кўрсатади (аниқ ва тўғри). Бола эса ушбу товуш артикуляциясини логопедга такрорлаб бериши лозим.

3. Ушбу босқичда қўйилган товушга доир бўғинларда ифодаланади, сўнгра аста – секин сўзлар ва гап тузилмаларига киритиш мумкин.

4. Бу босқичда болага аралаш жарангдорлиги ва талаффуз билан бир-бири билан яқин бўлган сўзларни ажратишни ўргатилади.

Болалар билан логопедик ўйинлардан ҳам фойдаланиш ижобий натижаларни беради. Қуйидаги логопедик ўйинлардан наъмуналар келтирамыз.

“Сайрда” ўйини

Мақсад: луғат бойлигини ривожлантириш, жумлаларни тўғри гапириш, моторикани ривожлантириш.

Жиҳоз: предметли ва сюжетли расмлар, табиат акс эттирилган муляжлар.

Ўйиннинг бориши: логопед – болалар, бугун сиз билан далага сайрга чиқамиз. Далада нималар пишган бўлса, териб келамиз. Болалар кўлларига саватчаларни оладилар. Қаранглар, далада нималар пишибди? Ким нима узди. Болалар саватларига помидор, бодринг, сабзи, баклажон, карам солдилар. Логопед боланинг олган нарсасига қараб унга савол беради. Бу сабзавотларнинг одам организми учун қандай фойдаси борлиги болаларга тушунтирилиб, савол-жавоб ўтказилади.

“Нон бизнинг бойлигимиз” шеърий ўйин
Мақсад: болаларнинг лугат бойлиги, нутки, тафаккури, хотира ва диққатини ривожлантириш.

Жихоз: лой ва пластилиндан ясалган нон, бугдой, нон акс эттирилган предметли ва сюжетли расмлар.

Ўйиннинг бориши: логопед болаларга қарата шундай дейди: болажонлар, нон-неъматларимиз орасида энг азиз нарса нима? – тўғри нон. Нон нимадан тайёрланади? – тўғри бугдойдан. Бугдой қаерда ўстирилади? – тўғри далада. Дехкон боболаримиз баҳордан кузгача меҳнат қилиб бизга бугдой етказиб беради. Бугдойдан ун тайёрланади. Ундан нималар пиширамыз?

Тўғри- патир, булочка, лочира, ширинликлар, бўғирсоқ, кулчатой... Ҳам мамиз яхши билар эканмиз. Келинлар биргаликда “Ширин кулча ёпамиз” шеърини ўрганамиз.

Ширин кулча ёпамиз,
Дастурхонга тортамыз,
Қаранг қандай мазали,
Ҳам чиройли жиззали,
Шакар, тухум соламыз,
Ширин кулча ёпамиз,
Ҳаммани чақирамыз,
Зур дастурхон тўзалди,
Ширин кулча ейишди,
Бизга раҳмат айтишди.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ ДУДУҚЛАНУВЧИ БОЛАЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН ЛОГОПЕДИК ИШ МЕТОДИКАЛАРИ

Махкамова У., ТДПУ мустақил изланувчиси

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»¹³ги, 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198-сонли «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонлари Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 19 июлдаги 528-сонли «Мактабгача таълим муассасаларининг фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги, 2017 йил сентябрдаги ПҚ-3261-сонли «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ва мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқ ҳужжатларда белгиланган вазифаларни бажаришни тақозо этади. Бола шахсининг ҳар қандай томонлама ривожиди нутқ аҳамияти катта. Агар бола янги, аниқ таассуротлар олиб турмаган бўлса, унинг ҳаракатлари ва нутқининг ривожланиши учун зарур шароит яратиб берилмаса, унинг боладаги жисмоний ва рухий ривожланиш орқада қолади. Демак, нутқнинг тўғри тарқатилиши атрофдагилар нутқига, нутқий тажрибага, тўғри нутқ муҳити ва таълим-тарбия буюмига боғлиқ. Шунинг учун, ота-оналар, логопедлар, тарбиячилар болаларда ўз вақтида унинг нутқида учрайдиган нуқсон ва камчиликларни олдини олишлари зарур.

¹³Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Тошкент, 2017. – Б.39.

Defektologik xizmat

gan tovushlarni mustahkamlash;

8. So'z tarkibidagi alohida tovushlarni eshita bilish. Aniq kinestetik va eshitish sezgilariga tayangan holda olib borilgan tovush analizi va sinteziga oid mashqlar o'z navbatida nutq tovushlarini o'zlashtirishga, o'z talaffuzi ustida mustaqil nazorat ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam beradi.

Korreksion-logopedik ishning uchinchi davri.

Korreksion logopedik ta'limning uchinchi davrida asosiy vazifalar quyidagilar:

1. Nutqqa qo'yilgan barcha tovushlarni mustahkamlash.
2. Tovush analizi malakalarini mustahkamlash;
3. Nutqning leksik grammatik tomonini takomillashtirish.

Bu davrning maqsadi nutqiy muloqot sharoitida fonematik idrok va to'g'ri tovush talaffuzi ko'nikmalarini mustahkamlashdir. Bu ishda mustaqil nutqda faqatgina tovushlarning to'g'ri talaffuzini shakllantiribgina qolmay, balki bolalarning lug'atini boyitish, nutqning grammatik tizimini takomillashtirish, nutqning tempi va ravonligini rivojlantirish, takomillashtirishga oid mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bolalarda tovush analizi malakalarini shakllantirishga oid korreksion ishlar davom ettiriladi.

Bunda ish harakatining quyidagi algoritmidan foydalaniladi:

1. So'zlardagi tovushlarni baland ovozda takrorlab to'g'ri talaffuz qilish.

2. So'zdagi har bir tovushni eshitish va tovushni tovushdan ajrata bilish.

3. So'zdagi tovushlarni navbat bilan aytish, fikrsiya yo'li bilan so'zlardagi tovushlarning soni ketma-ketligini aniqlash.

Logopedik mashg'ulotlarda alohida operatsiyalarni bajarish bilan birga nutqiy materialning analiz va sintezi bilan bog'liq harakatlar tizimi qayta ishlanadi. Shuningdek, ushbu mashg'ulotlarda artikulyatsion va akustik belgilari jihatidan o'xshash tovushlar differensiyasiga oid turli usullar qo'llaniladi. Mashg'ulotlarda bolalar diqqati, xotira, tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, solishtirish, umumlashtirish), nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqillikni rivojlantirish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Tarbiyachi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda bolalarda atrofda predmet, hodisalar haqida tasavvur hosil bo'ladi va ularni bir tizimga solish, tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tanishtirish bilan bir vaqtda bolalarning lug'at boyligi kengaytiriladi, so'zlashuv va mustaqil nutq rivojlantiriladi. Ta'lim va tarbiya berish jarayonida bolalarning nutqiy taraqqiyotidagi kamchiliklarni bartaraf etish uni maktabda ko'nikma va malakalar olishga tayyorlashdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. M.Yu. Ayupova. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasufi jamiyati. 2007.
2. Волкова Л.С., Туманова Т.В. Фонетико-фонематическое и общее недоразвитие речи / под ред. Л.С. Волковой – М.: ВЛАДОС, 2003.
3. L.R. Mo'minova, R. Shomaxmudova. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. – T.: 1981.

ALALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Z.M. Axmedova,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b.

D. Matkasimova,

mazkur universitet magistratura bosqichi talabasi, 52-maxsus maktab logopedi

Алиалия – нарушение речи при нормальном слухе и интеллекте, развивающееся на фоне органического поражения мозга. Для развития лексики у детей с алиалией наиболее часто используют дидактические игры. Они содержат в себе большое количество речевого и наглядного материала, который позволяет развивать пассивный и активный словарь.

Ключевые слова и понятия: нарушение речи, алиалия, моторная и сенсорная алиалия, коррекция, дидактические игры.

Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor etadi hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Bilish faoliyatining holati, atrofda qilgan bilan bolaning muloqotga kirishish imkoniyati, odob-axloq me'yorlarini o'zlashtirish, ijtimoiy adaptatsiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Alaliyada nutqning barcha tomonlari va funksiyalarining tizimli rivojlanmaganligi kuzatiladi. Alalik bolalarda lug'at boyligining kamligi, bog'langan nutqning qisman bo'lishi yoki umuman yo'qligi kuzatiladi. Alalik bolalarda nutq apparatining nozik harakat koordinatsiyalari shakllanmaydi, nutq buzilishi bolaning aqliy rivojlanishiga, ayniqsa bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta'sir etadi.

The article deals with the tasks and forms of active participation of a psychologist in the work of a pedagogical collective and public authorities of an educational institution. Its leaders and a psychologist are given specific recommendations on determining

Key words and concepts: psychological service in general schools, meetings, pedagogical councils, methodological councils, school staff, practical psychologist.

Alaliyaning motor va sensor turlari mavjud. Motor alaliyalik 70 foiz bolalar o'ziga qaratilgan nutqni to'la tushunadilar, 20 foiz bolalarda tushunish biroz pasaygan va 10 foiz bolalar yomon tushunadilar, biroq bunday hollarda bolalarning o'z nutqi har doim tushunishiga qaraganda yomonroq bo'ladi [1]. Ko'pincha tovushlarni aniq idrok qilolmaganliklari sababli bolalar jumalarning faqat alohida elementlarini olib oladilar va ularni yagona mazmun tuzilishiga bog'lay olmaydilar. Tushunishning bunday chegaralanganligi asosiy nuqsonning ikkilamchi ko'rinishi hisoblanadi. Alalik bolalarda lug'at boyligi sekin, nutqiy amaliyotda noto'g'ri foydalanilgan holda rivojlanadi. Alalik bolalarda grammatik vositalarni qo'llashda variativlik yetishmaydi, deyarli barcha grammatik shakllarni farqlash va qo'llash murakkablashgandir. Bunday bolalar logoped nazoratida bo'lishi lozim.

Alalik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarda o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarni beradi. Ha

мактабга ҳар томонлама тайёрлаш вазифаларини ҳам ўз ичига олади. Болаларда товушлар талаффузидаги камчиликларни тўғрилаш товушларни тўғри йўлга кўйиш ва айтиш вақтида фонематик идрокни ҳам ривожлантиришдан иборатдир.

Логопедик машғулотларда куйидаги ишлар амалга оширилади:

- равон нутқни шакллантиришга доир машғулотлар;
- талаффузни шакллантиришга доир машғулотлар.

Логопед болаларнинг нутқий нуқсонларини коррекциялашда фронтал машғулотлар, кичик гуруҳларга оид ва яқка тартибдаги машғулотлардан фойдаланади. Бу машғулотларнинг асосий вазифаси - нутқни ривожлантириш, умумий хулқ-атвори ва нутқий нуқсонларини бартараф қилишдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Аюпова М. Логопедия. - Т.: 2007.
2. Краузе Е.Н. Логопедия. - М.: 2006.
3. Лалаева Р.Н. Логопедическая работа в коррекционных классах. - М.: 2001 год

БОЛАЛАРДА БАРМОҚЛАР ҲАРАКАТЧАНЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ

Низомий номидаги ТДПУ П.ф.н.доц:

З.М.Ахмедова

1-курс магистранти Д.Матқасимова

Нутқ - бош мия ва нерв системасининг бошқа бўлимининг функцияланишини келишилган ҳолда амалга оширилишидир. Нутқ фаолиятини амалга оширишда эшитиш, кўриш, ҳаракатлантирувчи ва кинестетик анализаторлар иштирок этишади. Л.В. Фомина болаларни турли муассасаларда кўриқдан ўтказди ва нутқ даражасининг ривожланиши ҳар доим кўл бармоқларининг нозик ҳаракатини ривожланиш даражаси билан ҳамбарчас боғлиқ эканлигини аниқлади. К.П.Беккер ва М.Савак қарашларида шундай фикрлар мавжуд. "Агар нутққа ҳаракат жараёни нутқни назаридан қарасак, унда нутқ актининг бузилишини ҳаракат бузилиши сифатида шарҳлаш мумкин. Бу бузилиш баъзан алоҳида нутқ бузилиши сингари намоён бўлади, яъни йирик моторикага тегмайди. Аксинча, йирик моториканинг бузилиши ўзининг ортидан нутқ бузилишларида намоён бўлувчи майда моториканинг бузилишини келтириб чиқаради. Бу ҳолда нутқ бузилишлари мотор марказлари ва йўллари шикастланиши туфайли келиб чиққани каби, нормал ҳаракат жараёнларининг функционал орқада қолиши туфайли ҳам нутқ бузилишлари юзага келиши мумкин"¹.

М.М.Кольцованинг илмий ишларида шундай жумлалар мавжуд: "Кўл бармоқларининг ҳаракатларини машқ қилдириш бўйича олиб бориладиган ишни жуда эрта, боланинг 3-4 ойлигидан бошлаш мумкин. Дастлаб бу иш гўдакнинг кўл панжаларини массаж қилиш ва пассив буклаш ва ростлашдан бошланади. 7-8 ойликдан фаол машқларга бемалол ўтиш мумкин. Бунда

¹ Хрестоматия по логопедии под ред. Л.С.Волковой., В.И.Селивёрстова. - М.: 1997.

теришга ўргатиш.

“Бармоқларнинг майда ҳаракатини машқ қилдириш бўйича олиб бориладиган тизимли иш нутқ ривожланишини тезлаштириш билан бир қаторда бош мия пўстлогининг иш қобилиятини оширувчи кучли воситадир, у болалар диққатини, хотирасини, кўрув ва эшитувини яхшилайти”² – деган фикрни билдирган М.Аксёнова.

Тасвирий фаолият болалар ҳаётида муҳим аҳамият касб этади. Майда қўл моторикаси ҳаракатчанлиги бузилган болалар меъёрдаги ривожланган тенгдошларидан расм, графикани чизиш бўйича орқада қоладилар. Уларда элементар чизиш кўникмаларигина шаклланган бўлади. Тасвирий фаолият машғулотларида болалар атрофдаги предметларни тасвирлаш учун керак бўлган кўпгина амалий кўникмаларни ўзлаштирадилар. Бунда болаларнинг кўрув ҳаракат координатсияси, чамалаш малакалари такомиллашади. Мактабга бориш даврида болалар кўпгина содда чизмалар, графикалардан фойдалана оладилар. Тасвирий фаолият таълими яхши ташкил этилган жараёнда болаларнинг кўпгина психологик, нутқий ва майда қўл моторикалари, билиш фаолиятлари ривожлантириб борилади. И.М.Соловьёв расмнинг коррекцион-ривожлантирувчи аҳамиятини таъкидлаб, расм боланинг билиш жараёни, эстетик дидини ривожлантириш билан бирга ички ва ташқи нутқни шакллантиришда муҳим аҳамият касб этишини таъкидлаб ўтган эди.

Тасвирий фаолият машғулотларида чизилган расмлар болаларда келажак ҳақида, атроф олам ҳақидаги билим ва тасаввурларини ривожлантиради.

Расм чизиш мулоқотга кириша олмайдиган, камгап ёки умуман гапирмайдиган болалар билан мулоқотга киришишнинг энг яхши йўлидир. Болаларга турли мавзуларда воқеабанд (турли хил эртаклардан лавҳалар), предметли расмлар, эркин мавзу, яъни боланинг ўзи хоҳлаган расмларни чиздириш (куз, ёз, қиш, баҳор фасллари) улар билан мулоқотга киришишнинг бир йўлидир. Берилган вазифалар болаларнинг кўрув ва мотор ҳаракатини, қабул қилиш қобилияти, нарсанинг шакли, катталиги, ранги, предметнинг тузилишини билиш қобилиятларини аниқлашга ёрдам беради.

Тасвирий фаолият машғулотларида тарбиячи болаларга қаламни тўғри ушлаш, қоғоз бўйлаб тўғри чизиш, қоғознинг ўртаси, ўнг томон, чап томон, вертикал, горизонтал ҳолатлар каби тушунчаларни тушунтириб боради. Бундай машғулотлар орқали болаларнинг майда қўл моторикалари ривожлантириб борилади. Майда қўл моторикасининг ривожланиши мактабда тўғри ва чиройли ёзиш гаровидир. Қуйида биз майда қўл моторика ҳаракатчанлигини ривожлантиришга оид ўйинлардан мисоллар келтирамиз.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ахмедова З., Аюпова М., Хамидова М. Логопедик ўйин. -Т.: 2013.
2. Аюпова М.Ю. Логопедия. - Т.: 2007.
3. Аксёнова Л.А. Социальная педагогика в специальном образовании. – М.: Академия, 2001.

² Аксёнова М. Социальная педагогика в специальном образовании. – М.: Академия, 2001.

**Magistraturaning Logopediya mutaxassisligi 2 – kurs magistranti
Matkasimova Dilbarningning « Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan
bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklaridan
foydalanish» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoevning “2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori yosh avlodni ma'nan va jismonan komil insonlar qilib tayyorlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur qarorni amalga oshirish jarayonida bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonoviy pedagogik texnologiya va metodlarini inobatga olgan holda takomillashtiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qobiliyatlarini rivojlantirish, tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashda “Ilk qadam” dasturi zamonoviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida olib boriladi.

Ushbu qaror bilan belgilagan kompleks tadbirlarni ilmiy yo'nalishda amalga oshirilishi xam zamon talabidir. Robiya Zoxidova tomonidan tanlangan mavzu va bajarilagan dissertatsiya o'zining dolzarbligi bilan axamiyatlidir. Chunki ushbu dissertatsiyada taklif etilgan metodik tavsiyalardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida dissertant mavzuning dolzarbligini hamda ishlanganlik darajasini yortib bera olgan. Kirish qismida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniq belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligini to'g'ri belgilay olgan.

Magistrlik dissertatsiyasi uchta bobdan iborat bo'lib, birinchi bob “Muammoni o'rganishning ilmiy nazariy asoslari “ deb nomlanib , ushbu bobda

motor rivojlanishini adabiyotlardagi taxlilini, maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutq rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini, bolalar nutqining rivojlanishida ertak terapiyasining tarixiy bosqichlarini yoritib bergan xamda birinchi bob bo'yicha xulosalar keltira olgan.

Magistrlik dissertatsiyasining ikkinchi bobi ta'kidlovchi eksperimentga bag'ishlangan bo'lib, bunda takidlovchi ekperement mazmuni, metodlari va uni tashkil etish mazmuni yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalarda nutqni tushunishini, lug'at boyligini tekshirish, mayda qo'l matorikasi va umumiy motorika harakatini tekshirish metokasi keltirilgan xamda ushbu metodika asosida o'tkazilgan, tekshirilgan natijalarining taxlili 4 ta jadvol va 4 ta diagrammada ifodalangan. Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobi "Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kachiligiga ega bo'lgan bolalar og'zaki nutq rivojlvnishida o'zbek xalq ertaklarining o'rmi va axamiyati " deb nomlanib, ushbu bobda dissertant maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda ertak terapiyasini texnologiyasini tashkil etish va o'tkazish mazmunini yorita olgan hamda maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar exsperimental guruhida ertak terepiyasi natijalari yoritilgan. O'qitish eksprimetini taxliliy natijalari 4 ta jadvol va 2 ta diagrammada ifodalangan. Ertak terapiyasi orqali alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar berilgan. Uchinchi bob bo'yicha xulasa xamda umumiy xulosalar keltirilgan.

Dissertant magistrlik dissertatsiyasini to'liq bajargan. Dissertatsiya tili tushunarli, tadqiqotga nisbatan o'z fikrlarini bildirgan olgan, tadqiqot ishini bajarishda ilmiy ijodiy yondosha olgan.

Lekin dissertatsiya mazmunini yoritishda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bo'lib ular:

1. Dissertatsiya xajmi magistrlik dissertatsiyasi uchun ko'p deb xisoblayman.

2. 3 bobda keltirilgan "Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq


kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishida o'zbek xalq ertaklarining o'mi" deb nomlangan 3 paragrafni olib tashlansa dissertatsiya xajmi talab darajasiga keladi. Bu dissertatsiya mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

3. Dissertatsiyada ba'zi grammatik va imloviy xatolar uchraydi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar dissertatsiyaning mazmuniga ta'sir etmaydi.

Dissertant D. matkasimova tomonidan bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi mustaqil to'liq bajarilgan va uni himoya uchun tavsiya etish mumkin.

Logopediya kafedrası:



professori, p.f.n. M. Y. Ayupoava

Nizomiy nomidagi TDPU “Maxsus pedagogika” fakulteti Logopediya mutaxassisligi 2-kurs magistranti Matkasimova Dilbarningning “Alaliya nutq kamchiligiga ega bo’lgan bolalarning og’zaki nutqini rivojlantirishda o’zbek xalq ertaklaridan foydalanish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishiga

TAQRIZ

Hozirgi kunda Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy islohatlarda o’sib kelayotgan yosh avlodni jismonan baquvvat aqlan barkamol etib tarbiyalash muhim masalalarda biri bo’lib kelmoqda. Shu borada mamlakatimizda aholining alohida e’tiborga muhtoj qatlamini qo’llab quvvatlash, ularga yetarlicha shart-sharoit yaratib berish, alohida ehtiyojlarga ega bo’lgan bolalar uchun sog’lom tengdoshlari kabi rivojlanishi uchun maxsus maktabgacha ta’lim muassalari tizimi tubdan isloh etildi. Hususan Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoevning “2017-2021 yillarda Maktabgacha ta’lim muassalari tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida” gi qarori yosh avlodni ma’nan va jismonan komil insonlar qilib tayyorlash yo’lidagi muhim qadam bo’ldi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni qobiliyatlarini rivojlantirish, tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashda “Ilk qadam” dasturi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida olib boriladi.

Ushbu qaror bilan belgilagan kompleks tadbirlarni ilmiy yo’nalishda amalga oshirilishi xam zamon talabidir. Matksdimova Dilbar tomonidan tanlangan mavzu va bajarilgan dissertatsiya o’zining dolzarbligi bilan axamiyatlidir. Chunki ushbu dissertatsiyada taklif etilgan metodik tavsiyalardan maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotida foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida dissertant mavzuning dolzarbligini hamda ishlanganlik darajasini yoritib bera olgan. Kirish qismida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligini to’g’ri belgilay olgan.

Magistrlik dissertatsiyasi uchta bobdan iborat bo’lib, birinchi bob “Muammoni o’rganishning ilmiy nazariy asoslari” deb nomlangan, ushbu bobda dissertant maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi va

motor rivojlanishini adabiyotlardagi taxlilini, maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar nutq rivojlanishidagi o'ziga hos hususiyatlarini, bolalar nutqining rivojlanishida ertak terapiyasining tarixiy bosqichlarini yoritib bergan xamda birinchi bob bo'yicha xulosalar keltirib berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining ikkinchi bobi ta'kidlovchi eksperimentga bag'ishlangan bo'lib, bunda takidlovchi ekperement mazmuni, metodlari va uni tashkil etish mazmuni yoritib berilgan. Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bolalarda nutqni tushunishini, lug'at boyligini tekshirish, mayda qo'l matorikasi va umumiy motorika harakatini tekshirish metokasi keltirilgan xamda ushbu metodika asosida o'tkazilgan, tekshirilgan natijalarining taxlili 4 ta jadval va 4 ta diagrammada ifodalangan. Ikkinchi bob bo'yicha xulosa keltirilgan.


Magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobi "Maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kachiligiga ega bo'lgan bolalar og'zaki nutq rivojlanishida o'zbek xalq ertaklarining o'rni va ahamiyati" deb nomlanib, ushbu bobda dissertant maktabgacha yoshdagi alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda ertak terapiyasini texnologiyasini tashkil etish va o'tkazish mazmunini yoritib bera olgan va olib borilgan texnologiya asosida exsperimental guruhida ertak terepiyasining takidlovchi eksperement natijalari yoritilgan. O'qitish eksprimetini taxliliy natijalari 4 ta jadval va 1 ta diagrammada ifodalangan. Ertak terapiyasi orqali alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar berilgan. Uchinchi bob bo'yicha xulasa hamda umumiy xulosa bilan ish yakunlangan.

Matkasimova Dilbar Shukurullo qizi "Alaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda o'zbek xalq ertaklaridan foydalanish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini to'liq bajargan ilmiy tadqiqot ishini tashkil etish qoidalariga to'liq rioya etilgan. Tadqiqot ishi tili tushunarli, tadqiqotga nisbatan o'z fikrlarini bildira olgan, tadqiqot ishini bajarishda ilmiy ijodiy yondosha olgan. Olingan natijalar matematik-staktik uslubda qayd etilgan va tadqiqot ishidan ko'zlangan maqsad mazmuni yoritib berilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishi hajmi talab darajasidan oshganligi kuzatildi, ammo bu holat dissertatsiya mazmuni to'liq yoritib berish maqsadida asosli deb hisoblandi. Dissertant D.Sh.Matkasimova tomonidan bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi mustaqil va to'liq bajarilgan ish bo'lib, O'zR OO'MTV talablariga mos, magistrlik ishini himoyaga tavsiya etiladi.

A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi
rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Korreksion ta'limni tashkil etish
va boshqarish kafedrasini mudiri

p.f.n.dots D.A.Nazarova



UCHTERATUMANI
386-SON
LIMAKTABGACHA
TA'LIMTASHKILOTI



PRESCHOOL EDUCATIONAL
ORGANIZATION №386
OF UCHTERA DISTRICT

ТОШКЕНТ Ш. УЧТЕПА ТУМАНИ ЧИЛОНЗОР 23 МАВЗЕ ТЕЛ:71-2745655; ФАКС:71-2745655

« _____ » _____ 2020 у.

_____ - sonli

Далолатнома.

Далолатнома шу хакидаким Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университетини магистранти **Матқасимова Дилбарнинг** "Алалия нутқ камчилигига эга булган халқ эртақларидан фойдаланиш" мавзусидаги магистрлик диссертацияси буйича тажриба-синов иши, эртақ терапияси асосида ишлаб чиқилган коррекцион технологик машгулотлар 2019 йил 3,4 кварталларида 2020 йил йилнинг 1 кварталларида 386-ММТМда утказилди.

386-ММТМ раҳбари:



Н.К.Эргашева

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Logopediya” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilgan
yig‘ilish muhokamasi 20-sonli bayonnomasidan

KO‘CHIRMA

Toshkent shahri

2020 yil 28 may

Qatnashdilar:

Yig‘ilish raisi –

PhD, v/b dos.N.Z.Abidova

va kafedra a‘zolari

Kun tartibi

Logopediya kafedrasi professor-o‘qituvchilari P.f.d. prof. L.R.Mo‘minova, P.f.n.dos.X.M.Po‘latova, P.f.n.prof.M.Yu.Ayupova, P.f.n.dos.N.V.Sosedova va P.f.n. dos. Z.M.Axmedovalar ilmiy raxbarligi ostida magistrlik dissertasiya ishi himoya oldi himoyasi muhokamasi haqida

Eshitildi: Logopediya kafedrasi mudiri PhD, dos.v/b N.Z.Abidova so‘zga chiqdi -- P.f.d. prof. L.R.Mo‘minova raxbarligida Jalilova Madina yozayotgan magistrlik dissertasiya ishi himoya oldi himoyasi tinglandi. P.f.n. prof.M.Yu.Ayupova raxbarligidagida Zoxidova Robiya tayyorlayotgan magistrlik dissertasiya holati o‘rganildi. P.f.n. dos. Z.M.Axmedova ilmiy raxbarligidagi 2 nafar magistr bo‘lib Matkasimova Dilbar va Gulyamova Aziza ishlari tinglandi. P.f.n. dos. N.V.Sosedova raxbarligidagi magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi Raxmanova Elvira tomonidan tinglandi. P.f.n.dos. X.M.Po‘latova magistrlik dissertasiya ishiga ilmiy raxbarligi ostida Bekmuratova Maxfuzaning himoya oldi himoyasi tinglandi.

So‘zga chiqdi: Logopediya kafedrasi mudiri N.Z.Abidova -- Magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi zoom tizimi orqali bo‘lib o‘tayotganligi sababli har bir magistrant 5-10daqqa ichida olib borgan ishi hisoboti tinglandi.

So‘zga chiqdilar: Matkasimova Dilbar -- “Alaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda o‘zbek xalq ertaklaridan foydalanish” mavzusida magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi tinglandi.

Zoxidova Robiya --“ Logopedik mashg‘ulotlarda rivojlantiruvchi o‘yinlar asosida bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari” mavzusida magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi tinglandi. **Jalilova Madina**--“ Nutq nuqsoniga ega bolalar bilan pedagogik-korreksion ishga ota-onalar va logopedni hamkorlik qilish texnologiyalari” mavzusida magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi tinglandi. **Gulyamova Aziza**--“ Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish texnologiyalari” mavzusida magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi tinglandi. **Bekmuratova Maxfuza**--“ Og‘ir nutq(alaliya) nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda bog‘langan nutqini multimediyalar asosida rivojlantirish” mavzusida magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi tinglandi. **Raxmanova Elvira**--“ Формирование профессиональной компетенции у студентов бакалавров при изучении курса логопедии” mavzusida magistrlik dissertasiya himoya oldi himoyasi tinglandi.

So‘zga chiqdilar: P.f.n.dos.Z.M.Axmedova, P.f.n.prof.M.Yu.Ayupova, P.f.n.dos.X.M.Po‘latovalar -- himoya oldi himoya qilingan magistrlik dissertasiya ishi bo‘yicha aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan ko‘plab maslahatlar berdilar.

Yuqorida so‘zga chiqqan professor-o‘qituvchilar muhokamasi ma’lumotlaridan kelib-chiqib

QAROR QABUL QILINDI:

1. MD ishi bo‘yicha berilgan axborot ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. MD ishi yuzasidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar bartaraf etilsin.
3. MD ishi tugallangan deb topilsin.
4. MD ishi yuzasidan olib borilgan himoya oldi himoya qoniqarli deb topilsin.

Kafedra mudiri:

PhD,v/b dos N.Z.Abidova

Kotiba:

S.Yu.Shamsiyeva

